- иштирокчилар воқеаларга ҳар хил кўз билан қарайдилар, шунинг учун ўқитувчи учун талаба ички кечинмаларини тушуниш қийин бўлса, талабага ўз ҳиссиётларини бошқариш қийиндир;

- педагогик низо одатда бошқа талабалар гувоҳлигида бўлиб ўтади ва улар учун ҳам тарбиявий аҳамиятга эга; (вазифа - талқин)

- ўқитувчининг касбий позисияси уни низони эчишда ташаббусни ўз қўлига олишга ва биринчи ўринга шаклланаётган шахснинг манфаатларини қўйишга мажбурлайди;

- ҳар бир хато яна бошқа низоларни келтириб чиқаради;

- низони ечгандан кўра уни олдини олиш афзалроқдир.

Педагогик вазият ва низоларни ечишда қуйидагиларни эътиборга олиш керак:

- ўқитувчи талабаларнинг ҳамкорликдаги ўқув фаолиятини тўғри ташкиллашни билиши зарур;

- одатда ўзлаштириши паст бўлган, хулқи ёмон ўқувчи иштирокидаги педагогик вазият низога кўпроқ айланади. Шунинг учун биринеҳи эътиборни шундай ўқувчиларга қаратиб уларга ўз вақтида педагогик таъсир ўтказиш, ёрдам бериш керак.

- ёмон хулқ учун паст баҳо қўйиш орқали жазолаб бўлмайди - бу низонинг чуқурлашишига ва фанга бўлган қизиқишнинг сусайишига олиб келади;

- Педагогик низоларда тўлиқ айбдор - айбсизлар, ютган ва ютқизганлар бўлмайди.

- Ўқитувчида педагогик тактнинг шаклланмаганлиги кўп педагогик низоларга сабаб бўлади (бунда ўқитувсби талабалар нафсониятига тегадиган ҳаракатларни

амалга оширади).

- Кўпинча ўқитувчи таъсирнинг новербал воситаларидан тўғри фойдаланишни, ўқувехини эшитишни билмаслиги низога олиб келади.

- Ўқитувчилар жазони низоларни ечишда асосий восита деб биладилар. Лекин кўрқув ҳеч қачон яхши оқибатга олиб келмайди.

Ўқитувчининг ўқувчилар билан ўзаро яқин мулоқотидан асосий мақсад:

- салбий ҳолларни вужудга келтирувчи барча жараёнларга барҳам бериш;
- ўқувчиларда мустақил фикр юритиш кўникмаларини ҳосил қилиш;
- ўқувчиларни фаолликка, эркин фикрлашга, ўз фикр-мулоҳазаларини чўчимасдан баён қилиб унга таянишга ўргатиш;
- ўқувчиларнинг яширин қобилиятларини ривожлантириш;
- дарс ва дарсдан ташқари жараёнларда қувонч ва шодлик кайфиятини пайдо қилиш.

А.С. Макаренконинг фикрича, ўқитувчи мулоқоти ҳурмат ва талабчанликка асосланган мимосабат шаклида бўлиши лозим.

В.Д.Сухомлинский ўқитувчининг "...мактаб ҳовлисида гапирган ҳар бир сўзи пухта ўйланган, ақл ва мулоҳазаларга бой, маълум бир тарбиявий мақсадга қаратилган бўлиши керак" деб таъкидлайди. Ўқитувчининг ҳар бир сўзи олимнинг фикрича, нафақат ўқувчи кулоғига айтилади, балки унинг қалбига ҳам қаратилган бўлиши шарт. Умуман илғор ўқитувчиларнинг фикрича, таълим ва тарбия фақат ўқитувчи ва ўқувчининг ўзаро ҳамкорлик позицияси асосидаги мулоқот жараёнида қурилади.

Ўқитувчининг ўз психик ҳолатини ўзи тартибга солиши лозим.

Сабр-тоқат, ташқи вазминлик нуктаи назаридан ўз ҳис-туйғаларини қўлга олишигина ниҳоятда муҳим бўлиб қолмасдан, шу билан бирга турли ҳиссиётли ҳолатларнинг рўй бериши ва кечишини маълум даражада бошқара билиш, кечинмаларнинг ижобий тусда боишига эришиш ҳам муҳимдир. Чунки ҳатто жанжалли вазиятларга ҳам турлича ёндошиши мумкин. Бу кўп жиҳатдан кишининг қандай ёъл тутишига боғлиқ бўлади.

Ноҳуш ҳиссиётларни ёқотиш ёки камайтиришга, масалан. қуйидагича ёъл тутиш ёрдам беради: менга осойишта, дадил овоз билан дарс олиб бориш, тарбиявий тадбирлар ўтказиш, сабр-тоқат ва ўзини тута билиш намунасини кўрсатиш завқ бағишлайди, ўқувчилар орасида жанжалли вазият чиқиб қолгудай бўлса, сабр-тоқат ва хушмуомала бақриб, асабийлашаётган, қизишаётган, кадр-қимматини ёқатаётган кишидан юқори туриш ва шу кабилар инсонга ҳузур бағишлайди.

Шуни эсда тутиш керакки, киши ғазабланганда, айниқса унинг кучли босқичи бўлган жаҳл отига минганда, ақл-идрок хулқ-атворни назорат қиломай қолади. Бу шундай ҳолатки, бу ҳақда римлик шоир Гратсий гапириб, тажанглик билан қилинган дарғазаблик қисқа муддатли ақлдан озишдир, деб таъкидлаган эди. Дарғазабликни фақат бошланишида енгил мумкин, шу сабабли киши ўзининг жаҳли чиқа бошлаганини сезиб, ўзига-ўзи шундай буйруқ бериши лозим: ўзимни яхши тутишим керак, ўз ҳис-туйғуларимни бошқариб, бебош ҳиссиётларга берилиб кетмаслигим лозим. Айниқса, ўқитувчи ҳар қандай вазиятда ҳам ўзини тута билиши зарур, у сабр-тоқат, мулойимлик, холислик кўрсата билишда намуна бўлиши лозим.

Янада қувноқроқ, оптимистроқ, вазминроқ бўлиш учун ҳамда ёвузлик, тушқинлик бўлган салбий кечинмаларга ёъл қўймаслик учун киши ўз онгини, ақлини кўп даражада сафарбар қилиши, бу ҳолатларнинг сабабларини тушуниши ва уларга барҳам бериш зарур. Киши ҳаётидаги икир-чикирлардан юқори кўтарила олиши, ўзининг диққат - эътиборини

асосий, муҳим нарсага қарата билиши муҳимдир. Акс ҳолда уни кундалик майда-чуйда жанжаллар ва улар билан боғлиқ салбий ҳиссиётлар «еб битириш»и мумкин. У доимий равишда аччиғлана бошлайди, атрофидагилар билан ўз муносабатларида вазминликни ёқота бошлайди, ўқитувчилик касби ҳақида гап кетганда бунга асло ёъл қўйиб бўлмайди.

Киши ўзини ёмон ҳис қилганда, унда ўз-ўзини назорат қилиш заифлашиб қолади, унинг ҳулқ-атвори вазмин бўлмай қолади, ҳар хил беихтиёр ва ўйланмаган хатти-ҳаракатлар, жанжаллар, ахлоқий нормаларнинг бузилиши содир бўлиши мумкин, ўз-ўзига таъсир қилиш ҳиссий жараёнларнинг ижобий ҳолтига, кишининг саломатлиги яхши бўлишига ёрдам беради, унинг иродаси вафеъл-атворида билвосита таъсир кўрсатади.

Ўқитувчининг ишида муомаланинг турли босқичларида унинг эмоционал кайфияти, фаолиятига ҳозирлик кўриш жараёнида, уни амалга ошириш даврида, муомала амалга ошганда кейинги ҳис қилинадиган сезгиларда ва кечинмаларда муҳим рол ўйнайди.

Синф билан муомала қилишдан олдин ижодий кайфиятни вужудга келтирадиган омилларни излаш дарсга ҳозирлик кўришдаги бутун жараённи қамраб олади ва ўқитувчига бўлажак фаолиятининг умумий жўшқин вазиятини ҳис қилишга ёрдам беради. Худди ана шу дарс ва муомаланинг бўлажак вазиятини ҳис қилиш зарур ижодий ўзаро филер алмашиш кайфиятининг пайдо бўлишига кўмакишади, педагогнинг ижодий табиатини сафарбар қилади.

Юқоридагилардан келиб чиқадиган хулоса шуки, ўқитувчи билан ўқувчи ўртасидаги муомалани тартибга солувчи талаблардан бин боланинг ҳулқини, бола бажарган ишни одилонга, тўғри ва адолатли баҳолашдир. Зеро, Соҳибқирон Амир Темур «куч-адолатда» деб бежиз таъкидламаганлар. Болаларда адолат туйғуси мактабда шаклланади.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi.: Nasaf, 2000.*
2. *Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. - T.: 2005.*
3. *Avliyakov N. X., Musayeva N. N. Pedagogik texnologiya. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.*
4. *Azizxodjayeva N.N. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo. -Tashkent: Moliya, 2002.*
5. *Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - T.: Fan, 2006.*

PEDAGOGIK TEXNIKA VA AKTIYORLIKKA XOS XUSUSIYATLAR**Dexqanova Mamura Ulmasovna****Amirova Komila****Erxanova Durdona**

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik texnika va aktiyorlikka xos xususiyatlar, shuningdek pedagogik texnika haqida tushuncha va pedagogik texnikaning muhim xususiyatlari haqida so'z boradi. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnika, aktiyorlikka xos xususiyatlar, pedagogik texnikaning muhim xususiyatlari.

FEATURES OF PEDAGOGICAL TECHNIQUE AND ACTING

Abstract. This article talks about the characteristics of pedagogical technique and acting, as well as the concept of pedagogical technique and the important features of pedagogical technique. During the article, reasonable opinions and considerations are mentioned.

Key words: pedagogical technique, characteristics of acting, important features of pedagogical technique.

ОСОБЕННОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕХНИКИ И АКТЕРСКОГО МАСТЕРСТВА

Аннотация. В данной статье говорится об особенностях педагогической техники и актерского мастерства, а также о понятии педагогической техники и важных особенностях педагогической техники. В ходе статьи приводятся обоснованные мнения и соображения.

Ключевые слова: педагогическая техника, особенности актерского мастерства, важные особенности педагогической техники.

KIRISH

Pedagogik texnika - o'qituvchining nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir.

ASOSIY QISM

Pedagogik texnikaning muhim jihatlari -bu avvalo, o'qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko'nikmalar hisoblanadi, ya'ni uning savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasini va bilimni tushunarli tilda ta'sirchan bayon qilishi, his-tuyg'usini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli qarash rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali o'quvchilar ongiga va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirjavoblik psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabilardir.

O'qituvchining pedagogik texnikasi qanday ko'nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika vositasida o'qituvchi ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy talablar asosida qanday tashkil qilishi, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishida qanday ahamiyatga ega ekanligi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo'lib o'rganiladi Birinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlari va xulqi bilan bog'liq

bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida o'z o'zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo'ladi:

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z xatti-harakatlarini boshqarishi, (mimika, pantomimika);
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hissiyotini va kayfiyatini ji-lovlay olishi va turli nojo'ya ta'sirlarga berilmaslik;
- mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;
- nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish, nutq tempi) bilishi va o'z o'rnida qo'llay olishi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lib, bu guruh ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:

- o'qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari;
- ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarining bajarilishini nazorat qilishi;
- ta'lim muassasasida va o'quvchilar jamoasida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;
- o'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi.

O'qituvchining tarbiyalanuvchi obyektlar oldida o'z harakatlarini boshqarishida aktyorlik san'atiga xos bo'lgan xususiyatlari, ya'ni mimik va pantomimik qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi. Aktyor bir obrazni ma'lum bir muddatda tayyorlab, bir yoki bir necha marotaba bir xil ko'rinishda sahnada namoyish etsa, o'qituvchi butun o'quv yili davomida, har bir darsda yangi mavzuni o'tilgan mavzular bilan bog'lab, zamonaviy innovatsion usullar vositasida o'quvchilar ongiga yetkazish uchun chuqur tayyorgarlik ko'radi, sinf jamoasidagi o'ziga xos pedagogik va psixologik muhitni, har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olib pedagogik faoliyat ko'rsatishga majbur. Bunday ulkan mas'uliyatni yuqori saviyada bajarish uchun o'qituvchidan yuksak pedagogik texnik tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning rolini beqiyos deb biladi. Chunki u o'qituvchiga o'z gavdasini tuta bilishi (mimika, pantomimika), his-tuyg'ularini (emotsiyasini) boshqara olishi, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallashi va ularni o'quv faoliyatida, o'qishdan tashqari ta'lim va tarbiyaviy faoliyatlar jarayonida qo'llash yo'llarini tushuntiradi.

Demak, pedagogik texnika o'qituvchi kasbiy faoliyatida shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig'indisiki, u o'qituvchining pedagogik faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik texnikalar tizimiga o'qitish samaradorligini oshirish va ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadigan yana bir mahorat o'qituvchining aktyorlik va rejissyorlik mahoratidir. Xususan, adbiyot, odob, ma'naviyat asoslari, tarix fanlari o'qituvchilari uchun aktyorlik mahorati juda zarur. Ayrim mavzular, obrazlar, tarixiy qaxramonlarni tasvirlash, aktyorlik, tarbiyaviy ma'lumotlar so'rash, o'quvchilar vaoliyatini tashkil etishda o'qituvchidan rejissyorlik mahorati zarur. Bu ko'nikmalar o'qituvchiga yoshlar bilan muloqotda bo'lishda – o'quvchilarning intellektiga emas, balki ularning his-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazishga, dunyoga hissiy jihatdan qimmatli bo'lish tajribasini o'rgatishda yordam beradi.

Pedagogik texnikaning muhim xususiyatlaridan biri o'qituvchining o'quvchilar bilan bevosita muloqoti jarayonida shakllanadigan kasbiy texnik ko'nikma va malakalaridir. Bunda pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalari o'qituvchining pedagogik mahorati bilan aloqadorlikda shakllanib boradi. Rivojlangan pedagogik texnika xususiyatlari o'qituvchiga o'quvchilar bilan muloqot jarayonida zarur so'z va gap ohangi, qarash, imo ishorani tez va aniq topish, kutilmagan pedagogik vaziyatlarda bosiqlik va osoyishtalik, aniq fikr yuritish, vaziyatni fikran va tez tahlil qilish kabi qobiliyatlarini namoyish etish bilan ifodalanadi. Pedagogik texnikaning ushbu xususiyatlari o'qituvchi kasbiy mahoratida aniq ifodalangan individual shaxsiy shakl oladi, ya'ni o'qituvchining psixologik-fiziologik xususiyatlari asosida uning shaxsiy pedagogik texnikasini tarkib toptiradi.

Individual pedagogik texnikaning shakllanishi o'qituvchining yoshi, jinsi, mijozi, fe'l-atvori, salomatligi, anatomik-fiziologik xususiyatlariga bogliq. O'qituvchining shaxsiy "Mehnat professiogrammasi"ni ishlab chiqdilar. Olimlarning fikrlariga ko'ra o'qituvchi professiogrammasi o'qituvchilarga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga oladi hamda har bir fan o'qituvchisining alohida ixtisoslashgan xarakteristikasini belgilab beradi. Jumladan, ular ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib boradigan "o'qituvchi-murabbiy professiogrammasi"da quyidagi hislatlar, ya'ni "Pedagogik texnika" malakalari mujassamlashgan bo'lishini ta'kidlaydilar.

1) O'qituvchining shaxsiy hislatlari: bolalarni sevishi, kamtarligi, dilkashligi, mehnatsevarligi.

2) Kasbga xos bilimlari: ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyatini bilishi, pedagogik va psixologik bilim asoslarini egallashi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga asosan psixologik imkoniyatlarini anglashi, tarbiyaviy ta'sir etishning samarali usullaridan oqilona foydalana olishi, otaonalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan faoliyat mazmunini puxta bilishi.

3) Kasbga xos hislatlari: milliy mafkura, umuminsoniy qadriyatlar, milliy an'ana va urf-odatlarining asl mohiyatini tushunishi, kuzatuvchanligi, pedagogik qobiliyatga egaligi, o'zini qo'lga olib bilishi, o'zini anglay olishi, pedagogik takt, nutq madaniyati.

4) Shaxsiy pedagogik uddaburonligi: dars mashg'ulotlarida zarur materiallarni tanlay olishi, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishi, ta'lim-tarbiya jarayonini istiqbolli rejalashtirishi, o'quvchilar jamoasini boshqara olishi.

5) Tashkilotchilik malakalari: o'quvchilar jamoasini uyushtira bilishi, turli ziddiyatli vaziyatlarda ham o'quvchilar jamoasini boshqarishi, amaliy muammolarni hal etishda uddaburonligini namoyish etish olishi.

6) Kommunikativ malakalari: o'quvchilarni o'ziga jalb etishni bilishi, o'quvchilar va otaonalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik muloqotlarni tashkil qilishi, o'quvchilarning jamoada o'zaro munosabatlarida bir xil muvozanatni tartibga solishi.

7) Gnostik malakalari: o'quvchilarning asab psixik holati darajasini aniqlay olishi, o'z pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi, ustoz o'qituvchilar mahoratini nazariy va amaliy jihatdan o'rganib borishi, psixologik va pedagogik adabiyotlardan to'g'ri foydalana bilishi, o'quvchilar xulq-atvorini mukammal o'rganishi.

8) Ijodiy hislatlari: o'z pedagogik mahoratini doimiy takomillashtirib borishi, o'quvchilarni tarbiyalashda o'z dasturini ishlab chiqishi va uni muvaffaqiyatli amalga oshirishi, o'quvchilar nazari bilan voqelikni tahlil qilish qobiliyati, o'quvchilarga pedagogik ta'siri natijalarini oldindan ko'ra olishga intilishi. Psixolog olimlarning fikricha, ushbu

professiogramma yosh o'qituvchilarga o'zlarining kelgusida o'qituvchilik kasbini to'g'ri va ongli ravishda tanlab, kasbiy mahoratlarini takomillashtirib borishlariga yordam beradi

XULOSA

Hozirgi davr talablari nuqtai nazaridan, o'qituvchiga qo'yilayotgan javobgarlik hissi kengayib, murakkablashib bormoqda.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlarning yuksak natijalari bevosita o'qituvchilarning qizg'in mehnati samarasiga bog'liq. Vatanimizning porloq kelajagi uchun yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol inson qilib voyaga etkazishda o'qituvchining kasbiy bilimi, faoliyat texnikasi mutlaqo yangilanib, hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajada bo'lishi kerak. 'Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablariga muvofiq o'qituvchi o'zining ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga doimo e'tibor berib kelishi lozim. O'qituvchining pedagogik texnikasi ham vatanparvarlikka, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlashga, o'qituvchilarning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishiga asoslangan bo'lishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017.
3. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. – T.: Cho'lpon, 2005.
4. Isaev I.F. Professionalno-pedagogicheskaya kultura prepodavatelya: Uchebnoe posobie dlya vuzov / I. F. Isaev. – M.: Akademiya, 2002.
5. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. – Routledge, USA, 2012.
6. A. Zunnunov va boshqalar. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent «O'qituvchi».

**PEDAGOGIK NIZOLAR VA ZIDDIYATLARNING FALSAFIY, PEDAGOGIK-
PSIXOLOGIK TASNIFI**

Dexqanova Mamura Ulmasovna

Aqmirzayeva Nafisa Ikrom qizi

Tulaganova Sevara Fozil qizi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada pedagogik nizolarning asosiy sabablari va pedagogning pertseptiv (o'quvchi, talabalarni tushunish) xatolari. Pedagogning o'quvchi-talabalar bilan ish yoki shaxsiy ish yuzasidan bo'ladigan kelishmovchiliklari va ularni bartaraf etishning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Yosh pedagoglar faoliyatida odatda yo'l qo'yiladigan xatolar va ularni yengish yo'llari batafsil tushuntirib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** pedagogik nizolar, pedagogning pertseptiv (o'quvchi, talabalarni tushunish) xatolari, shaxsiy ish.*

**PHILOSOPHICAL, PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL
CLASSIFICATION OF PEDAGOGICAL DISPUTES AND CONFLICTS**

***Abstract.** In this article, the main causes of pedagogical conflicts and perceptual errors of the pedagogue (reader, student understanding) are discussed. Disagreements between the teacher and the students regarding work or personal work and the specific features of their resolution are highlighted. Common mistakes made by young pedagogues and ways to overcome them are explained in detail.*

***Key words:** pedagogic conflicts, perceptual errors of the pedagogue (understanding the student, students), personal work.*

**ФИЛОСОФСКО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ
КЛАССИФИКАЦИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ СПОРОВ И КОНФЛИКТОВ**

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются основные причины педагогических конфликтов и перцептивных ошибок педагога (читателя, учащихся). Выделены разногласия между учителем и учениками по поводу трудовой или личной работы и особенности их разрешения. Подробно объяснены типичные ошибки молодых педагогов и пути их преодоления.*

***Ключевые слова:** педагогические конфликты, перцептивные ошибки педагога (понимание ученика, учащихся), личностная работа.*

«Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomalamunosabatlar katta o'rin egallaydi. Muallim pedagogik jarayonda asosiy figura, yetakchi kishidir. O'qituvchi pedagogik ishda fidoyilik ko'rsatib, muallimlik burchini yuksak darajada bajarib, bolalarga bilim berib, ular qalbiga halollik, go'zallik, haqiqat, o'dob-axloq nurini singdira olsa sharaflil vazifasini dog' tushirmay bajargan sanaladi, hurmat-e'tibor topadi. Shogirdlari tomonidan ulug'lanadi.

Afsuski, hamma muallimlar haqida ham shunday deyish qiyin. O'zining dag'al muomalasi bilan bolaning ko'nglini o'qishdan sovitib, dilini o'rinsiz ranjitadiganlar ham uchrab turadi. Pedagogik amaliyot, badiiy adabiyotda bunga misol bo'ladigan dalillar ko'p. Bundaylar yoshlar tarbiyasiga, ularning axloqiga salbiy ta'sir etadilar. Tarbiyaviy ishlarga tuzatish qiyin bo'lgan darajada ziyon yetkazadilar. Natijada o'qituvchi bilan o'quvchi, talaba o'rtasida nizo tug'ila boshlaydi.

Barkamol, ijodkor shaxsni shakllantirishga, tarbiyalashga doir axloqiy normalar pedagogik etikada ifodalangan. Tarbiyalanuvchiga ijobiy ta'sir o'tkazish shartlaridan biri o'zaro ishonch, hamjihatlikda maqsad sari ustoz va shogird maqomida hamkorlikda intilishdir. Bu qonuniyat

pedagogik amaliyotda ko'p marta sinovdan o'tgan va o'zini oqlagan. Muallimlar, talabalar bilan o'tkazilgan suhbat natijalari shundan dalolat beradiki, maktabda xushmuomala, o'quvchilarga ham ota-ona, do'st, rahbar bo'la olgan o'qituvchilargina muvvaafaqiyatlarga erishadilar. Aksincha qo'pol, o'zini bosolmagan, o'ylamay hukmlar chiqarishga moyil o'qituvchilar muammolar orasida qoladilar.

Pedagogik jarayon, tarbiya jarayoni, odamlarning tabiati shu darajada murakkabki, muallim ba'zan istasa-istamasa qo'pollik qilishga «majbur» bo'ladi, o'quvchi muallimning o'rinni talablarini bajarmayotgan paytlarida u o'zini tuta olmay qoladi. Muallim o'z talablarini, hatto qo'pollik holatini ham, bolaga yaxshilik qilayapman deb hisoblaydi, chunki bu ishni bolaga bilim berish, uni to'g'ri yo'lga solish, yaxshi odam qilib tarbiyalash uchun qilayotganligiga ishonadi. Afsuski, bu to'g'ri xulosa emas. Sa'diy She'roziyning «Guliston» (Toshkent, 1968) asarining «Tarbiya ta'siri bayoni» bobidagi hikoyatlar, Alisher Navoiyning «Mahbub - ul - qulub» asaridagi «Mudarrislar to'g'risida», «Maktabdorlar to'g'risida»gi asarlarida bildirilgan mulohazalar bu fikrimizga hamohangdir.

Ba'zi holatlar, masalan tarbiyasi qiyin bola bilan muomala-munosabatlar jarayonida sodir bo'ladi. Unutmaslik lozimki, bunday bola odatda, nosog'lom muhitli oilada voyaga yetadi. Tajribali pedagoglar tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash, muomala qilish murakkabligini, shu bilan birga ular mehrga zor, e'tiborga muhtoj ekanligini, bundaylarga m'sbatan bardoshli, sabr-toqatli, kechirimli bo'lish zarurligini ham his etishlari lozim.

Ma'lumki, jismoniy jarohat olgan bolani o'qituvchi jazolamaydi. Jismoniy tarbiya muallimi oyog'i jarohatlangan boladan yugurish musobaqasida qatnashishni talab etmaydi. Bola ba'zan qalbi, rubi jarohatlangan holda maktabga kelishi mumkin. Ta'lim jarayonida buni barcha o'qituvchilar birdek e'tiborga olishadimi? Baxtga qarshi, yo'q. Bola javob berishni hoxlamayapti, dars tayyorlashni istamagan — deb hisoblab, unga nisbatan qat'iy talab qo'yish hollari bor. Bu o'rinda ezgulik qilaman deb, «yozuvlik» qilib qo'yish hech gap emas.

Muallimning biror tasodifiy xatti-harakat natijasida o'quvchilarda u haqda sodir bo'lgan fikr ham ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir etishi, muallimning ishini murak-kablashtirishi mumkin. Odatda bunday ziddiyatlar uzoq davom etadi». (Malla Ochilov. Muallim qalb me'mori. Toshkent, «O'qituvchi». 2001 yil. 56-57 betlar). Natijada o'qituvchi bilan o'quvchi orasida nizolar chiqadi. O'quvchi o'qituvchidan norozi holda, undan uzoqlashib yuradi. Ayrim hollarda muallimni himoya qilaman deb, kattalar boladan kechirim so'rashni talab etadilar, holbuki bu nizoga o'qituvchining noto'g'ri xatti-harakati sabab bo'lgan. Bunday vaqtda bolaning qadr-qimmatini hisobga olinmaydi.

Ayrim hollarda bolaga mas'uliyatli ishlarni topshiradilar, bola esa bunday paytlarda kattalar topshirig'ini bajarmay qo'yadi, o'zining mustaqilligini cheklashlarini yoqtirmaydi, kattalarning talablariga ko'pincha salbiy munosabatda bo'ladi. O'g'il yoki qizlarining ulg'ayib qolganligini sezmagani, ularni hali ham «yosh bola» deb hisoblaydigan oilalarda o'smir bilan kattalar o'rtasida tez-tez nizolar, to'qnashuvlar vujudga keladi.

Kattalar bolaga qanday munosabatda bo'lishlari kerak? Avvalo, bolaning xulqiga doimiy e'tibor berish, uning xulqiga qat'iy, uzluksiz rahbarlik qilish, shuningdek, bularning hammasini shunday amalga oshirish kerakki, bola mayda-chuyda ishlarida ham kattalarning vasiyligini sezmasin. Ayniqsa, o'smir yoshidagilar ularning hayotdagi yangi mavqelari bilan hisoblashadigan, ularni «kichkina» deb hisoblamaydigan, talabchan, lekin adolatli o'qituvchilarni hurmat qiladilar.

Katta yoshli bolalar uchun qiziqishlarinhiq turli-tumanligi xarakterlidir. Bu qiziqishlar to'g'ri tarbiyalansa, o'smirlar qobiliyatleri va mayllarining rivojlanisbiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'qituvchining o'quvchi-talabalar bilan ish yoki shaxsiy ish yuzasidan ayrim vaqtlarda kelishmovchilikleri bo'lib turadi. O'quvchi atrofdagilarning unga bergan bahosiga nisbatan tanqidiy qaraydi. Uning kayfiyatidagi ranjish va ikkilanishning sababi ham ana shunda. Tasodifiy muvaffaqiyat yoki kattalarning maqtab qo'yishi bolaning o'ziga ortiqcha baho berishiga, o'ziga haddan tashqari ishonuvchanlikka, maqtanchoqlikka olib keladi. Hatto, vaqtincha tasodifiy muvaffaqiyatsizlik bolada o'z kuchiga ishonmaslikni uyg'otishi, ikkilanish, qo'rqqoqlik, jur'atsizlik va uyatchanlik hissini oshirib yuborishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi va tarbiyachilarning bolalar bilan bo'ladigan munosabati alohida nazokatni talab etadi. O'smirlik yoshida zaif, mustaqil emas, kichkina deb nom chiqarishdan qo'rqqish xavfi kuchayadi.

Muomaladagi dag'allik, talabchanlik, hurmatsizlik, o'quvchiga mensimay muomalada bo'lish, «yaxshi tushu-naman» deb hisoblagan masalalari bo'yicha o'zlarining mustaqil fikrlarini aytish huquqini kamsitish, ularning yuqori natijalarga erishishidagi kuch va imkoniyatlariga shubhalanish, odatda norozilik yoki aniq ifodalangan boshqa bir salbiy reaksiyalar — hodisalarni hosil qiladi.

Ayrim o'qituvchilar hayotida muayyan xatolar uchrab turadi. O'qituvchilar (yosh o'qituvchilar nazarda tutilayapti) bir xil o'quvchilarni (o'zlashtirayotgan) doim maqtaydilar, boshqalarni (o'zlashtirmayotgan) hamisha koyiydilar. Buning ustiga o'zlashtirmayotganlarga odatda, o'zlashtirgan sinfdosh-lariga nisbatan tez-tez va qattiq tanbeh beradilar. Hatto past o'zlashtiradigan o'quvchilarni javob berishga kamdan-kam taklif qiladilar.

Mana bunday vaziyatda o'quvchilar bir-birlariga nisbatan qaram bo'lib qoladilar, o'qituvchiga nisbatan norozilik kayfiyati uyg'onadi past o'zlashtirgan o'quvchiga «yomon» baho qo'yiladi, buning ustiga bir necha ko'ngilbuzar achchik, istehzoli so'zlar ham aytiladi, bu xatoni o'quvchi umrbod kechirmaydi.

Yosh o'qituvchilar hayotida uchraydigan yana bir tipik xatolardan biri yaxshi o'qiydigan o'quvchi bilan yomon o'qiydigan o'quvehini bir-biriga taqqoslash va a'lochi o'quvchini misol qilib ko'rsatishdir.

Umuman olganda, bolalarni bir-biri bilan taqqoslash, birini ikkinchisiga ibrat qilib ko'rsatish pedagogik tomondan ham, axloq tomondan ham noto'g'ri, katta xatodir.

Bundan tashqari, o'qituvchi tomonidan o'quvchilar bilimini baholashda ham xatoliklarga yo'l qo'yilishi o'quv-bilish faoliyatini o'zgarishiga olib keladi, o'qituvchini esa o'quvchilar jamoasida obro'sizlantiradi.

Pedagogik nizolar xususiyatlari:

- nizoning pedagogik to'g'ri hal qilinishi uchun o'qituvchining mas'uliyati (lekin bunda oliy o'quv yurti o'qituvchisi balog'atga etgan, o'z hararakatlari uchun mas'ul yoshdagi insonlar bilan ishlashini yoddan chiqarmasUK kerak);
 - nizo ishtirokchilari har xil ijtimoiy darajadadirlar (o'qituvchi-o'quvchi);
 - bu esa nizoda tomonlarning hatti-harakatlari o'rtasida farq bo'lishini ta'minlaydi;
- nizo ishtirokchilarining hayot tajribasidagi farq ularni har xil pozisiyaga ajratadi va uning echilishida ularning mas'uliyat darajasini ham farqlaydi;
- ishtirokchilar voqealarga har xil ko'z bilan qaraydilar, shuning uchun o'qituvchi uchun

talaba ichki kechinmalarini tushunish qiyin bo'lsa, talabaga o'z hissiyotlarini boshqarish qiyindir;

- pedagogik nizo odatda boshqa talabalar guvohligida bo'lib o'tadi va ular uchun ham tarbiyaviy ahamiyatga ega; (vazifa - talqin)
- o'qituvchining kasbiy pozitsiyasi uni nizoni echishda tashabbusni o'z qo'lga olishga va birinchi o'ringa shakllanayotgan shaxsning manfaatlarini qo'yishga majburlaydi;
 - har bir xato yana boshqa nizolarni keltirib chiqaradi;
 - nizoni yechgandan ko'ra uni oldini olish afzalroqdir.

Pedagogik vaziyat va nizolarni yechishda quyidagilarni e'tiborga olish kerak:

- o'qituvchi talabalarning hamkorlikdagi o'quv faoliyatini to'g'ri tashkillashni bilishi zarur;

- odatda o'zlashtirishi past bo'lgan, xulqi yomon o'quvchi ishtirokidagi pedagogik vaziyat nizoga ko'proq aylanadi. Shuning uchun birinehi e'tiborni shunday o'quvchilarga qaratib ularga o'z vaqtida pedagogik ta'sir o'tkazish, yordam berish kerak.

- yomon xulq uchun past baho qo'yish orqali jazolab bo'lmaydi - bu nizoning chuqurlashishiga va fanga bo'lgan qiziqishning susayishiga olib keladi;

- Pedagogik nizolarda to'liq aybdor - aybsizlar, yutgan va yutqizganlar bo'lmaydi.

- O'qituvchida pedagogik taktning shakllanmaganligi ko'p pedagogik nizolarga sabab bo'ladi (bunda o'qituvchi talabalar nafsoniyatiga tegadigan harakatlarni amalga oshiradi).

- Ko'pincha o'qituvchi ta'sirning noverbal vositalaridan to'g'ri foydalanishni, o'quvehini eshitishni bilmasligi nizoga olib keladi.

- O'qituvchilar jazoni nizolarni yechishda asosiy vosita deb biladilar. Lekin qo'rquv hech qachon yaxshi oqibatga olib kelmaydi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro yaqin muloqotidan asosiy maqsad:

- salbiy hollarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish;

- o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish;

- o'quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o'z fikr-mulohazalarini cho'chimasdan bayon qilib unga tayanishga o'rgatish;

- o'quvchilarning yashirin qobiliyatlarini rivojlantirish;

- dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish. A.S. Makarenkoning fikricha, o'qituvchi muloqoti hurmat va talabchanlikka asoslangan mimosabat shaklida bo'lishi lozim.

V.D.Suxomlinskiy o'qituvchining "...maktab hovlisida gapirgan har bir so'zi puxta o'ylangan, aql va mulohazalarga boy, ma'lum bir tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak" deb ta'kidlaydi. O'qituvchining har bir so'zi olimning fikricha, nafaqat o'quvchi qulog'iga aytiladi, balki uning qalbiga ham qaratilgan bo'lishi shart. Umuman ilg'or o'qituvchilarning fikricha, talim va tarbiya faqat o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorlik pozitsiyasi asosidagi muloqot jarayonida quriladi.

O'qituvchining o'z psixik holatini o'zi tartibga solishi lozim.

Sabr-toqat, tashqi vazminlik nuqtai nazaridan o'z his-tuyg'alarini qo'lga olishigina nixoyatda muhim bo'lib qolmasdan, shu bilan birga turli hissiyotli xolatlarning ro'y berishi va kechishini ma'lum darajada boshqara bilish, kechinmalarining ijobiy tusda bo'lishiga erishish ham muhimdir. Chunki hatto janjalli vaziyatlarga ham turlicha yondoshishi mumkin. Bu ko'p jihatdan kishining qanday yo'l tutishiga bog'liq bo'ladi.

Nohush hissiyotlarni yo'qotish yoki kamaytirishga, masalan. quyidagicha yo'l tutish yordam beradi: menga osoyishta, dadil ovoz bilan dars olib borish, tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish, sabr-toqat va o'zini tuta bilish namunasini ko'rsatish zavq bag'ishlaydi, o'quvchilar orasida janjalli vaziyat chikib qolguday bo'lsa, sabr-toqat va xushmuomala baqrib, asabiylashayotgan, qizishayotgan, qadr-qimmatini yo'qatayotgan kishidan yuqori turish va shu kabilar insonga huzur bag'ishlaydi.

Shuni esda tutish kerakki, kishi g'azablanganda, ayniqsa uning kuchli bosqichi bo'lgan jahl otiga minganda, aql-idrok xulq-atvorni nazorat qilomay qoladi. Bu shunday holatki, bu haqda rimlik shoir Gratsiy gapirib, tajanglik bilan qilingan darg'azablik qisqa muddatli aqldan ozishdir, deb ta'kidlagan edi. Darg'azablikni faqat boshlanishida yengish mumkin, shu sababli kishi o'zining jahli chiqa boshlaganini sezib, o'ziga-o'zi shunday buyruq berishi lozim: o'zimni yaxshi tutishim kerak, o'z his-tuyg'ularimni boshqarib, bebosh hissiyotlarga berilib ketmasligim lozim. Ayniqsa, o'qituvchi har qanday vaziyatda ham o'zini tuta bilishi zarur, u sabr-toqat, muloyimlik, xolislik ko'rsata bilishda namuna bo'lishi lozim.

Yanada quvnoqroq, optimistroq, vazminroq bo'lish uchun hamda yovuzlik, tushkinlik bo'lgan salbiy kechinmalarga yo'l qo'ymaslik uchun kishi o'z ongini, aqlini ko'p darajada safarbar qilishi, bu holatlarning sabablarini tushunishi va ularga barham berish zarur. Kishi hayotidagi ikir-chikirlardan yuqori ko'tarila olishi, o'zining diqqat - e'tiborini asosiy, muhim narsaga qarata bilishi muhimdir. Aks holda uni kundalik mayda-chuyda janjallar va ular bilan bog'liq salbiy hissiyotlar «yeb bitirish»i mumkin. U doimiy ravishda achchig'lana boshlaydi, atrofidaqilar bilan o'z munosabatlarida vazminlikni yo'qota boshlaydi, o'qituvchilik kasbi haqida gap ketganda bunga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Kishi o'zini yomon his qilganda, unda o'z-o'zini nazorat qilish zaiflashib qoladi, uning hulq-atvori vazmin bo'lmay qoladi, har xil beixtiyor va o'ylanmagan xatti-harakatlar, janjallar, axloqiy normalarning buzilishi sodir bo'lishi mumkin, o'z-o'ziga ta'sir qilish hissiy jarayonlarning ijobiy holtiga, kishining salomatligi yaxshi bo'lishiga yordam beradi, uning irodasi vafe'l-atvoriga bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchining ishida muomalaning turli bosqichlarida uning emotsional kayfiyati, faoliyatiga hozirlik ko'rish jarayonida, uni amalga oshirish davrida, muomala amalga oshganda keyingi his qilinadigan sezgilarda va kechinmalarda muhim rol o'ynaydi.

Sinf bilan muomala qilishdan oldin ijodiy kayfiyatni vujudga keltiradigan omillarni izlash darsga hozirlik ko'rishdagi butun jarayonni qamrab oladi va o'qituvchiga bo'lajak faoliyatining umumiy jo'shqin vaziyatini his qilishga yordam beradi. Xuddi ana shu dars va muomalaning bo'lajak vaziyatini his qilish zarur ijodiy o'zaro filer almashish kayfiyatining paydo bo'lishiga ko'makiashadi, pedagogning ijodiy tabiatini safarbar qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan xulosa shuki, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomalani tartibga soluvchi talablardan bin bolaning xulqini, bola bajargan ishni odilona, to'g'ri va adolatli baholashdir. Zero, Sohibqiron Amir Temur «kuch-adolotda» deb bejiz ta'kidlamaganlar. Bolalarda adolat tuyg'usi maktabda shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi.: Nasaf, 2000.*
2. *Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. -T.: 2005.*
3. *Avliyakov N. X., Musayeva N. N. Pedagogik texnologiya. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.*
4. *Azixodjayeva N.N. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo. - Tashkent: Moliya, 2002.*
5. *Azixodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - T.: Fan, 2006.*

**YOSH O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATINI
TAKOMILLASHTIRISHDA MULOQOTNING AHAMIYATI****Dexqanova Mamura Ulmasovna****Jumaniyazova Maxsuda****Nurmuratova Iroda**

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik muloqot va uning vazifasi, O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot olib borish yo'llari hamda O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot olib borish qobiliyatini shakllantirish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik muloqot, o'quvchilar bilan muloqot olib borish qobiliyati, dunyoni bilish usullarini o'rganish.

**THE IMPORTANCE OF COMMUNICATION IN IMPROVING THE
PEDAGOGICAL SKILLS OF A YOUNG TEACHER**

Abstract. Pedagogical communication and its function, the teacher's ways of communicating with students, and the issues of forming the teacher's ability to communicate with students are explained in this article.

Key words: pedagogical communication, the ability to communicate with students, learning ways of knowing the world.

**ЗНАЧЕНИЕ ОБЩЕНИЯ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА МОЛОДОГО УЧИТЕЛЯ**

Аннотация. В данной статье описаны педагогическое общение и его функции, способы общения учителя с учениками, а также вопросы формирования умения учителя общаться с учениками.

Ключевые слова: педагогическое общение, умение общаться с учащимися, учебные способы познания мира.

Inson mehnat faoliyatining shakl va usullarini o'rganish uchun ham ko'p vaqt ajratadi, dunyoni bilish usullarini o'rganish uchun ham ko'p vaqt ajratadi. Biroq insonlararo muloqotga hech kim hech qayerda maxsus o'qitilmaydi. Bizda muloqot qilishning murakkab san'atiga o'qitadigan maktab hozircha yo'q. U bevosita ish jarayonida shakllanib boradi. Tasavvur qiling, siz sinfga kirib keldingiz. Pedagogik muloqotning yozilmagan ushbu qonunlarini yana bir bor eslatishga harakat kilamiz.

1. Pedagogik jarayon bizning bolalar bilan munosabatimizga asoslanadi, zotan xuddi shu munosabatlar pedagogik o'zaro ta'sirda birlamchidir, har bir «pedagogik harakat»ga takrorlanmas shaxsiylik ma'nosini beradi. O'quv material yoki pedagogik talabni takrorlanmas xislatlar yig'indisi bilan bezaydi. Bularsiz esa bola qalbi sirini hech qachon anglab bo'lmaydi. O'zingizning bolalar bilan munosabatingiz haqida doimo o'ylang, bu munosabatlarni maqsadga yo'naltirilgan holda tuzishga harakat qiling. Ular pedagogik jarayonga, qolaversa har bir bola shaxsiga sezilarli darajada muntazam ta'sir etib qoladi. Esda tuting, yozgan har bir konspekt, matn ortida tarbiyaviy ish rejasi zamirida sizning o'quvchilar bilan o'zaro munosabatingiz masalasi yashirinib yotadi.

2. Pedagogik muloqotni tashkil etishda faqat pedagogik maqsad va vazifalar bilan o'ralashib qolmaslik zarur. Bunday cheklanish o'qituvchining «o'z tashabbusi» bilan muloqot qilishiga olib keladi. Uning so'zlarida hukmronlik ma'nosini anglash qiyin emas. Mashxur pedagoglarimizdan ko'pchiligi shunday deydilar: «Biz kattalar, o'qituvchilar bolalarga, asosan

bizga xush keladigan narsalarni qilishga majbur qilamiz, ularning ko'ngillariga qarab ish tutish esa ko'p hollarda pedagogik faoliyatimiz doirasidan tashqarida qolib ketadi». Shuning uchun bolalar bilan muloqotni yo'lga qo'yishda o'qituvchi tashabbusidan ko'ra «bola tashabbusi» asosida ish tutgan ma'qul. Shunda bola doimo bizning pedagogik faoliyatimiz doirasida bo'ladi.

Shubxa yo'qki, muloqotni o'qituvchi tashabbusi bilan tashkil qilish oson. Ammo pedagogik muloqot – bu murakkab inshoot, demak uni muayyan qonun - asosida qurmok kerak. Bu o'rinda o'quvchi tashabbusi bilan boshlangan muloqot yaxshi natija beradi, u o'quvchi shaxsini to'laroq aks ettiradi, pedagogik vazifalarni amalga oshirishda samaradorlikni ta'minlaydi.

3. Pedagogik muloqotni tashkil qilar ekanmiz, o'z nutqimizni bir bola yoki o'quvchilar guruhiga yo'naltirishga harakat qilishimiz kerak. Bunday yo'l tutish ta'lim va tarbiyaning to'g'ri usullarini tanlash kabi muximdir.

4. Shuni ham ta'kidlash zarurki, pedagogik jarayondagi muloqotni faqat bir vazifa bilan, ya'ni axborot bilan cheklash mumkin emas. Bu yo'lda muloqotning bir turidan – axborot ayirboshlash o'zaro munosabatlarni tashkil qilib, bola shaxsini o'rganish, kattalar va bolalarning bir – biriga ta'sirini hisobga olish va boshqa vositalardan foydalanish lozim. Biz pedagogik muloqotdagi mavjud yo'nalishlardan biriga bilib – bilmay amal qilmasligimiz mumkin. Biroq buning oqibati ertagayok ko'zga tashlanadi, tarbiya natijalarida uzilish yuz beradi. Shunday holning yuz bermasligi uchun o'qituvchi bola shaxsini o'rganib borishi zarur.

5. Bolalar bilan munosabatga kirishar ekanmiz, muloqotni, ya'ni yuqoridan pastga qarab tashkil qilishdan saqlanishimiz kerak. Xatto juda kichik yoshdagi bolalar ham mustaqil ekanliklarini isbotlashga harakat qilishadi. O'qituvchilik diplomi bolalar bilan munosabatda yetakchi bo'lish huquqini bermaydi. Bunday buyuk pedagog huquqini qo'lga kiritish uchun o'quvchilar jamoasida tutadigan o'rni, bu o'qituvchining rasmiy obro'yi emas, balki uning insoniyligi bilan belgilanadi. Bolalar bilan o'zaro munosabatni shunday yo'lga qo'yish kerakki, yetakchilik mavqei tabiiy ravishda pedagogik jarayon mantiqidan kelib chiksin.

6. Sinfidagi ruhiy muhitni sezishga harakat qilishni o'rganish lozim. Chunki o'qituvchi sinfdagi ruhiy holatni bilmas ekan, o'quv – tarbiya jarayoni maxsuldor bo'lmaydi. O'qituvchi har bir shaxs ko'nglidagi sirlarni topishga yordam berishga harakat qilishi va bunday malaka va ko'nikmalarni o'zida shakllantirish lozim. Masalan: sinfda matematika darsi bo'lmoqda. O'qituvchi o'quvchilarni yangi material bilan tanishtirmoqda. Matematikaga qiziqadigan bir o'quvchi, matematikani yaxshi ko'rgani uchun ham, bu darsga quloq solib tinglab turibdi. Ikkinchi o'quvchi esa, quloq solish bilan kifoyalani, ikki ko'zini o'sha javob beradigan o'quvchiga tikkanicha o'tiribdi. U chiroyli yoki yo'kligi haqida o'ylayapti. Xuddi shu dam matematikani uncha xushlamaydigan, ammo sportni jon – dilidan sevadigan uchinchi o'quvchi

yonidagi o'quvchiga kechagi sport o'yini haqida gapirib bermoqda. Matematikaning «M» harfini ham tushunmaydigan boshqa o'quvchining ko'zi tashqaridagi qorga tushdi. Agarda o'quvchilarning shu xususiyatlarini birma – bir analiz qilsak – bir so'z bilan aytganda, darsning ruhiy vaziyatlari son – sanoqsiz. Aytaylik, bolalar bilan suxbatda kechagi kun mavzusi takrorlanishi mumkin, bunda mavzudagi arziyas bo'lib tuyulgan o'zgarish suxbatni butunlay boshqa ma'lumotlar bilan boyitib yuboradi. Shuning uchun sinfdagi ruhiy vaziyatni nazorat qila bilish zarur:

Buning uchun:

- bolalarni kuzata bilish;
- bolalar ko'zidagi ifodani, ularning mimikasi va ko'rinishidagi o'zgarishlarni tushuna bilish zarur;
- bolalar xulqidagi o'zgarishning, kayfiyatidagi barcha o'zgarishlarga e'tibor berish;
- sinfnig o'zini tutishiga nisbatan munosabatni bildirishga yumshoklik va xozirjavoblik ko'rsatish;
- sinfdagi bugungi ruhiy muxitni kechagisi bilan qiyoslab, garchi doimo o'zgarib to'rgan bo'lsada, sinflarning umumiy ruhiy holatini topish zarur.

7. Har bir o'qituvchi o'ziga bolalar ko'zi bilan qarashni o'rganishi zarur. Buning uchun:

- har bir kishi o'z faoliyatini tez – tez taxlil qilish;
- har bir o'qituvchi bevosita ish olib borayotgan o'quvchilar o'rniga qo'yishga harakat qilish;
- har bir o'qituvchi hamkasblarining darslarini ko'zatishi va o'zini ularga qiyoslashi kerak.

Xulosa qilib aytilganda, Pedagogik muloqot-O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatiga aytiladi. Pedagoglik jarayondagi aloqalar tizimida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomola -munosabatlar katta o'rin egallaydi.

Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishga bog'liq ekan noto'g'ri tasavvurlardan bir shuki, odamni muomola yoki muloqatga o'rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib ta'sirchan gapirishcha o'rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni-tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnechi "yaxshi suhbatdan - yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi gapirishni biladigan esas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir" deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi. Pedagogik muloqot-O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatiga

aytiladi. Pedagoglik jarayondagi aloqalar tizimida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomola -munosabatlar katta o'rin egallaydi.

O'qituvchi hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar-yosh bolalar bilan muloqotda bo'ladi. O'qituvchining biror tasodifiy xatti-harakati natijasida o'quvchilarda u haqda sodir bo'lgan fikr ham ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir etishi, o'qituvchining ishini murakkablashtirishi mumkin. Odatda, bunday ziddiyatlar uzoq davom etadi va o'qituvchi foydasiga hal etiladi. O'qituvchi obro'sini saqlayman deb, kattalar ba'zan o'quvchining qadr-qimmatini erga uradilar, o'quvchidan kechirim surashni talab etadilar, vaholanki bu nizoga o'qituvchining noto'g'ri hatti-harakati sabab bo'lgan. O'qituvchining ishi axloqiy tarbiya talablariga to'g'ri kelmaydi. Bolalar bilan muomola va munosabatlarda ularning har biriga alohida yondashish lozim. Agar o'qituvchi va o'quvchi bir-birini tinglasa, o'z-o'zini ham tarbiyalaydi. Demak, tinglash jarayoni ko'pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas. Tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar g'oyalarning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ma'ruzachi professorning har bir chiqishi va ma'ruzasi agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglasa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

ADABIYOTLAR:

1. *Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Toshkent, 1997 yil.*
2. *Milliy istiklol goyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent, 2000 yil.*
3. *Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, «O'qituvchi», 1967 yil.*
4. *Alisher Navoiy. «Maxbub – ul – kulub», Toshkent, 1997 yil.*
5. *Azizxujaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, 2003 yil.*

Muloqot pedagogik nizolarning echish va boshqarish usullari. Muloqotdagi ziddiyat shakllari turlichadir. Masalan yuzma-yuz yoki texnik vositalar (telefon telegraf va shunga o'xshash vositalar) bilan amalga oshiriladi. Oilada nizo muloqot ayrim a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin.

O'zaro munosabatlarga kirishilganda nizoni yuzaga kelmasligini asosiy sabablari, o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo'lsa, o'zaro til topishishi bir-birini tushuna olish lozim.

Har qanday faoliyatdan zerikish, garchan mumkin, faqat odam muloqotdan ayniqsa, uning norasmiy, samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar. Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy,

qiyofasi, fazilatleri, hattoki nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Har qanday muloqotlarning elemantar funksiyasi suhbatdoshilarning o‘zaro bir-birini tushunishlarini ta’minlashdir. Pedagogik nizolarni oldini olishda gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tenglaydi, eshitadi.

Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o‘zaro mosligi, bir-birini to‘ldirishga bog‘liq ekan noto‘g‘ri tasavvurlardan bir shuki, odamni muomola yoki muloqotga o‘rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so‘zlardan foydalanib ta’sirchan gapirishcha o‘rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni-tinglash qobiliyatiga deyarli e’tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnechi “yaxshi suhbatdan - yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi gapirishni biladigan esas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir” deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo‘lishini nazarda tutgan edi.

Pedagogik nizolarda adolatsizliklarga, ijtimoiy munosabatlardagi yakkahokimlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

**HOZIRGI KUNDA O'QITUVCHI NUTQ TEXNIKASI VA NOTIQLIK
MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI****Dexqanova Mamura Ulmasovna****Egamqulova Dilsevar****Usmonova Shaxnoza**

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'qituvchining nutq madaniyati va unga qo'yiladigan asosiy talablar, nutqiy faoliyatni oqilona tashkil etish yo'llari haqida so'z boradi. Maqola davomida nutqiy faoliyat ko'nikma va malakalari: tovush, diapazon, tembr, diksiya, ritmika haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchining nutq madaniyati, nutq texnikasi, nutqiy faoliyat ko'nikma va malakalari, tovush, diapazon, tembr, diksiya.

**CURRENTLY, THE PROBLEMS OF IMPROVING THE TEACHER'S SPEECH
TECHNIQUE AND SPEAKING CULTURE**

Abstract. This article talks about the speech culture of the teacher and the main requirements for him, ways of rational organization of speech activity. During the article, information about the skills and competences of speech activity: sound, range, timbre, diction, rhythmicity is also mentioned.

Key words: teacher's speech culture, speech technique, speech activity skills and competencies, sound, range, timbre, diction.

**В НАСТОЯЩЕЕ ВРЕМЯ АКТУАЛЬНЫ ПРОБЛЕМЫ
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТЕХНИКИ РЕЧИ И КУЛЬТУРЫ РЕЧИ УЧИТЕЛЯ**

Аннотация. В данной статье говорится о речевой культуре учителя и основных требованиях к нему, способах рациональной организации речевой деятельности. В ходе статьи также затрагиваются сведения о навыках и компетенциях речевой деятельности: звучании, диапазоне, тембре, дикции, ритмичности.

Ключевые слова: культура речи учителя, техника речи, навыки и компетенции речевой деятельности, звук, диапазон, тембр, дикция.

O'qituvchining notiqlik texnikasi so'zlami aniq, to'g'ri, tiniq eshitarli va tushunarli bayon qilishida namoyon bo'ladi. To'g'ri va mukammal ovoz diksiyasiga ega bo'lgan o'qituvchi so'zlami ifodali bayon qiladi. Ifodali gapirishda til, lab, kichik tilcha, pastki jag' ishtirok etadi.

O'qituvchi ifodali gapirishi, so'zlarni talaffuz qilishi uchun yuqoridagi organlarga doimo mashq qildirishi lozim. Shunday qilib, pedagogik texnikada nutq malakalari muhim ahamiyat kashf etar ekan, o'qituvchi doimo gapirish tempi, ritmi, diksiyasi, ovoz kuchi, diapazoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi zarur.

Har bir o'qituvchi o'z tafakkuriga, fikrlash qobiliyatiga, o'zining kasbiy yo'nalishi, kasbiy laboratoriyasiga ega bo'lishi kerak. Bu yo'nalish va laboratoriyani o'qituvchilarning o'zlari mustaqil filr yuritishlari, mustaqil bilim olishlari, pedagogik mahoratini oshirib borishlari orqali qo'lga kiritadilar va mohir o'qituvchiga xos fazilatlarni tarbiyalaydilar hamda kasbiy ideal sari harakat qiladilar. Pedagogik texnika sirlarini mukammal bilish o'qituvchining tashkiliy-metodik malakalarni egallashiga ham bog'liq. Bu malakalar zarur bilimlar bo'yicha ma'ruzalarni tinglash,

maxsus adabiyotlarni o'qish orqali qo'lga kiritiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalarni o'zining individual kasbiy tajribasida sinab, ko'nikma hosil qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Nutqning asosiy xususiyatlari:

1. Nutqning to'g'riligi va ravonligi.
2. Nutqning aniqligi va ta'sirchanligi.
3. Nutqning mantiqiyliigi.
4. Nutqning tozaligi va ifodaliligi.

Nutqning to'g'riligi va ravonligi uning adabiy til normalariga to'g'ri kelishidir. Bunda ikkitajihatga e'tibor beriladi: urg'u va grammatik normalarga amal qilinishi. **Urg'u - so'zlarning to'g'ri talaffuz tilishini ta'minlaydi.**

Grammatik norma-nutqning mazmundorligini, ma'noli ekanligini bildirib, nutq oqimidagi so'zlarning o'zgarishi mazmunan bir-biriga birikishini ifodalovchi xilma-xil qoidalar yig'indisidir.

Nutqning aniqligi va ta'sirchanligi - mazmundor nutqning tinglovchiga ta'sir yetish omilidir. O'qituvchi so'z va tilning ravonligi, notiqlik qobiliyati bilan aniq faktlar asosida o'quvchilarga bilim beradi, ularning ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi. O'qituvchi nutqining aniq bo'lishi, o'z mas'uliyatini chuqur his etish shartidir. Aniq, o'rganilayotgan mavzuning o'qituvchi tomonidan ifodalanayotgan voqelikka, faktlarga muvofiq kelishidir. Aniqlikning chegarasini belgilashda o'qituvchi so'zlarni to'g'ri qo'llay olishi, o'zbek tili grammatikasi mukammal bilishi, to'g'ri talaffuz etish talab qilinadi.

Nutqning mantiqiyliigi nutqning mantiqiy bo'lishi eng avvalo o'qituvchining so'z boyligi, tafakkur yuritish qobiliyati, idrok etish mahoratiga bog'liq. O'qituvchi tilni juda yaxshi bilishi, so'z boyligi keng bo'lishi mumkin. Ammo o'zi filer yuritayotgan mavzuga nisbatan chuqur bilimga ega bo'lmasa, bilimlarini o'z tafakkuri doirasida tahlil qila olmasa notiqlik san'ati natija bermaydi. So'zlarning o'qituvchi ifodalayotgan mavzuga mos ravishda to'g'ri ifodalanishi, so'z birikmalarining, gaplarning, matnlarning bir-biriga to'g'ri kelishi, fikmi izchil bayon etish uchun bo'yso'ndirilishi nutqning mantiqiy boy ekanligidan dalolat beradi.

O'quvchilarga aytilayotgan fikr mantiqan bir-biriga bog'langan bo'lishi kerak. Gaplar o'rtasida fikriy bog'lanish, izchillik yo'q olishi bilan o'qituvchi nutqining mantiqiyliigiga putur etadi.

O'rganilayotgan mavzu matnlari o'rtasida mantiqiy bog'lanish bo'lish uchun, matnlar boshlanma bilan ajratiladi (masalan, xulosa qilib aytganda; shu bilan birga; ta'kidlash lozimki va hokazo). Demak, o'qituvchi nutqining mantiqiyliigi deyilganda, yaxlit bir tizim asosida tuzilgan, fikr va mulohazalar rivoji izchil bo'lgan, har bir so'z, ibora aniq maqsadga muvofiq ishlatiladigan nutq tushiniladi.

Nutqning tozaligi va ifodaliligi - o'qituvchi nutqining tozaligi, avvalo uning adabiy til isoniy normalarga muvofiq ifodalanishi bilan belgilanadi. O'qituvchilarning chiroyli va mazmunan boy nutqi hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan bo'lishi, g'ayri adabiy til unsurlaridan holi bo'lishiga qarab baholanadi. Nutq uning toza bo'lishiga halaqit beruvchi unsurlar: dialektizm va varvarizmdir. Zero, ushbu unsurlar badiiy adabiyotda ma'lum bir badiiy-estetik vazifani bajarsada, o'qituvchining dars jarayonidagi va tarbiyaviy faoliyatidagi nutqida ishlatilmasligi kerak. O'qituvchi doimiy ravishda idoraviy atamaları, rasmiy so'z va iboralarni noo'rin ishlatishi o'z nutqining notabiyligiga, ishonchsiz chiqishiga

sabab bo'ladi. Natijada o'quvchilar ta'lim-tarbiyasida o'qituvchi tomonida nishontirish metodi orqali qo'llaniladigan fikrlar mukammal bayon etilmaydi.

Nutqning tozaligi, uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilibidir. Til vositalari vaziyatga qarab ishlatilgan, siyqa so'z va iboralarsiz hosil bo'lgan o'qituvchi nutqi tabiiy va samimiy bo'ladi, tinglovchi va o'quvchilarning qalbiga te zborib yetadi. Til va nutq, nutq madaniyati, tilnormalarini egallamoq, talaffuz, urg'u, so'zlashish, gap tuzish qonuniyatlarini chuqur bilmoqdir. Shuningdek, tilning tasviriy vositalari bir xil sharoitlarga mos maqsadga muvofiq bo'lishi kerak. Nutqda til - fikr almashish quroli, o'qituvchi qalbining oyinasi, o'qituvchining dars berish uslubini, pedagogik mahoratini to'liq namoyon qiluvchi vosita. Nutqda-tildagi rang-barang vositalar o'z ifodasini topsa, bunday nutq-boy nutqdir.

Til va nutq azaldan bir-biri bilan chambarchas bog'langan vositalardir. Nutq qaysi tilda aytilmasin, o'sha millat tilining qonun-qoidalari asosida ro'yobga chiqadi. Biroq ular bir-biridan farqlanadi.

Til nutq uchun moddiy material. Shu material asosida nutq tashkil topadi.

Nutq-tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda reallikka aylangan fikr bo'lib ikki xilda namoyon bo'ladi:

- ichki nutq;
- tashqi nutq.

O'qituvchi ongida hosil bo'ladigan, hali amalga oshmagan til elementlaridan tashkil topgan, kishining og'iz ochmasdan fikrlasbi, mulohaza yuritishi, o'ylashi ichki nutqdir.

O'qituvchi mulohazasi va fikrining til vositasida nutq organlariga ta'siri va harakati bilan real tovushlar sifatida yuzaga keladigan nutq-tashqi nutq bo'lib, u ijtimoiy hodisadir.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi.: Nasaf, 2000.
2. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. - T.: 2005.
3. Avliyakov N. X., Musayeva N. N. Pedagogik texnologiya. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.
4. Azizxodjayeva N.N. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo. -Tashkent: Moliya, 2002.
5. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - T.: Fan, 2006.
6. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. — T.: O'qituvchi, 2004.

**O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHGA
QO'YILADIGAN TALABLAR****G'aybullayeva Zebo Baxtiyor qizi
Tohirova Zarina**

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishga qo'yiladigan talablar va ularning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari haqida so'z boradi. Shuningdek, maqola davomida asosli fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil faoliyat, axloqiy me'yorlar, ijodkor, tashabbuskor, kommunikativ qobiliyat.

**REQUIREMENTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE TEACHER'S
COMMUNICATIVE ABILITY**

Abstract. This article talks about the requirements for the development of the teacher's communicative ability and their specific features and functions. Also, valid opinions and comments are mentioned in the article.

Key words: independent activity, ethical standards, creativity, initiative, communicative ability.

**ТРЕБОВАНИЯ К РАЗВИТИЮ КОММУНИКАТИВНЫХ
СПОСОБНОСТЕЙ УЧИТЕЛЯ**

Аннотация. В данной статье говорится о требованиях к развитию коммуникативных способностей учителя, их специфических особенностях и функциях. Также в статье упоминаются обоснованные мнения и комментарии.

Ключевые слова: самостоятельная деятельность, этические нормы, креативность, инициатива, коммуникативность.

Bugungi kunda mustaqil respublikamiz dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinayotgan ekan, uning kelgusidagi rivoji, gullab-yashnashi bugungi kun yoshlariga bog'liqdir. Demak, bugungi yoshlar har tomonlama rivojlangan, o'ziga, boshqa insonga, jamiyatga, tabiatga va mehnatga o'z to'g'ri munosabatini bildira oladigan, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, ijodkor, tashabbuskor va tadbirkor bo'lmog'i lozim. O'quvchida ana shu xususiyatlarning rivojlanishi so'zsiz o'qituvchiga, uning o'quv-tarbiya jarayonini to'g'ri boshqara olishiga va o'quvchilar bilan o'rnata oladigan muomala va munosabatlariga bog'liq.

Kommunikativ qobiliyat – bu pedagogik o'zaro harakat sohasida maxsus ko'rinishga ega bo'lgan muloqotga qobiliyatlilikdir.

Psixologik adabiyotlarda kommunikativ qobiliyatlarning bir qancha turlari ajratib ko'rsatiladi: 1) insonning insonni tushuna olishi (insonni shaxs sifatida, uning alohida jihalarini, motiv va ehtiyojlarini baholash, tashqi xulq-atvorini ichki olami bilan bog'liqlikda ko'rib chiqish, yuz, qo'l, gavda harakatlarini "o'qish" ko'nikmasi) 2) insonni o'z-o'zini anglay olishi (o'z bilimi, qobiliyati, o'z xarakteri va boshqa qirralarini baholash, inson boshqalar tomonidan qay tarzda qabul qilinishi va atrofdagilar ko'zi bilan baholash); 3) muloqot vaziyatini to'g'ri baholay olish ko'nikmasi (mavjud holatni kuzatish, uning namoyon bo'lish belgilari

haqida ko'proq axborotlarni ajarata olish, ularga e'tiborni qaratish, yuzaga kelayotgan vaziyatning ijtimoiy va psixologik mohiyatini to'g'ri idrok etish va baholash).

Tahlil etish gnoseologiya, psixologiyada bilish va amaliy faoliyatga doir barcha harakatlarni o'z ichiga oladi, pedagogikada esa, tadqiq qilinayotgan narsa-hodisalarning alohida tarkibiy qismlarga ajratish qonuniyat va usullarini o'zida aks ettiruvchi bilish jarayoni sifatida ifoda etiladi. O.O.Kashenkoning fikricha, o'z-o'zini tahlil etish falsafa va psixologiyada o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini baholashning tarkibiy qismi sifatida aks ettirilsa ham mustaqil kategoriya sifatida ishlatilmaydi. Biroq o'z-o'zini anglashning shakllanishi va rivojlanishi o'z-o'zini tahlil etish asosida amalga oshirishini esda tutish zarur.

Chunki aynan pedagogik voqelikda o'z-o'zini tahlil etish ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati ularning o'zi haqidagi tasavvurlari, qiziqishlari, motiv, ehtiyojlari tizimi sifatida tushuniladigan "Men-kontseptsiyasi"ning rivojlanishiga undovchi ichki omillarning eng asosiylaridan biridir.

O'z-o'zini tahlil etish usullari quyidagilarga e'tibor qaratishni talab etadi:

1) ijtimoiylikka yo'naltirilgan o'zaroharakat vaziyatlaridan shaxsiy xulq-atvor, tarbiyalanuvchi shaxsi, uning o'ziga xosliklari, qadriyatlarini tizimi kabilarni ob'ekt sifatida ko'rib chiqish;

2) o'z xulq-atvori, shaxsiy fazilatlarini tahlil etish mezonlari tizimini aniqlash;

3) noma'lumdan ma'lumni ajratib olish;

4) qarama-qarshiliklarni aniqlash.

O'z-o'zini tahlil etish o'z-o'zini anglashdan avval kelib, aynan uning asosida shaxsning o'zi haqidagi tasavvurlari umumlashgan ko'rinishga o'tadi. O'z-o'zini anglash natijasida shaxsda o'zining kimligini anglash, o'zining jamiyatdagi o'rnini tushunib etish, boshqalarning ko'z o'ngida kim sifatida gavdalanishini his etish kabilar shakllanadi. O'z-o'zini anglash o'z-o'ziga munosabat sifatida shakllanuvchi hissiy va mantiqiy jihatlarni o'zida aks ettiradi.

Ma'lumki, o'z-o'zini anglash usullari ham mantiqiy, ham emotsional darajada o'z-o'zini tahlil etish natijasida olingan axborotlarni aniqlashtirish va umumlashtirishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, o'z-o'zini tahlil etish va o'z-o'zini anglash pedagogda o'zi va boshqalarning u haqidagi tasavvuri sifatidagi kasbiy "Men qiyofasi"ning shakllanishiga olib keladi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy metodlariga quyidagilar kiradi: talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri.

Talab – ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchining tarbiyalanuvchiga nisbatan shaxsiy munosabatlarida namoyon bo'ladi. O'quvchining u yoki bu xatti-harakati o'qituvchi nazoratida bo'lib, ijobiy jihatlari rag'batlantirib boriladi yoki aksincha nojo'ya xatti-harakati to'xtatib qo'yiladi.

Istiqbol – ta'sirchan pedagogik usul bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, ma'lum bir maqsadga, orzuga erkin intilish hissini takomillashtiradi. Bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlarida, qiziqish va muddaolarida namoyon bo'ladi. Ushbu usul maktab o'quvchilarini shaxs sifatida eng muhim insoniy fazilatlaridan biri bo'lgan maqsadga intiluvchanlikni rivojlantiradi.

Rag'batlantirish va jazolash – tarbiyaviy ta'sirning eng an'anaviy usuli bo'lib, o'quvchilar xulq-atvoriga ijobiy ta'sir etishdan iborat. Yaxshi xulq, foydali mehnat va xatti-harakat, axloqiy hislat, topshiriqlarning so'zsiz bajarilishi uchun o'quvchi rag'batlantiriladi. Nomaqbul xatti-harakat, tartibbuzarlik, o'z burchini bajarmaslik jazolash orqali bartaraf etiladi. Ushbu usul axloqiy ta'sir ko'rsatishni ta'minlaydi, uni qo'llash jarayonida o'qituvchidan nihoyatda ehtiyotkorlik, sezgirlik va hushyorlik talab etiladi.

Jamoatchilik fikri – tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning eng muhim usuli bo'lib, o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini bajarilish natijalariga qarab muntazam rag'batlantirib borishda namoyon bo'ladi. Jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ma'lum bir yo'nalishda amalga oshirilishini ta'minlaydi, o'quvchilarning bir-birlariga do'stona munosabatini shakllantiradi.

Muloqotning ijtimoiy-psixologik nazariyasi va pedagogik tajribalarini o'rganish pedagogik ta'sir etishda ikki metod: ishonirish va uqtirishdan keng foydalanish lozimligini ko'rsatadi.

Ishontirish - o'quvchilarga xatti-harakatlarning to'g'riligi va zarurligini, shuningdek, ayrim xulq-atvorlarning noto'g'riligini tushuntirish va isbotlashdir. Ishontirish jarayonida o'quvchilarda yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda axloqiy sifatlar shakllantiriladi. Bular esa o'quvchilar va ularning atrofidaqilar uchun me'yor (mezon) bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchining har qanday tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi, oqibat natijada o'quvchi ruhiyatiga har tomonlama ta'sir ko'rsatishga, ya'ni o'quvchilarda ijobiy hissiyotlarni: xulq-atvor, munosabatlar, xatti-harakatlarni shakllantirish va mustahkamlashga yo'nalgan bo'ladi. Lekin ishonirish va uqtirishning texnologik mexanizmlari turlichadir.

O'sib borayotgan yoshlar ijtimoiy muhit va tabiat bilan ham o'zaro ta'sirlanadilar. Bu o'zaro ta'sir natijasida ularda ishonch, yangi bilimlar va munosabatlar, axloqiy me'yorlar majmui vujudga keladi.

Ishontirish haqiqiy va soxta bo'lishi mumkin. Haqiqiy ishonch real voqelikka mos keladi va shaxsning jamiyat oldidagi qadr-qimmatini oshiradi. O'zining haqiqiy ishonchiga sodiq bo'lishi uchun kishi hatto o'limiga ham rozi bo'ladi. Masalan, Vatanga sodiqlik ruhida tarbiyalangan askarlarimizning jang maydonida ko'rsatgan matonatlari.

Soxta ishonch esa, avvalo sinf jamoasi, qolaversa, jamiyat uchun zararli bo'lgan odatlarning shakllanishiga olib keladi. Soxta ishonch o'quvchilarning o'zi va atrofidaqilar ta'sirining umumlashuvi natijasida vujudga keladi.

Ayrim o'quvchilarda soxta ishonch hosil bo'lishining sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. faqat a'lo bahoga o'qish - bu bilim olishda ko'r-ko'ronalik, quruq yodlashga olib boradi;
2. o'zini o'ta itoatkorona tutish - bu o'quvchi faoliyatini nihoyatda past bo'lishiga olib keladi. Me'yordagi o'quvchi o'qituvchidan ba'zan tanbeh olib turishi kerak;
3. o'qituvchini aldash-bu o'quvchini o'ta aqlli va topqirligidan dalolat beradi;
4. maktab ichki tartib-qoidasini buzish faqat kuchli xarakterga ega bo'lgan o'quvchigagina xos bo'lib, u o'qituvchi tomonidan tanqid qilib turiladi;
5. haddan tashqari ko'p mehnat qilish - bu kerak bo'lmagan tirishqoqlikdir.

Yuqorida keltirilgan ishonchning bunday turi o'quvchida shakllanib, asta-sekin boqimandalik, o'qish va mehnat faoliyatida sustkashlik kayfiyatini sodir qiladi.

Soxta ishonchni bartaraf qilish uchun o'qituvchi quyidagi uch yo'nalishda ish olib borishi kerak:

1. Sinf jamoasida sog'lom ijtimoiy fikrni shakllantirish.
2. Muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy hayotiy tajriba yaratish.
3. Soxta ishonchni asosiy tarzda inkor qilish.

Soxta ishonchni o'zgartirishning quyidagi usullari mavjud:

1. o'quvchini o'zini boshqalar bilan taqqoslashga undash. Uning fikriga qarama-qarshi fikrda bo'lgan kishi bilan yaqindan tanishish (masalan, bola o'qishni xohlamaydi, lekin uning tanish o'rtog'i ko'p o'qiydi va biladi, ammo o'zining "quruq yodlovchi" yoki "o'ta bilimdon" qilib ko'rsatmaydi);

2. noto'g'ri qarashlar va ishonch oqibatda nimalarga olib kelishini ko'rsatish (masalan, ana shunday xislatlarga ega bo'lib, o'z hayotini barbod qilgan, o'z erki, g'ururi va vijdonini yo'qotgan kishilar haqida so'zlab berish. Buning uchun hayotiy misollar, badiiy asarlar, kinofilmlar va boshqalardan foydalanish mumkin);

3. soxta ishonchni yoqlab, himoya qiluvchi o'quvchi fikrini mantiqiy rivojlantirib, uni hayratga soluvchi holatga yetkazish. Masalan, barcha o'quvchilar o'qituvchilarni aldash, ichki tartib-qoidalarga rioya qilmaslik nimalarga olib borishi mumkin).

Ishontirishning biron tashkil etuvchisiga amal qilmaslik ham tarbiyaviy ish samaradorligini pasaytirib yuboradi. Bunday holatda o'quvchida faqat bilish shakllangan xolos. Inson o'zini qanday tutishi lozimligini bilishi, aynan shunday tutishi lozimligini tushunishi, lekin o'zini bunga majbur qilolmasligi mumkin.

Demak, bu uning irodaviy sifatleri rivojlanmaganligini, xulq-atvor qoidalariga amal qilish malakasi tarkib topmaganligini anglatadi.

Ishontirish bilimlar, qarashlar va xulq-atvor me'yorlari tizimi bo'lib qolmay, balki ularni shakllantirish usullari hamdir. Ishontirish yordamida yangi qarashlar, munosabatlar shakllanadi yoki noto'g'ri fikrlar o'zgaradi.

Ishontirish jarayonini tashkil etishda o'quvchi ruhiy qiyofasining o'ziga xosligini e'tiborga olish lozim. Buning uchun pedagog o'quvchi oliy asab tizimining tipini, uning ta'lim-tarbiya va kamolotining rivojlanish doirasini bilishi zarur. Masalan: bola kuchli muvozanatlashgan (sangvinik) asab tizimi tipiga ega bo'lsin. Unda tormozlanish jarayoniga nisbatan qo'zg'alish jarayoni kuchliroq bo'ladi. Bu holda o'qituvchi ishontirish jarayonini o'quvchi asab tizimini ortiqcha qo'zg'alishiga yo'l qo'ymaydigan, qo'shimcha hissiyot sodir qilmaydigan tarzda olib borishi kerak.

Fikr, sezgi va irodaviy xislatlar bir butun yaxlitlikni tashkil etgandagina, ishontirish metodi haqiqiy harakatlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin. Bu metodni qo'llashda ishontirish tarkibi bilish, sezgi, hissiyot, xulq-atvorga amal qilish maqsadga muvofiq.

Ishontirish natijasi o'qituvchining so'z mulkiga ham bog'liqdir. Pedagogning so'zi va ishi ham bir bo'lishi kerak. So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish o'qituvchining madaniy saviyasida va o'quvchi muloqotida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki insonning "aql-zakovati, fikr-tuyg'ulari, bilimi va madaniyat saviyasi, tafakkuri ma'lum darajada so'zda ifoda etiladi. Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi" (Aziz Yunusov). So'z bilan

og'zaki ta'sir o'tkazishni amalda o'z pedagogik faoliyatida qo'llovchi o'qituvchi o'z hissiyotlarini, ijodiy ta'sirlanishini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi va o'z his-tuyg'ularini faqat ta'lim-tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish uchun ifodalashi hamda o'quvchi qalbini noo'rin so'zlar bilan jarohatlab qo'ymasligi, so'zlarni aniq ifodalashda pedagogik takt normalaridan chiqib ketmasligi lozim. So'z qudrati haqida R.Dekartning quyidagi fikrlari o'qituvchilarga ham bevosita taalluqlidir: "So'zlarning ma'nolarini, qudratini odamlarga aniq ifodalab tushuntirib bering, shunda siz insoniyat olamini barcha anglashilmovchiliklarning yarmidan xalos qilgan bo'lasiz".

O'qituvchining imo-ishoralari va yuz harakatlari so'z bilan og'zaki ta'sir qilishni kuchaytiradi. Yuz harakatlari va imo-ishoralar nutqda ovozning baland-pastligi bilan mos kelishi kerak. Ogohlantiruvchi so'zlar, notiqlik san'ati asosida ta'sir etish, vazifani ijro etishga undovchi buyruqlar, ta'qiqlangan iboralarni ishlatmaslik, hazil orqali fikrini anglatish, o'quvchining erkin mulohazalarini ma'qullash yoki nojo'ya harakatlari uchun ayblash so'zning og'zaki ta'sir etuvchi komponentlaridir. So'z bilan imo-ishoraning va yuz harakatlarining birligi ma'lum qilinayotgan axborot hajmdorligi va ta'sirchanligini kuchaytirishi lozim. Har qanday sharoitda o'qituvchi o'quvchilar bilan sinfda uchrashishga maxsus hozirlik ko'rishi lozim.

Ishontirish metodini qayta tarbiyalash, ya'ni qarash va munosabatlarni shakllantirishda qo'llash, u yoki bu xislatlarni namoyish qilish zarur bo'lgan maxsus vaziyatlar yaratish orqali amalga oshirilishi ham mumkin. Tasodifiy vaziyatlar quyidagi yo'llar bilan yaratiladi: darsda o'quvchiga kutilmagan savol berish, darsdan tashqaridagi noto'g'ri xatti-harakatiga iqror bo'lishiga majbur qilish, o'yinda esa harakat qilishga undash. Maktab hayotida tasdiqlanganidek, ba'zan o'quvchi o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga sharoit bo'lmagani uchun ham tarbiyasi og'irlar qatoriga qo'shib qolar ekan. Undan darsda onda-sonda so'rashadi: o'qituvchi uning bilimiga ishonmaydi, dars paytida unga e'tibor berishga vaqtdan qizg'anadi. Agar o'quvchiga tez-tez murojaat qilinsa, unga o'z fikrini bayon qilish taklif etilsa, uning xulqida shakllanib qolgan stereotiplar asta-sekin o'zgara boshlaydi.

Uqtirish – kishilarning muloqot faoliyati jarayonida o'zaro ta'sir etishlari vositalaridan biridir. Uqtirishning o'ziga xosligi, inson ruhiyatiga uning o'ziga sezdirmasdan ta'sir etishi, shaxs psixikasi, tarkibiy tuzilishiga beixtiyor kirib borish va kundalik hayotdagi qiliqlar, intilishlar, motivlar va yo'l- yo'riqlarda aks etishidir.

Har qanday pedagogik ta'sir etishda uqtirish elementi mavjud bo'ladi. To'g'ri tashkil etilgan uqtirish o'quvchilarning ongli ravishdagi faolligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

So'z yordamida o'quvchida tetiklik yoki qo'rquv, xursandlik yoki xafalik, o'ziga ishonch va ishonmaslik, qiziquvchanlik yoki zerikish, boshqalarga ishonish yoki ulardan hadiksirash kabi sezgilarni vujudga keltirish mumkin. O'qituvchining yomon kayfiyati to'lqin kabi bir zumda o'quvchilarni qamrab olishini ham faqat uqtirish bilangina tushunish mumkin. Yoki asabiylashgan xarakterga ega bo'lgan guruh rahbari tez orada asabiy holat guruhda muloqot me'yoriga aylanib qolganligidan taajjublanadi.

O'qituvchi tarbiyachi sifatida tarbiyalanuvchi o'quvchilarni o'zi uchun hamisha tarbiya obyekti deb hisoblashi kerak. Biroq tarbiyalanuvchi o'qituvchi-tarbiyachi bilan erkin va ongli munosabatda bo'lishga erishsagina, tarbiyaviy munosabatlar samarali xarakter kasb etadi. Tarbiyaviy faoliyatning kommunikativ munosabatlar jarayonida o'ziga xos qator **qoidalari** ham mavjud bo'lib, o'qituvchi o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishda ushbu qoidalarni mukammal bilishi lozim.

O'qituvchi tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'sirga ega ekanliklarini, ularning o'zaro kommunikativ munosabatlari hamda faoliyatlari o'rtasidagi bog'lanishning mavjudligi, uning samaradorligini belgilashini unutmasligi shart. O'qituvchi sinf jamoasiga va alohida tarbiyalanuvchiga pedagogik ta'sir ko'rsatishida muvaffaqiyatlarga erishishi uchun, o'quvchilar orasida o'zaro pedagogik munosabatlar tizimini oqilona rejalashtirishi va psixologik muhitni ijobiy tomonga o'zgartirishi lozim. To'g'ri tashkil etilgan va har jihatdan mukammal bo'lgan, yosh avlodning qalbi va ongini asrashga, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan pedagogik munosabatlar tizimini tashkil etish uchun o'qituvchi har bir o'quvchi ruhiyatini chuqur bilib olishi, ularning ichki imkoniyatlaridan xabardor bo'lishi, axborot berishi, fikr almashishi, ular qayg'usini, tuyg'ularini tushunishi va hamdard bo'lishi zarur. Pedagogik munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o'qituvchi:

- o'quvchilar bilan bo'lajak munosabatni modellashtira olishi;
- munosabatda bo'ladigan sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan bilishi;
- bevosita samimiy va hamjihatlikka asoslangan munosabat o'rnatish;
- munosabatda ustunlikka ega bo'lib, uni demokratik talablar asosida oqilona boshqarish;
- munosabatning ijobiy va salbiy jihatlarini uzluksiz tahlil etib borishi lozim.

O'qituvchi kasbiy mahoratida muhim ahamiyatga ega bo'lgan insoniy fazilat hamda xushmuomalalikni o'zida shakllantirishi uchun muntazam faoliyat olib borishi zarur. O'qituvchi pedagogik faoliyatiga oid shaxsiy o'z-o'zini tarbiyalashning o'zaro fikr almashish va aloqadorlikka doir quyidagi tizimlarini tavsiya etish mumkin.

1. Kasbiy faoliyat jihatidan o'z-o'zini anglashni (muomalada o'zaro fikr almashishga doir sifatlarni, ijobiy va zaif tomonlarini aniqlashni) amalga oshirish va shu asosda o'zaro fikr almashish asosida o'z-o'zini tarbiyalash dasturini ishlab chiqish.

2. O'z kasbiy faoliyatiga quyidagi yo'nalishlarda baho berish maqsadga muvofiq: kishilar bilan bo'lgan muomaladan so'ng olingan taassurotlarni tahlil qilish, o'quvchilar bilan muomalaning so'nggi holatlarini o'rganib, muomala haqida o'zining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, muomaladagi imkoniyatlaringizni atrofdagilar (o'qituvchilar jamoasi, ota-onalar, o'quvchilar) qanday baholashi haqidagi tasavvurlarga ega bo'lish.

3. O'zida insonparvarlikning asosiy xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan o'z-o'ziga ta'sir o'tkazuvchi "autogen" mashqlar asosida ishlash.

4. O'quvchilar va ota-onalar bilan turli jamoat ishlarini olib borish, bundan o'zaro fikr almashish faoliyatida ko'nikma va malakalar (ma'ruzalar, suhbatlar, kamolot yoshlar uyushmalari) hosil bo'ladi.

5. So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazishda salbiy kayfiyatlarni yengish tajribasini shakllantiradigan va xushmuomalalikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratish.

6. Xushmuomalalikka milliy an'ana va urf-odatlarimiz, o'zbekona muomala madaniyati, milliy ma'naviyatimiz nuqtai nazaridan yondashish.

7. O'z ona tilida puxta, lo'nda va jarangdor so'zlar tuza olish va uni nutqiy mahorat bilan ifodalash ta'lim muassasalarida o'rganilayotgan har bir fan o'qituvchisi uchun eng zarur kommunikativ qobiliyatlardan biridir.

Taklif etilgan ushbu tizim asosida pedagogik faoliyat olib borish o'qituvchi kasbiga oid shaxsiy fazilatlardan biri bo'lgan insonparvarlik va xushmuomalalikni shakllantiradi. O'qituvchi kasbiy faoliyati davomida nutqidagi so'z qudratini takomillashtirib boradi. U o'zbek

tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali soʻz boyligini goʻzal, ravon, ifodali, taʼsirchan boʻlishiga intiladi. Zero, goʻzal va taʼsirchan soʻzlay bilish ham sanʼat. Bu sanʼatdan bebahra boʻlgan oʻqituvchining kasbiy mahorati shakllanmaydi. Qaysi fanni oʻqitishdan qatʼiy nazar, oʻqituvchining asosiy quroli soʻz boyligidir, u soʻz qudrati asosida kommunikativ qobiliyatini namoyish etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi.: Nasaf, 2000.
2. Tolipov Oʻ., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. - T.: 2005.
3. Avliyakov N. X., Musayeva N. N. Pedagogik texnologiya. Oliy oʻquv yurtlari uchun darslik.
4. Azizxodjayeva N.N. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo. -Tashkent: Moliya, 2002.
5. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - T.: Fan, 2006.
6. Yoʻldoshev J.Gʻ., Usmonov S. Ilgʻor pedagogik texnologiyalar. — T.: Oʻqituvchi, 2004.



O‘QITUVCHI KASBIY FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI VA PSIXOLOGIYASI**Ma'mura Ulmasovna Dexkonova**

Nizomiy nomidagi TDPU "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" kafedrası v.b.professori

Aliyeva Gulnoza Xasanjon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU IV-bosqich talabasi

Ametova Surayyo Adamboy qizi

Nizomiy nomidagi TDPU IV-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik muomala va pedagogik muloqotning mohiyati, uning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni hamda sinf jamoasi bilan muloqotni tashkil etish masalalari keng yoritib berilgan. Maqola davomida muloqot madaniyatiga erishish yo'llari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, pedagogik muloqot, mulokot madaniyati, muloqotni tashkil etish.

COMMUNICATION CULTURE AND PSYCHOLOGY IN TEACHER'S PROFESSIONAL ACTIVITY

Abstract. In this article, the essence of pedagogical treatment and pedagogical communication, its place in the teacher's activity, and the issues of oriental education and its influence on communication are widely covered. In the course of the article, the influence of national culture on communication, as well as ways to achieve communication culture, are revealed based on analysis.

Key words: influence of culture on communication, pedagogical treatment, oriental education, national culture.

KULTURA I PSIXOLOGIYA OBSHENIYA V PROFESSIONALNOY DEYATEL'NOSTI UCHITEL'YA

Annotatsiya. V dannoy state shiroko osvesheni sushnost pedagogicheskogo lecheniya i pedagogicheskogo obsheniya, yego mesto v deyatel'nosti uchitelya, a takje voprosi vostochnogo obrazovaniya i yego vliyaniye na obsheniye. V xode stati na osnove analiza raskrivayetsya vliyaniye natsionalnoy kulturi na obsheniye, a takje puti dostijeniya kulturi obsheniya.

Muloqot - axborot jarayonidir. Har bir kishining qanday dunyoqarashga egaligi, bilimliligi uning muloqotidan ma'lum bo'ladi.

Muloqot - insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa vositalaridir. Muloqotda asosiy vosita bu til hisoblanadi, shuning uchun ham til- aloqa quroli deyiladi. Pedagogning tili shirin, muomala madaniyati yuqori bo'lsa, u qisqa vaqt ichida tahsil oluvchilar, hamkasblari va jamoa orasida obro'-e'tibor qozonadi. So'zga chechanlik, hech qachon kishiga obro' keltirmaydi. Ulug' mutafakkirlarimiz tilga, so'zga hurmat bilan yondashish lozimligini o'zlarning asarlarida uqtirib o'tganlar. Ulug' bobomiz Alisher Navoiy muomala madaniyati, xushmuomalalik, shirinso'zlik haqida o'z fikrlarini bayon etgan. «Til shirinligi ko'ngilga yoqimlidir, muloyimligi

esa - foydali. Shirin soʻz sof koʻngillar uchun asal kabi totlidir», - deydi Alisher Navoiy¹. Darhaqiqat bugungi kunimiz uchun ham u oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan.

Taʼlim-tarbiya jarayonlarida nutqning taʼsir kuchi nihoyatda kattadir. Oʻqituvchining nutqi oʻquvchilarning oʻzlarini tuta bilishlariga, xulk-atvori va fikr yuritishlariga ham taʼsir etuvchi kuchli vositadir. Taʼlim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va boshqarishda oʻqituvchining bilimi, pedagogik mahorati va psixologik xususiyatlari ochiq namoyon boʻladi. Avvalo, pedagogik muloqot oʻqituvchi va oʻquvchilar orasida oʻzaro hamkorlik va bir-birlariga nisbatan ishonch tuygʻulari boʻlishi lozim. Muloqot jarayonida avtoritar, demokratik va liberal boshqaruv uslublarini vaziyatga qarab toʻgʻri tanlay olishi, qoʻllashi lozim. Shuningdek, sinf jamoasi bilan muloqotni toʻgʻri tashkil etishi lozim, jarayonda nafaqat pedagogning oʻzi tinglash texnikasiga amal qilishi, balki oʻquvchilarni ham oʻzgarlar fikrlarini tinglashga oʻrgatib borishi talab etiladi.

Mulokot madaniyati - mulokot jarayonini axlokiy meyorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etish asosida sux, batdoshni tushuna olish extiyoji va kobilyatiga egalik.²

Oʻqituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatini qayda daraja borishini sinf jamoasini shakllantirish va uni boshqarish misolida koʻrib oʻtaylik:

Mazkur jarayonda muloqotni tashkil etish toʻrt bosqichda amalga oshirilib, uning birinchida talab faqat oʻqituvchilar tomonidan qoʻyiladi. Bu sinf jamoasi shakllanishining boshlangʻich nuqtasi hisoblanadi. Bunda oʻquvchilar jamoasi hali tarbiyalanuvchi jamoa boʻlmay, balki «birlikni tashkil etuvchi» guruh hisoblanadi. Oʻqituvchi tashkilotchi sifatida jamoa aʼzolarining uzluksiz ijodiy faoliyatlarini tashkil qilishi va ularni yagona maqsad atrofida birlashtirishga erishishi lozim, shundagina jamoa qaror topadi. Oʻqituvchi muloqoti asosida oʻquvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi faollashadi, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinadigan ishlarni rejalashtirish jamoa aʼzolarida masʼuliyat, javobgarlik, faoliyat birligi jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishni paydo boʻlishiga olib keladi. Oʻquvchilarning jamoa faoliyatini tashkil etish borasidagi tajribalarga ega emasliklari bois oʻqituvchining asosiy maqsadi muloqot asosida jamoa aʼzolarini oddiy tarzda uyushtirishdan iborat.

Sinf jamoasi bilan muloqotni tashkil etishning ikkinchi bosqichida jamoa faollarining oʻqituvchi muloqotidan kelib chiquvchi talablarni qoʻllab-quvvatlashi hamda oʻz navbatida bu talablarni jamoa aʼzolari zimmasiga qoʻyishi bilan tavsiflanadi. Oʻqituvchi jamoada paydo boʻladigan muammolarni yolgʻiz oʻzi hal qilmaydi. Jamoa faollari bilan qizgʻin muloqot natijasida tarbiyaviy ishlarni olib boradi. Ikkinchi bosqichda oʻqituvchi muloqotni jamoaning muhim ishlarini oʻquvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirilishiga, tadbirlarni oʻtkazishga, faoliyat natijalarini muhokama qilishga, jamoa faoliyatining ijodiy xususiyat kasb etishini koʻrsatuvchi omillariga tayanib tashkil qiladi.

Sinf jamoasi bilan muloqotni tashkil etishning uchinchi bosqichida oʻqituvchi muloqot asosida u yoki bu tadbir rejasini, jamoaning birgalikdagi faoliyatini va uning aʼzolari hatti-harakatini jamoa boʻlib muhokama qiladi, turli mavzularda suhbatlar va maʼruzalar uyushtiriladi.

¹ A. Xoliqov Pedagogil mahorat. -T.: 2011. 424 b.

² Педагогик компетентлик ва креативлик асослари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Д., Сайфуров Д.М., Тураев А.Б. - Тошкент, 2015. - 120 бет.

Sinf jamoasi bilan muloqotni tashkil etishning to'rtinchi bosqichida Bu bosqichda o'qituvchi muloqoti barcha sinf a'zolarining jamoa oldida turgan vazifalari asosida o'z-o'zlariga qat'iy talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish joizki, har bir bosqichda ham jamoa a'zolari o'zlariga nisbatan muayyan talablar qo'yishlari lozim. To'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash asosida olib borilishi lozim. Mazkur jarayonlarda quyidalarni:

o'quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg'usi bilan uyg'unlashgan bo'lishi hamda ularning yosh xususiyatlari inobatga olingan bo'lishi kerak.

talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim.

jamoaning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatiga nisbatan qo'yilayotgan talablari jamiyat talablari bilan uyg'unlashgan holda olib borilishi shart.

o'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, o'qituvchi kasbiy faoliyatida ta'lim-tarbiya maqsadlarini amalga oshirishda muloqot madaniyati muhim o'rin tutadi. Pedagog bo'lajak muloqotlarni tashkil etishni oldindan modellashtirishi, munosabatlarni boshqarish uslublarini vaziyatga ko'ra to'g'ri tanlashi, meyorda qo'llashi hamda o'quvchilarni hurmat qilishi, insonparvarlik, demokratik ruhida hamkorlikda ishlashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: 2011. 424 b.
- Muslimov N.A., Usmonboyeva M D., Sayfurov D.M., Turayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari - Toshkent, 2015. - 120 bet.
- Ma'mura Ulmasovna Dexkanova, Saodat Samadjon qizi Saidova, Laylo Baxriddinova. *O'qituvchi nutqi – pedagogik mahorat ko'zgusi. Results of National Scientific Research International Journal*, 2(1), 41–48. Retrieved from <https://academicsresearch.com/index.php/rnsr/article/view/>
- Dexkanova Ma'mura Ulmasovna, Abdurahmonova Iroda, Sharifova Zuhra Komil qiz Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitishda tarbiyaviy treninglardan foydalanish. YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI, 1(1), 13–17.2023 <https://doi.org/10.5281/>
- MU Dexkanova, DA Zaripova. Malaka oshirish jarayoniga “tarmoqli bumerang” texnologiyasini joriy etish. “Yangi o'zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. *Toshkent-2021 yil 6 oktabr*. Academic research in educational sciences, 2021
- DM Ulmasovna, FF Jamshidovna Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. - PEDAGOG, 2022
- Dexkonova Ma'mura Ulmasovna. Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani. Darslik.-T: 2023

O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI O‘RTASIDA JONLI MULOQOTNI TASHKIL ETISH**Ma'mura Ulmasovna Dexkonova**

Nizomiy nomidagi TDPU "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" kafedrası v.b.professori

Pardayeva Sarvinoz

Nizomiy nomidagi TDPU IV-bosqich talabasi

To'ychiyeva Munajat

Nizomiy nomidagi TDPU IV-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida jonli muloqotni tashkil etish, jonli muloqotning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari haqida so'z boradi. Shuningdek, maqola davomida asosli fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, jonli muloqot, axloqiy meyorlar, nutq texnikasi, tinglash texnikasi, muloqot funksiyalari.

ORGANIZATION OF LIVE COMMUNICATION BETWEEN TEACHER AND STUDENT

Abstract. This article talks about the organization of live communication between the teacher and the student, the specific features and functions of live communication. Also, valid opinions and comments are mentioned in the article.

Key words: Behavioral category, communication, ethical standards, speech dynamics, communication functions, prognostic stage.

ОРГАНИЗАЦИЯ ЖИВОГО ОБЩЕНИЯ МЕЖДУ ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ И УЧЕНИКОМ

Аннотация. В данной статье говорится об организации живого общения преподавателя и ученика, об особенностях и функциях живого общения. Также в статье упоминаются обоснованные мнения и комментарии.

Ключевые слова: Поведенческая категория, общение, этические нормы, речевая динамика, коммуникативные функции, прогностический этап.

Jahon hamjamiyatida integratsiyalashuv jarayoni kechayotgan bugungi kunda taraqqiyotning asosiy omillari sifatida jamiyat a'zolarining kreativ faollik darajasi e'tirof etilib, xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "bilimning mustahkam poydevoriga ega bo'lish va kreativ fikrlashni rivojlantirish, hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini kuchaytirish" dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishida, har bir fuqaroning bilim olishida, ijodiy qobiliyatini shakllantirishda, intellektual jihatdan rivojlantirishda o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'quvchilar bilan jonli va erkin muloqotni to'g'ri tashkil etishi muhim ahamiyatga ega.

Jonli muloqot –bu o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta'lim-tarbiyaviy tadbir mohiyatini og'zaki so'z bilan o'quvchilarga yetkazadigan, o'qituvchini ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo'lgan faoliyatdir³.

³ A. Xoliqov Pedagogil mahorat. -T.: 2011. 424 b.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida jonli muloqotni tashkil etish, eng avvalo pedagogik faoliyatni mukammal modellashtirish va tashkillashtirishga bog'liq.

Bunda o'qituvchi va o'quvchining muloqoti ijobiy natijalar berishi uchun ta'lim-tarbiya jarayonlarini shunday loyihalashtirish kerakki, unda o'quvchilarning erkin so'zlashuvi va kreativ fikrlashlariga imkon yaratilishi lozim. Bu jarayonda pedagogik va axborot texnologiyalardan samarali keng foydalanish, nutq texnikasi va tinglash texnikasiga rioya etish, pedagogik muloqotni boshqarishning demokratik, avtoritar va liberal uslublarini to'g'ri tanlash, qo'llash asosida o'qituvchining o'quvchi bilan jonli muloqoti ta'minlashga erishiladi. Zero, o'qituvchi bilan o'quvchining muloqotini bog'lovchi asosiy vosita – so'zdir. O'qituvchining so'z boyligi qanchalik ko'p bo'lsa, muloqot olib borish qobiliyati tez namoyon bo'lib, ijobiy natijalarga erishishi oson bo'ladi.

O'qituvchining jonli muloqoti har qanday tarbiyaviy tadbirning mazmun va mohiyatini o'quvchiga tabiiy holda yetkazadi, shu jarayonning ishtirokchilari o'rtasida muloqot uchun mustahkam ko'priklar yaratadi va ichki hissiyot bilan harakatlarning uyg'unlashuvini ta'minlaydi.

O'qituvchi nutqning jozibadorligi, bilim saviyasi va tafakkurining kengligi, o'tkir dunyoqarashi, ma'naviy madaniyat darajasi, pedagogik qobiliyati, ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarning mutanosibliigi har qanday dars va darsdan tashqari tadbirning muvaffaqiyatini ta'minlovchi hamda o'qituvchi jonli muloqotini tashkil etuvchi omillardir. O'qituvchi kasbiy faoliyatidagi jonli muloqot amalga oshirish uchun ta'lim jarayonidagi o'qitish va o'qishning didaktik hatti-harakatlarini ko'z oldiga keltirish va o'z oldiga doimo quyidagi savollarni qo'yib, unga mustaqil fikr-mulohazasi asosida javob bera olishi kerak:

1. Nimaga o'rgatish:

- a) o'quvchilarni o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ilmiy yangiliklardan xabardor etish, fan terminlarini tushuntirish, o'quv predmetini to'liq o'zlashtirish;
- b) o'quvchilarda shaxs erkinligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish;
- v) o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- g) yangi mavzuni fanlararo aloqadorlik asosida tushuntirish;
- d) dars jarayonini pedagogik va axborot texnologiyalarining qiziqarli metodlari asosida tashkil etish.

2. Kimni o'rgatish:

- a) kelajakda mamlakat taraqqiyoti uchun mas'ul, davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lmish barkamol insonga ta'lim-tarbiya berish;
- b) o'quvchilarni bilim olish va tarbiyalanishi jarayonida duch keladigan muammolar va qiyinchiliklarni mustaqil bartaraf etishga o'rgatish;
- v) o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish;
- g) dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar fikrlarini inobatga olgan holda tashkil etish;
- d) o'quvchilarning psixologik o'zgarishlari va rivojlanishlarini inobatga olish;
- ye) iqtidorli o'quvchilar bilan yakka holda pedagogik faoliyat olib borish.

3. Qanday o'rgatish:

- a) o'qituvchi o'z faoliyati davomida to'plagan pedagogik tajribalari asosida kompyuter, axborot va innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda ta'lim berishi;

b) yuksak pedagogik mahorat bilan dars va darsdan tashqari vaziyatlarda tarbiyaviy jarayonni milliy mafkura, an'ana va qadriyatlar asosida tashkil etish;

v) o'quvchilarni bilim olishga qiziqishini oshirish maqsadida pedagogik ta'sir ko'rsatishning turli usullaridan foydalanish.

O'qituvchining o'quvchilar hamda o'qituvchilar jamoasi bilan uzviy aloqada bo'lishi, uning jonli muloqotni to'g'ri tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar bilan jonli muloqotga kirishib, ularning hurmat e'tiboriga sazovor bo'lish birdaniga sodir bo'ladigan va ta'lim-tarbiya sohasida yutuqlarga darhol yetaklaydigan jarayon emas. Buning uchun o'qituvchi yillar davomida tayyorlanadi, pedagogik mahorat sirlarini egallaydi, tajribali ustoz o'qituvchilarning yutuqlaridan foydalanadi. O'qituvchilar uchun jonli muloqotni yaratishda quyidagilarga e'tibor berish talab qilinadi:

- o'quvchilarning individual xususiyatlarini, psixik holatini chuqur o'rganish, sinf jamoasining rasmiy va norasmiy liderlari faoliyati bilan tanishish, ularga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish;

- jonli muloqot asosida mustaqil fikrlovchi, o'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga intiluvchi erkin shaxsga ta'lim-tarbiya berishi shartligini unutmashlik;

- jonli muloqotning pirovard natijasi o'quvchilarni o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati bilan mas'uliyatni his etishini ta'minlashi, ularni ongli ravishda ozod va hur fikrlovchi inson bo'lib tarbiyalanishini ta'minlash;

- jonli muloqot tufayli o'quvchilarning yuksak darajadagi intellektual salohiyatlarini, aql zakovati qudratini yuzaga chiqarishga erishish.

Pedagogikada jonli muloqotning muhim jihatlaridan biri uning vositalaridir. Vositalar tashkilotchilik qobiliyati, baho beruvchi, intizomga undovchi bo'lishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda o'qituvchi o'z ishining mohir ustasi bo'lishi uchun tashkilotchilik qobiliyati asosida ta'sir ko'rsatishga ko'proq yondashishi lozimligi ta'kidlanadi.

Pedagogik faoliyatda o'qituvchi jonli muloqot orqali quyidagi funksiyalarni bajaradi:

birinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonining o'qituvchi tomonidan yakka holda olib borilishi va bu faoliyatga yagona o'zi javobgarligi;

ikkinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonida bir maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy - psixologik tizimning bir maromda ta'minlashi;

uchinchidan, ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini belgilovchi o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatida muayyan bir tizimning tashkil qilinishi;

to'rtinchidan, o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi erkin shaxs sifatida shakllantirish, yashirin iste'dodini ro'yobga chiqarishga erishish imkoniyatlaridan foydalanish;

beshinchidan, barkamol inson tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi sifatida o'qituvchi pedagogik faoliyatining birlamchi vazifasi ekanligini unutmashlik.

Xulosa qilib ta'kidlash kerakki, ta'lim muassasalarida olib borilayotgan pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqot jarayonida nojo'ya hatti – harakati, qo'polligi, o'ylanmay bildirilgan noto'g'ri fikri, ortiqcha imo-ishoralari natijasida o'quvchilar bilan bo'ladigan jonli muloqotning buzilishiga, tuzatib bo'lmas qaltis vaziyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Buning natijasida muloqot odobi, yaxshi muomala bilan fikr almashuv o'z o'rnini nizoli vaziyatga bo'shatib beradi. Ushbu salbiy holatlarga yo'l qo'yilmaslik uchun, pedagogik muomalada o'quvchilar bilan o'zaro munosabat hurmat va ishonch negizida qurilishi kerak.

Bunda o'qituvchi o'quvchining huquq va majburiyatini, maktabda, jamoada, oilada bajaradigan vazifalari nimalardan iborat ekanligini har lahzada eslatib turishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом общении: //Кн. для учителя. 1987.- 190 с
2. Xoliqov A. Pedagogil mahorat. -T.: 2011. 424 b.
3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M D., Sayfurov D.M., Turayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari - Toshkent, 2015. - 120 bet.
4. Ma'mura Ulmasovna Dexkanova, Saodat Samadjon qizi Saidova, Laylo Baxriddinova. *O'qituvchi nutqi – pedagogik mahorat ko'zgusi. Results of National Scientific Research International Journal*, 2(1), 41–48. Retrieved from <https://academicsresearch.com/index.php/rnsr/article/view/>
5. Ортиқов А. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати. – Т.: “Доно хамро” илмий маркази, 2002. – 78 б
6. Dexkanova Ma'mura Ulmasovna, Abdurahmonova Iroda, Sharifova Zuhra Komil qiz Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitishda tarbiyaviy treninglardan foydalanish. YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI, 1(1), 13–17.2023 <https://doi.org/10.5281/>
7. MU Dexkanova, DA Zaripova. Malaka oshirish jarayoniga “Tarmoqli bumerang” texnologiyasini joriy etish. “Yangi o'zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. *Toshkent-2021 yil 6 oktabr*. Academic research in educational sciences, 2021
8. DM Ulmasovna, FF Jamshidovna Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. - PEDAGOG, 2022
9. Dexkonova Ma'mura Ulmasovna. Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani. Darslik.-T: 2023
10. Каримов И.И. Укитувчи, устоз, мураббий...: Талабалар ва ёш укитувчилар учун. Рисола. – Қўқон ДПИ, 2009. – 99 б.

NUTQ TEXNIKASI VA NOTIQLIK MADANIYATI

Ma'mura Ulmasovna Dexkonova

Nizomiy nomidagi TDPU "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" kafedrası v.b.professori

Toshpo'latova Muborak Xamidjon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU IV-bosqich talabasi

Suyunboyeva Sohiba Shamsiddin qizi

Nizomiy nomidagi TDPU IV-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada nutq texnikasi va notiqlik madaniyati, shuningdek uning funksiyalari hamda shakllari haqida ma'lumot berilgan va mavzu asosli dalillar yordamida ochib berilgan. Maqola davomida xulosa va takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: nutq texnikasi, notiqlik madaniyati, nutq shakli, nutq funksiyalari.

SPEECH TECHNIQUE AND ORATORY CULTURE

Abstract. This article provides information about speech technique and oratory culture, as well as its functions and forms, and the topic is revealed with the help of valid arguments. Conclusions and suggestions are given throughout the article.

Key words: speech technique, speech culture, speech form, speech functions.

ТЕХНИКА РЕЧИ И ОРАТОРСКАЯ КУЛЬТУРА

Аннотация. В данной статье даются сведения о технике речи и ораторской культуре, а также ее функциях и формах, а тема раскрывается с помощью разумной аргументации. Выводы и предложения даются по всей статье.

Ключевые слова: техника речи, культура речи, форма речи, речевые функции.

Bugungi kunda davlatimiz ta'limi sohasi oldiga qo'yayotgan vazifalarning bajarilishi ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Uning kasbiy bilimlari, tajribalari, ilmiy dunyoqarashi, pedagogik texnikasi, pedagogik qobiliyati va nutq madaniyatiga ega bo'lishi ta'lim sifati garovidir.

Ulug' mutafakkirimiz Al-Farobiy shunday deydilar: «O'qituvchi, –aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur». U o'z fikrini davom ettirib, «O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi, yoshlarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Shu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. Ana shundagina u insonlikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi», deb ta'kidlaydi⁴.

Darhaqiqat, shirinso'zlik va go'zal nutq hech qachon, hech qayerda sotilmaydi. Bunga erishish uchun birgina yo'l, ko'p kitob o'qish va axborot vositalari orqali berilayotgan ma'lumotlarni kuzatish, mashq qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Audio va video vositalar yordamida doimiy o'z ustida ishlash orqali o'z nutqini tahlili qilish va kamchiliklarni bartaraf etib borish lozim.

Nutq texnikasi – bu nutqni tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazishda qo'llaniladigan vositalar tushuniladi.⁵ O'qituvchining ovozi, talaffuzi, diktsiyasi, umuman, tirik nutqi hamisha o'quvchilar, ayniqsa, kichik sinflardagi o'quvchilar uchun o'ziga xos etalon, namuna vazifasini bajaradi. O'qituvchining tirik nutqidagi, kattadir, kichikdir, har qanday nuqson o'quvchi nazaridan chetda qolmaydi, darhol uning diqqatini tortadi. Bunday nuqson o'qituvchi nutqida muntazam kuzatilsa, o'quvchi o'qituvchidan nohaq bo'lsa-da, ranjigan hollarida mazkur nuqson asosida uni sirtidan kalaka, mazax qilishgacha borishi mumkin. Masalan, o'quvchilar o'zaro ana shunday o'qituvchi haqida gaplashganda, uni mazkur nuqsonli ovoz, talaffuz yoki diktsiya bilan eslashadiki, bu umumiy tarbiya jarayoni uchun ham ijobiy holat emas, albatta. Kasbiga sadoqatli o'qituvchi o'z o'quvchisi ko'zi o'ngida qusursiz va qadrli ustoz imijini yaratish, uni saqlash uchun hamisha nutqining fonetik rasoligi haqida qayg'urishi zarur. To'g'ri, tug'ma xirqirokdik, chiyildokdik kabi ovozni yoqimsiz qiladigan jihatlardan tamoman qutulishning iloji yo'q. Ammo nutq texnikasini yetarli darajada bilmaslik oqibatida yuzaga keladigan nuqsonlardan fonetik bilimlardan xabardorlik, ovozni yo'lga qo'yish (ruschada "postanovka golosa"), aniq talaffuz qilish, nutq jarayonida to'g'ri nafas olish bo'yicha turli mashqlar yordamida imkon qadar xalos bo'lish mumkin. Mashhur qadimgi yunon notig'i Demosfenning dastlab ovozi past, talaffuzi yomon, nafasi qisqa bo'lganligidan chiroyli va ta'sirli nutq ayta olmaganligi haqida tarixchilar yozganlar. Bu sohani chuqur o'rgangan olim S. Inomxo'jayev ta'kidlaganidek, keyinroq Demosfen nutq texnikasi asoslarini egallashga juda jiddiy kirishgan.

Nutq – tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda reallikka aylangan fikr bo'lib ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi:

- 1) ichki nutq;
- 2) tashqi nutq.

O'qituvchi ongida hosil bo'ladigan, hali amalga oshmagan til elementlaridan tashkil topgan, kishining og'iz ochmasdan fikrlashi, mulohaza yuritishi, o'ylashi ichki nutqdir. O'qituvchi mulohazasi va fikrining til vositasida nutq organlariga ta'siri va harakati bilan real tovushlar sifatida yuzaga keladigan nutq – tashqi nutq bo'lib, u ijtimoiy hodisadir.

O'qituvchining nutqiy faoliyati: so'zlash, mutolaa qilish va eshitishdan iborat. Nutq hodisasi monolog, dialog, polilog, deklamatsiya hamda ayrim matn va kitob shaklida bo'lishi mumkin. Nutq maxsus belgilangan tartibda o'zining hajmi bilan notiqqa havola etiladigan. Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili asosida nutqning quyidagi o'ziga xosliklarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Funktsiyalari: muloqot, shaxsga ta'sir ko'rsatish, ta'lim va tarbiya vositasi.
2. Shakllari: tashqi nutq (og'zaki): monolog, dialog, polilog; yozma: doklad, referat, annotatsiya va boshqalar; ichki nuqt.
3. Nutq texnikasi: pedagog ovozing kasbiy sifati: tembr, intonatsiya, diktsiya, temporitm (bir minuda 120 ta so'z).
4. Nutqiy faoliyat turlari: o'qish, yozish, gapirish.
5. Nutq uslublari: ilmiy, rasmiy, so'zlashuv, badiiy, ommabop.
6. Nutqqa qo'yiladigan talablar: talaffuzning aniqligi, ifodaviylik, emotsionallik, diktsiyaning tushunarligi, tovushlarning aniq talaffuz qilinishi, obrazlilik, nutq madaniyati, so'zdan foydalanish qoidalariga rioya qilish, temporitmga amal qilish.

7. Nutqni egallashda yo'l qo'yiladigan kamchiliklar: monotonlik, temporitmning oshib ketishi, noto'g'ri diktsiya, so'zlarni noo'rin qo'llash, til qoidalarini buzish.

O'qituvchi nutqning ta'sirchanligi nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi va nutqdagi to'g'rilik va aniqlik, mantiqiylik va tozalik tinglovchiga ta'sir etish uchun yo'naltirilgan bo'ladi.

Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan, o'qituvchining og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va o'quvchilar tomonidan qabul qilinishida paydo bo'ladigan ruhiy vaziyat e'tiborga olinadi. Ya'ni notiq-o'qituvchi o'quvchilarni hisobga olishi, ularning bilim darajasidan tortib, hatto yosh xususiyatlarigacha, nutq ijro etilayotgan paytdagi kayfiyatlarigacha kuzatib turishi, o'z nutqning o'quvchilar tomonidan qanday qabul qilinayotganini nazorat qilishi lozim. Professional bilimga ega bo'lgan o'qituvchilar jo'n, sodda tilda gapirishlari maqsadga muvofiq emas, oddiy, yetarli darajada notiqlik ma'lumotiga ega bo'lmagan yosh o'qituvchilar ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilishlari kerak emas. Xullas, notiq-o'qituvchidan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi bo'lgan har qanday fikrini to'laligicha o'quvchilarga yetkazishga harakat qilish vazifa qilib qo'yiladi. O'quvchilar tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishonтира olish o'qituvchi oldiga qo'yiladigan asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Buning uchun esa, o'qituvchida yuqorida aytilganidek, mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan rejasi bo'lishi kerak. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o'zaro bog'lab, o'quvchilarni avvalo nutq rejasi bilan tanishtirib, so'zni boshlash lozim. Vaqtni hisobga olish, notiqlik fazilatlaridan biridir. Chunki so'zlash muddati oldin e'lon qilinib, shunga rioya qilinsa, agar iloji bo'lsa, sal oldinroq tugatilsa, o'quvchilar zerikishmaydi.

Nutqning ta'sirchanligi va ifodaliligi haqidagi gap ma'lum ma'noda nutq sifatleri haqida aytilgan gaplarga yakun yasashdir. Chunki yaxshi nutqning fazilatlarini ko'rsatib o'tish, nutqda uchraydigan ayrim tipik xatoliklarni tahlil qilish, pirovard natijada ta'sirchan bir nutqni shakllantirishga xizmat qiladi. Nutqdagi fikrlarni o'quvchilarga mazmunli yetkazishning xilma-xil yo'llari va vositalari mavjud. Ularni yordamchi vositalar deb ham atash mumkin. Masalan, yumor yoki biror hikoyatni olaylik. Nutqdagi uzluksiz ilmiy-ommabop fikr oqimi, uning bir maromda bayon qilinishi o'quvchini ham, har qanday tinglovchini ham zeriktirib qo'yishi mumkin. Shunday paytda, yumor, hikoyat, qiziqarli voqealar haqida gapirish o'qituvchiga juda qo'l keladi. Yumorning nutq mazmuniga mos holda keltirilishi yana ham yaxshidir. Shunday qilinsa, o'quvchi ham dam oladi, ham o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi.

Nutqda mavzu doirasida ba'zi fikr va mulohazalarni keltirish ham maqsadga muvofiqdir. Bunday fikrlar notiq fikrining to'g'riligini, haqqoniy ekanligini isbotlash uchun foydalaniladi, faqat ulardan foydalanishni suiste'mol qilmaslik kerak. Badiiy adabiyot namunalaridan, hikmatli so'zlardan, tildagi ifoda – tasvir vositalaridan nutqda o'rni bilan foydalanish ham ijobiy natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish joizki, nutqning o'quvchilarga qanday ta'sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishida o'qituvchining nutqiy jarayon davomida o'zini qanday tuta bili shi, imo-ishoralari, hatto kiyinishi kabi omillarning ham o'rni bor. Samimiylik, xushmuomalalik, odoblilik, o'quvchilarga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning o'quvchilar tomonidan e'tibor bilan tinglanishiga sabab bo'ladi. Mukammal notiqlik san'atiga ega bo'lish o'qituvchilar uchun ulkan mehnat talab qiladigan murakkab jarayon, nutqning o'tkirligi, yorqinligi va originalligi tinglovchi va o'quvchilarda his-tuyg'u va qiziqish uyg'otishi, uning e'tiborini qaratishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Isaev I.F. Professionalno-pedagogicheskaya kultura prepodavatelaya: Uchebnoe posobie dlya vuzov / I. F. Isaev. – M.: Akademiya, 2002.
2. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. – Routledge, USA, 2012.
3. Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом общении: //Кн. для учителя. 1987.- 190 с
4. Xoliqov A. Pedagogil mahorat. -T.: 2011. 424 b.
5. Ma'mura Ulmasovna Dexkanova, Saodat Samadjon qizi Saidova, Laylo Baxriddinova. O'qituvchi nutqi – pedagogik mahorat ko'zgusi. Results of National Scientific Research International Journal, 2(1), 41–48. Retrieved from <https://academicsresearch.com/index.php/rnsr/article/view/>
6. Ортиқов А. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати. – Т.: “Доно ҳамро” илмий маркази, 2002. – 78 б
7. Dexkanova Ma'mura Ulmasovna, Abdurahmonova Iroda, Sharifova Zuhra Komil qiz Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitishda tarbiyaviy treninglardan foydalanish. YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI, 1(1), 13–17.2023 <https://doi.org/10.5281/>
8. DM Ulmasovna, FF Jamshidovna Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. - PEDAGOG, 2022
9. Dexkonova Ma'mura Ulmasovna. Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani. Darslik.- T: 2023

THE DIFFERENT ASPECTS OF POLYSEMY OF SOME ITS RELATED EVENTS**Davidov Yunus Jummayevich**

Termez State University Lecturer teacher of the Uzbek language and literature department

E-mail: Yunusdavidov59@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko'pma'nolilikning yuzaga kelishi, ko'pma'nolilikning birma'nolilik hamda ma'no kengayishi va torayishi kabi hodisalardan farqli jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ko'p ma'nolilik, ko'chma ma'no, monosemantik leksema, shakl va mazmun, ma'no kengayishi, ma'no torayishi.

Abstract. This article describes the occurrence of polysemy, the different aspects of polysemy from such phenomena as ambiguity and expansion and contraction of meaning.

Key words: polysemy, figurative meaning, monosemantic lexeme, form and content, expansion of meaning, narrowing of meaning.

INTRODUCTION

Polysemy has attracted the attention of scientists since ancient times. Mirtojiev said that this phenomenon was studied by Chinese and Indian scientists before our era, and by the Greeks at the beginning of our era, from our ancestors to this event M. Kashgari, Zamakhshari, A. Navoi, among our ancestors, also wrote that they expressed their views. (2, p. 3). The multi-meaning of the word makes it possible to memorize a small amount of words, to express a relatively large amount of meaning and to make maximum use of understanding. This makes it easier to learn other languages. Ambiguity is a linguistic phenomenon that serves to express speech figuratively and impressively. A word with many meanings, a lexeme is a linguistic unit. In the text, the word realizes one of its meanings. Changes in the life of the society, of course, are reflected in the language. This is clearly shown by the new creations in our vocabulary, or the borrowed words of the following years. As the vocabulary of the language changes as a result of the development of the society, the words in the language are updated and changed semantically. So, words in the language change and update lexically and semantically, and as a result of that semantic development, the phenomenon of ambiguity occurs. Ambiguous words are created as a result of the imposition of a new meaning on a previously existing word due to the attempt to express unlimited concepts and ideas from limited units of language. A word that has two or more meanings is considered a polysemous word, while words that express only one meaning in the language are monosemantic (one-semantic) words. Russian linguist L.A. Novikov recognizes three types of the relationship between a sign and its meaning, which creates ambiguity. The first type of relationship between a sign and its meaning is associated with monosemy... In this case, there is a correlation between the sign and its meaning. The second type, which paves the way for polysemy a) polysemantic units are close to monosemantic units, and the distance between polysemantic units is weak and smaller; b) in polysemy, the distance between the sign and its meanings is significant and strong. If in the first type the sign and its meaning are almost consistent, in the second type the connection between them is free. It has more semantic units than a sign, and they can be expressed more widely in the scope of other synonymous signs. The next type of relationship between a sign and its meaning is

homonymy, which is characterized by the semantic variation of a polysemous unit, and the connection between semantic units ceases. So, polysemy is a linguistic semantic category between the extremes of monosemy and homonymy (3, P.193). In fact, in monosemantic words, form and content are proportional, while in polysemantic words, form and content are disproportional. New words (neologisms) introduced into the language initially express one meaning, but later they can express several meanings. For example, the word virus initially means a microorganism that reproduces only in living cells and causes infectious diseases in humans and plants. (4, 1- volume P. 462) If it means, then it also means the name of a tool that damages programs and data in technical devices such as computers, telephones, that is, ambiguity has arisen. Ambiguity is a product of language development. It should be noted here that any monosemantic lexemes can become polysemantic lexemes, that is, even monosemantic lexemes have the possibility of polysemanticity. A single-meaning lexeme can always create a new meaning, and polysemantic words can become homonyms. The development of monosemantic lexemes can create polysemy, as well as the development of polysemantic words can create homonymous lexemes. Monosemantic lexeme - polysemantic lexeme - homonymous lexeme. The linguistic essence of polysemy is explained by the asymmetry of sign and meaning, which do not completely cover each other. The difference between polysemy and the phenomenon of expansion and contraction of lexical meaning. In the course of the historical development of the language, the meanings of the words also change in connection with the changes in the vocabulary. Although some words do not change in form, they change in meaning. Words with several meanings can be used in one sense, and vice versa, words with one meaning can be used in several meanings, that is, narrowing and expanding the meaning of words. For example, in the past, the word millet meant grain in general, and the word deer meant all wild animals, but now millet means a kind of grain, deer a kind of wild animal.

The phenomena of polysemy and broadening and narrowing of meaning are different. M. Mirtojiyev explains these two phenomena as follows: “The occurrence of polysemy is the formation of more than one lexical meaning. An extension of meaning is only an internal change of meaning. That is, they are different language phenomena. In the expansion of the meaning, the scope of the concept it means expands, and no new lexical meaning is formed in it. The expanded lexical meaning expresses the same expression as before, only the amount or size of the referent that that lexical meaning signifies increases” (1, P. 168). In the book of Semasiology, M. Hakimova states that the result of the change of lexical meaning is twofold, i.e. 1) the increase in the number of meanings in the semantic structure of a lexeme leads to polysemy, and later to homonymy; 2) It notes the change in the meaning of the lexeme, in which the meaning expands or shrinks without creating a new meaning (5, p. 67). It is clear from the above considerations that the phenomena of ambiguity and meaning expansion and narrowing are different from each other. So, in polysemy, one meaning grows out of another meaning that depends on it. For example, a flower grew, meaning grew. In expansion and contraction of meaning, the signified meaning expands (increases) or narrows (decreases) without creating new meaning. For example, if the word village means "a place where you live in winter", it means a place where people live, not a city.

REFERENCES

1. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2010.168-бет
2. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1975.3-бет
3. Новиков Л.А. Семантика русского языка. М. 1982, –С. 193.
4. ЎТИЛ. –Тошкент: “O‘zbekiston nashryoti” 2020. I том.. 462-б
5. Хакимова М. Семасиология. – Тошкент. 2008. 67-бет

ENG YANGI DAVRDA PORTUGALIYA DAVLATI

Qobilov Sirojiddin

Annotatsiya: Ushbu maqolada eng yangi davrda Portugaliya davlati haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Portugaliya, inqilob, konstitutsiya, yangi davr Fransuz inqilobi ta'sirida Portugaliyada ham ozodlik g'oyalari keng tarqala boshladi. Fransiyaning bosqinchi qo'shinlari Portugaliyani talash bilan birga bu yerga inqilobiy erkinlik ruxsatini xam olib keldilar. Masonlik tashkilotlari soni oshib, siyosiy adabiyotlar oqimi ko'paydi. XIX asr 20-yillariga kelib Braziliya iqtisodiyotining qo'ldan [chiqishi](#), Portugaliya sanoati va vinosi uchun Braziliya bozorining yo'qolishi hamda urush harakatlari qo'shilib, iqtisodiy ahvolni og'irlashtirdi. Ispaniyadagi inqilobiy voqealar ham siyosiy holatga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1820 yil 24 avgustda Portu shaxridagi artilleriya polki isyon ko'tarib, konstitutsion tuzum joriy qilishni talab qildi. Ularni Lissabondagi qismlar ham qo'llab-quvvatladi. Muvaqqat hukumat — junta - konstitutsiya qabul qilish uchun umumportugal korteslarining chaqirilishini e'lon qildi. 1822 yili qabul qilingan konstitutsiya Portugaliyada konstitutsion monarxiya tuzumini o'rnatdi va barcha portugallarning erkinligini hamda qonun oldida tengligini tantanali e'lon kildi. Uning bosh prinsiplari ichida millatning suverenitet g'oyasi ham bor edi. Braziliyadan qaytib kelgan qirol Juan VI qasamyod qilgan 1822 yilgi konstitutsiya, Portugaliya tarixida konstitutsionalizmning eng dadil finishi bo'ldi. «Liberalizm yakunlaridan» norozi bo'lgan qirolning kichik o'g'li Migel (1802-1866) boshchiligidagi bir guruh absolyutchilar 1823 yil bahorda isyon ko'tardilar. «Migelchilar urushi» deb atalgan, 11 yil davom etgan fuqarolar urushi shu tariqa boshlandi. Mag'lubiyatga uchragan Migel qirol tomonidan quvg'inga hukm qilindi, ammo absolyutizm tarafdorlari o'z g'oyalariidan voz kechmadilar. 1826 yili qirol Pedro IV ning (1798-1834) taxtga kelishi Konstitutsion xartiya e'lon qilinishi bilan nishonlandi. Xartiya 1822 yilgi konstitutsiyaning ko'plab prinsiplaridan voz kechdi va asosan qirol hokimiyatini mustahkamlashga xizmat qildi. Konstitutsiya jamiyat tomonidan ma'qullanmadi va uni jipslashtirishga xizmat qilmadi. Uni absolyutizm tarafdorlari xam, liberallar xam tan olmadilar. Pedro IV yetti yoshli kizi foydasiga taxtdan voz kechish, agar Migel Xartiyaning tan olsa qizini unga turmushga berish evaziga qarama-qarshi tomonlarni kelishtiraman deb o'ylagan edi. Migel rozi bo'lgandi, ammo Ispaniya tomonidan pul, qurol va siyosiy yordam bilan ta'minlanayotgan uning tarafdorlari hech qanday shartlarsiz qirolning absolyut hokimiyatiga qaytishni talab qildilar. 1828 yili Migel Portugaliyaga qaytib keldi va qonuniy qirol deb tan olindi. Liberallar mamlakatdan qochib ketdilar va o'z kuchlarini emigratsiyada birlashtira boshladilar. Shu yiliyoq qirolga qarshi barcha Shimoliy Portugaliya shaharlarini birlashtirgan yirik markaz - Portu shahri bosh ko'tardi. Qo'zg'olonni bostirish Migel tarafdorlari tomonidan daxshatli terror bilan qo'shib olib borildi. Migel urushlari davomida mamlakat ikkiga - markazi Lissabon bo'lgan Migel tarafdorlari va markazi Portu bo'lgan Xartiya tarafdorlariga bo'lindi. «Portugaliya qirg'oqlariga 1832 yili 8 iyul kuni emigrant-liberallar kelib tushishi bilan fuqarolar urushi yangidan avj oldi. 1834 yil 16 mayda Asseyseyra yonidagi jangda migelchilarning mag'lubiyati bilan fuqarolar urushi yakun topdi. Migel yana mamlakatdan kuvg'in qilinib, boshqa qaytib kelmadi»¹. Konstitutsiya tarafdorlarining g'alabasi to'liq bo'lmadi, chunki 1822 yilgi konstitutsiya juda keskin deb hisoblanib, uning o'rniga saylovchilarning huquqlari yuqori mulk senzi bilan cheklangan yangi

konstitutsiya qabul qilindi. Konstitutsionalistlar ichidagi kelishmovchiliklarga va uning natijasida yuz bergan siyosiy [nobarqarorlikka qaramasdan](#), ijtimoiy taraqqiyotda ancha oldinga siljish yuz berdi, eski tuzumning ko'plab qoldiqlari bekor kilindi. 1834 yili feodal qoldiqlarga qarshi jiddiy islohotlar amalga oshirildi. 1836 yil sentyabrda Lissabon garnizoni isyon ko'tardi. Uni so'l konstitutsionalistlar, 1822 yilgi Konstitutsiya tarafdorlari qo'lladilar va shundan keyin ularni «sentyabrchilar» deb atay boshladilar. Isyon yangi inqilobga aylanib ketdi. «Sentyabrchilar» hukumat tashkil qilib, ularning rahbari Pasush da Silva unga bosh bo'ldi. Ammo liberallar davri uzoqqa cho'zilmadi: 1837 yil iyulda «sentyabrchilar» hukumati ag'darildi. Bir qator isyonlar va qo'zg'olonlardan keyin 1842 yili Portu garnizonining harbiylari hokimiyatga konstitutsionalist, 1826 yilgi Xartiya tarafdori, «xartiyachi» Koshta Kabralni chiqarishdi va u qat'iy boshqaruv rejimini o'rnatdi. Kabral diktaturasidan norozilik 1846 yil bahorda ochiq namoyon bo'ldi. hukumat soliqlarni oshirishga harakat qildi va bu Portugaliyaning shimolida dehqonlar qo'zg'oloniga olib keldi. Qo'zg'olonni ko'plab joylarda olqishladilar va u butun mamlakatga yoyilib, 1846-1847 yillardagi ikkinchi fuqarolar urushiga aylanib ketdi. Kabral hokimiyati ag'darilib, o'rniga kelgan «sentyabrchilar» xalqni tinchlantirish uchun bir qator liberal islohotlarni amalga oshirdilar. 1849-1851 yillari Kabral yana hokimiyatga keldi. Ammo harbiylarning 1851 yilgi chiqishlaridan so'ng xokimiyatga Saldana boshchiligidagi mo'tadil liberallar keldi. Moliyachilar va tadbirkorlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan bu hukumat qashshoqlashgan mamlakatni tiklashga kirishdi. «Tiklanish» harakati o'ng «sentyabrchilar»ni va so'l «xartiyachilar»ni birlashtirdi. Ular o'gir sharoitda faoliyat yuritdilar. Xalqda soliqlarni to'lash uchun ham imkoniyat yo'q edi. Hukumat chetdan, asosan Angliyadan qarz ko'tarib, davlat qarzlarini cheksiz oshirdi. Konstitutsiya mahalliy hokimiyat organlarining [huquqlarini kengaytirish](#), saylovchilar uchun mulk senzini pasaytirish kabi bandler bilan to'ldirildi. Ularning harakatlari o'z natijalarini berdi. 1854 yili Portugaliya aholisi 3,5 mln kishi bo'lsa, 1870 yili 4 mln kishigacha ko'paydi. 1856 yili Portugaliyada birinchi temiryo'l qurilishi yakunlandi. Pasportlar bekor kilindi, 1868 yili mustamlakalarda qullik bekor kilindi. To'planib qolgan davlat qarzlari iqtisodiy o'sishga to'sik bo'layotganiga qaramasdan, aynan shu davrda boshlangan ishlar Portugaliya iqtisodining XIX asr oxirgi choragidagi jadal rivojini ta'minladi. Bu davrda xam tekis rivojlanish davom etganiga qaramasdan, Portugaliya iqtisodining Angliya kapitaliga bog'likligi kuchayib bordi. «1890 yili Mozambikda hududiy yon berish to'g'risida Angliyaning qat'iy talabiga rozi bo'lgan Portugaliya hukumati mamlakat ichida obro'sizlanib qoldi. Natijada bundan foydalangan respublikachilar 1891 yil 31 yanvar kuni Portuda ko'zg'olon ko'tarib, mamlakatni respublika deb e'lon qildi. Ammo xalqning keng qatlamlarida tayanchga ega bo'lmaganligi uchun tezda mag'lubiyatga uchradi. Shundan so'ng mamlakatda siyosiy barqarorlik yo'qoldi, hokimiyat tez-tez almashib, armiyada isyonlar bo'lib turdi»¹. 1910 yil kuzida respublikachilar yangi qurolli qo'zg'olonga tayyorgarlikni yakunladilar. 4 oktyabr kuni kechasi ular ko'targan qo'zg'olon harbiy kema va flot tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Lissabonda ularga xalq ommasi qo'shildi. Qirol qochib ketdi. Portugaliya inqilobi boshlandi. 1910 yil 5 oktyabrda respublika e'lon qilindi. Muvaqqat hukumatni T.Braga boshqardi. 1911 yil iyunda Ta'sis majlisi yig'ilib, respublika konstitutsiyasini qabul qildi. Cherkov davlatdan ajratildi, mustamlakalar avtonomiya huquqi, sanoat ishchilariga 8 soatlik ish kuni e'lon qilindi. Respublika yillarida ishchilar harakatlari ham kuchaydi. Bir qator ko'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Respublikachilar hukumati tashqi siyosatda Angliyaga ergashdi va bu hol uni 1914 yil Birinchi jahon urushida ishtirok etishga olib keldi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).

2. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG'LIQ IJTIMOIIY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.

3. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 118-121.

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIM FANLARNI INGLIZ TILI FANI BILAN
INTEGRATSIYALASH****Urazaliyeva Shoxsanam Shavkat qizi**

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti magistranti

E-mail: shoxsanam.urazaliyeva@bk.ru

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim fanlarni ingliz tili fani bilan integratsiyalashning mazmun mohiyati tahlil qilingan va uning yechimlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ingliz tili, o‘qitish usullari, pedagogika, pedagogik faoliyat, bilim, boshlang‘ich ta‘lim.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yetuk, yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirishga qaratilgan chet tillarni o‘qitishning kompleks tizimi yaratilmoqda. «Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat‘iy talab har bir ta‘lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim».

O‘zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda. Chet tillarini chuqur o‘rgatish maqsadida tuman va shaharlarda maktablar tanlab olinib, ushbu maktablarda xorijiy kitoblar, ilg‘or o‘quv dasturlari va metodikalaridan erkin foydalanish hamda fanlarni chet tilda o‘qitish yo‘lga qo‘yilish kabi muhim vazifalar belgilandi.

Boshlang‘ich sinflarda chet tilni o‘rganish – bu til haqida ma‘lumot olish va uni o‘zlashtirishgina emas, balki o‘quvchining faol muloqotga kirishish jarayoni hamdir. Chet tillarni o‘rganishda eng oddiy, eng sodda yo‘llarni izlash va qo‘llash muhimdir. Boshlang‘ich sinflarda chet tilni o‘rgatishdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarni shu tilda muloqot, muomala qila olishga o‘rgatishdir. Chet tilda muomala qila olish uchun o‘quvchilar shu tildagi so‘z boyliklarini egallashlari zarur bo‘ladi.

Tildagi so‘z boyliklarini egallamay turib, na tinglab tushunish, na gapirish mumkin emas. Boshlang‘ich sinfdan chet tilni o‘rganish bola imkoniyati va qobiliyati qanday bo‘lishidan qat‘iy nazar foydalidir, chunki chet til bolaning bilish jarayonlari – xotira, diqqat, tafakkur, xayol va idrokining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Chet til bolani til o‘rganish qobiliyatigina emas, balki o‘z ona tilini ham yaxshi o‘zlashtirishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Chet til o‘qituvchisi nafaqat o‘z fanini, balki bolaning psixo-fiziologik xususiyatlarini ham o‘rganishlari zarur bo‘ladi. Zero, chet tilini o‘zlashtirish orqali bolada ob‘ektiv olamni bilish, o‘rganish jihatlari namoyon bo‘ladi. Tilning lug‘at tarkibini egallash o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularning filologiya, tarix, madaniyat, geografiyaga oid bilimlari ham mustahkamlanadi. Shunday qilib, boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish va ularni yanada rivojlantirish boshlang‘ich sinfdan chet tilni o‘qitish jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishida muhim omil hisoblanadi. Har bir o‘quvchiga individual yondashuvni topish juda muhim va bunga boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bilan chet til o‘qituvchisining doimiy aloqalari, ota-onalar bilan ishlash va ularning harakatlarini muvofiqlashtirish yordam berishi mumkin. Bolalar bilan (shuningdek, har qanday yoshdagi

o'quvchilar bilan) birinchi uchrashuv, o'qituvchining mayin ovozi va do'stona tabassumi hamda uning o'quvchilarga bo'lgan mehr-muruvvati ham katta ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 noyabrda "Pedagogik ta'lim sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida faol pedagoglar tayyorlash vazifasi qo'yilgan [1]. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida esa (2020 yil 23 sentyabr) pedagoglarga nisbatan "tegishli ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-ahloqiy fazilatlariga ega bo'lish" talabari qo'yilgan [2]. Shu jihatdan bu vazifa va talablar "Ingliz tili" fani pedagoglari uchun ham me'yoriy qoidalarni belgilaydi. Jumladan, boshlang'ich sinflarda "Ingliz tili" fani pedagoglari uchun ham me'yoriy qoidalarni belgilaydi. Jumladan, boshlang'ich sinflarda "Ingliz tili" fani pedagoglarining faol bo'lishi va ularning faoliyat samaradorligiga erishishi muhim hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda "Ingliz tili" fani pedagogining faoliyatini baholash va ularni faollikka da'vat qilishda ta'limga oid me'yoriy-huquqiy xujjatlarga asoslanish muhim ahamiyatga ega. Bu borada "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari"da quyidagi malaka talablari qo'yilgan: Bilim berish. Boshlang'ich sinflarda "Ingliz tili" fani pedagogik o'quvchilarga til o'rgatish va ularning nutqini shakllantirish bilan birgalikda ingliz tili tabiati, xususiyatlari hamda grammatikasi to'g'risida me'yoriy ma'lumotlar ham berishi kerak. O'quvchilar ingliz tili to'g'risida dastlabki tushuncha va ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim. Ko'nikma shakllantirish. "Ingliz tili" fani pedagogi boshlang'ich sinf o'quvchilarining mazkur til bo'yicha o'rgangan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirishi kerak. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik boshlang'ich sinf o'quvchilari og'zaki va yozma jummalarni tuzishga qiynalishadi. Shu sababli bu borada har bir o'quvchining ko'nikmasini shakllantirish taqozo etiladi. Malaka hosil qilish. "Ingliz tili" fani pedagogi boshlang'ich sinf o'quvchilarida bu til bo'yicha o'rgangan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish malakasini hosil qilishi lozim. Buning uchun o'quvchilarning lug'at boyligini ko'paytirish bilan ularda yangi bilimlar hosil qilishga erishish mumkin. Albatta, har bir o'quvchi bilan individual ishlash taqozo etiladi. Kompetensiya bilan qurollantirish "Ingliz tili" fani pedagogi boshlang'ich sinf o'quvchilarini mazkur til bo'yicha olgan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati bilan qurollantirishi taqozo etiladi. Buning uchun o'quvchilarni darslik va o'quv materiallari bilan ishlashga o'rgatish kutilgan samarani beradi. Chunki "Ingliz tili" fani bo'yicha o'quv materiallari o'quvchilarning kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. E'tibor berilsa, bu malaka talablari "Ingliz tili" fani pedagoglari uchun quyidagi asoslarni beradi:

- ❖ faoliyat samaradorligiga erishish;
- ❖ kasbiy faol bo'lish;
- ❖ o'z ustida muntazam ishlash;
- ❖ o'qitishning turli vositalarini qo'llash.

O'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlarida ingliz tilini o'rganishi, bilishi va unga qiziqishi boshlang'ich sinflarda olgan bilim, ko'nikma hamda kompetensiyaga bog'liq bo'lishi ma'lum. Shu sababli boshlang'ich sinflarda ingliz tili fani pedagogining faol bo'lishi taqozo etiladi.

Xulosa qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimni baholashga bo'lgan munosabatni o'zgartirish va ularning intellektual profilini hisobga olgan holda o'quv jarayonida "kuchli tomonlariga" tayanish va "kuchsiz" tomonlarini rivojlantirish uchun sahnalashtirish

elementlari (autentik asarlardan lavhalar ijro etish)dan foydalanish va ularni ijodiy loyihalar orqali takomillashtirish o'quvchilarning ijodiy fikrlash salohiyatlarini rivojlantirishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. // www.ziynet.uz. / "Экономика и социум" №5(84) ч.2 2021 www.iupr.ru 1111

2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). // www.ziynet.uz.

3. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari (2017 yil 6 aprel). // www.ziynet.uz.

4. Musurmonov R. Musurmonova M. Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xucusida. "Xalq ta'limi" j. T. 2021. № 26 20-23

TALABALAR O'RTASIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Xamedova Nilufar Azimovna

p.f.n, dotsent Toshkent Kimyo xalqaro universtiteti

Ko'palova Zumrad Quvondiqovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

M.Sc.Theory and Methods of Primary education

Annotatsiya: ushbu maqolada talabalarda oilada, oliy ta'limda kitobga bo'lgan qiziqishini oshirish, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda muhim vazifalar haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlari: kitob, "Besh tashabbus", audio kitob, axborot-resurs markazi, kitobxonlik madaniyati, oila kitobxonligi.

Nutq madaniyati bevosita axloq-odob prinsiplariga bog'liqdir. Chunki nutq madaniyati – bu so'zga "chechanlik" bo'lmay, balki o'z fikrini aniq, ravshan, grammatik qoidalarga rioya qilgan holda munosib ohangda bayon qilish formasidir. Ravshan bayon etilgan nutq tafakkurning mantiqiyli va chuqurligidan dalolat beradi. Bunday ravon nutqqa erishish uchun ko'p kitob o'qish talab qilinadi. Kitob o'qish orqali nutq ravonligiga, xotira mustahkamligiga erishish mumkin.

Yurtimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo'lgan. Har bir davrning o'z ehtiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o'z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e'tibor berilgan. Bugungi kunda "Mutolaa madaniyati", "Kitobxonlik madaniyati" kabi atamalar xalqimizga tanish va odat tusiga kirgan.

2017-yil 13-sentabrda qabul qilingan PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" gi Prezident Qarorining qabul qilinishi ham yurtimizda kitobga bo'lgan e'tibor, kitobxonlik madaniyatiniung qay darajada shakllanganligiga yaqqol misol bo'la oladi. Bundan tashqari Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Beshta muhim tashabbus" ning to'rtinchisi "Kitobxonlik madaniyatini oshirish" yo'nalishi ham talabalarda kitobga bo'lgan hurmat, qiziqishning oshishiga sabab bo'lmoqda.

Bu qaror doirasida ko'plab ishlar amalga oshirildi: "Yoshlarning ma'naviy olamini shakllantirishda kutubxonalar o'rni", "O'zbek milliy-madaniy merosini targ'ib etishda kutubxonalarning o'rni" mavzularida ilmiy-amaliy anjumanlar, "Kitob bayrami", "Bolalar kitobi" respublika festivali, "Yoshlarning eng sevimli kitobi", "Yilning eng yaxshi kitobi" respublika ko'rik-tanlovlarini o'tkazish hamda Zulfiya nomidagi davlat mukofotining adabiyot yo'nalishi bo'yicha sovrindorlarining ijod namunalarini targ'ib qilish, "Yosh kitobxon" Respublika tanlovi, bundan tashqari "Kitobxon o'qituvchi", "Kitobxon Oliy ta'lim" singari ko'plab tanlovlar orqali nafaqat talaba, balki o'qituvchi, murabbiy jamiki aholining kitobga bo'lgan mehrini oshirishga erishilmoqda. Bundan tashqari

Professor E.I.Yo'ldoshev «O'qish madaniyati» tushunchasiga shunday ta'rif beradi: «O'qish madaniyati - juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, kitobga qiziqish va uni sevish,

adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo'lishni, shuningdek, kitobdan to'la ravishda foydalanishga yordam beruvchi ko'nikma va malakaga ega bo'lishni taqozo etadi»

Oliy ta'limda talabalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda quyidagi asosiy jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

- axborot olish madaniyati badiiy adabiyotni to'g'ri tushunish, undan estetik zavq olish;
- ilmiy adabiyotlar, barcha turdagi resurslar bilan ishlash, ma'lumot-bibliografiya va barcha turdagi axborot materiallaridan o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarni qidirib topish, cheksiz axborot oqimlari orasidan kerakli, muhim bo'lgan ma'lumotlarni o'la bilish ko'nikmasini shakllantirish;
- axborot-kutubxona muassasasidan to'g'ri foydalanishni o'rgatish;
- O'qishga, axborot olishga mayl, havas, ishtiyoqni shakllantirish;
- O'qilgan kitob orqali fikrlash yo'llarini o'rgatish;
- Kutubxonalarga, yozuvchi-shoirlar uy-muzeylariga sayohatlar uyishtirish;
- Turli xil tanlovlar va tadbirlar o'tkazish;
- Badiiy asar asosida sahnalashtirilgan spektakllar va filmlarni tomosha qilish;
- Kitobning faqat qog'oz variantidan emas, audio kitob shaklidan ham foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

Kitobxonlik madaniyati haqida Safo Matchon: «Kitobxonlik - o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o'qish, ya'ni maqsadli o'qishdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kitobxonning yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrini nechog'li uqishini, ya'ni asar «tili»ga tushunishi kitobxonlik madaniyati, talanti darajasi ko'rsatadi. Shu tufayli adabiyotimiz talantli yozuvchilar bilan birga talantli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi»,-deya ta'rif beradi. Uning fikricha kitobxonlik talanti tug'ma emas, balki tarbiya vositasida kamol topadi. Shunday ekan, ta'limda o'qitish, o'qish, rivojlanish mujassam amalga oshiriladigan jarayondir.

Ta'lim jarayonining mazmunini tashkil qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalar faqatgina sinfda o'qitiladigan darslarda shakllanib qolmasdan, balki sinfdan tashqari, aniqrog'i axborot-kutubxona muassasalarida mustaqil tarzda shug'ullanish orqali egallanadi.

Axborot-kutubxonachilik ishidagi mavjud tajriba – bu axborot olish madaniyatini tarbiyalashning eng samarali vositasi - axborot- kutubxonachilik bilimlarining talabalar orasida targ'ib qilinishidir. Buning eng samarali yo'llaridan biri bo'lib axborot-kutubxonachilik darslarini yoki to'garak mashg'ulotlarini o'tkazishdir.

Axborot olish, u bilan ishlashning asosiy usullari haqida ma'lumot berish axborot-kutubxonachilik darslarining asosini tashkil etadi. Ushbu darslarda axborot bilan ishlash, kitob bilan tanishish, kitobni bevosita o'qish, eng muhimi, uni uqish, o'rganish malakalari singdirib borilishi lozim. Shuningdek, elektron kutubxonadan foydalanish, elektron kataloglar, ma'lumotlar bazalari haqida axborotga ega bo'lish, ulardan foydalanishni o'rganish kabilar kiradi. Axborot-kutubxonachilik darslarini qay tarzda tashkil etish mumkin, degan savolga ham javob berib o'tish lozim. Axborot-kutubxonachilik darslarini o'tkazish uchun sinfdan tashqari darslar va tarbiyaviy soatlardan alohida soatlar ajratib olish mumkin. Dars jadvali tuzishda asosan sinflar soni, nazariy va amaliy dars soatlari, o'qituvchi va kutubxonachi o'tkazadigan

soatlar, darsni o'tkazish joyini, ya'ni sinfda yoki axborot-kutubxona muassasasida o'tkazilishini aniqab olish zarur.

Ayni paytda bir necha tashkiliy masalalarni ham hal etish zarur. Bizningcha, hozirgi kun talablaridan kelib chiqqan holda talabalarda axborot olish madaniyatini tarbiyalashning o'ta muhimligini hisobga olib axborot-kutubxonachilik darslarini ommalashtirish, yo'lga qo'yish zarur. Avvalo, buning uchun masalaning tashkiliy jihatini hal etish, ya'ni axborot-kutubxonachilik darslarini yo'lga qo'yish yuzasidan oliy ta'limning buyrug'ini qabul qilish, shu buyruqqa asosan umumiy o'rta ta'lim muassasalari va axborot-kutubxona muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish, axborot-kutubxonachilik darslarini tashkil etish va o'tkazishning aniq shakllarini ishlab chiqish zarur.

Ta'lim muassasasida talabalarning axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasini hal qilish faqat ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador bo'lmasdan, balki jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, ma'naviy yuksalishi bilan bog'liq, davlatning strategik maqsadlariga xizmat qiluvchi faoliyatiga ham daxldordir. Oliy ta'limda axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasi borasida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- Talabalarning axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasi ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy, umummilliy muammo hisoblanadi. Bu ma'lum davr bilan chegaralanadigan hodisa bo'lmasdan, inson umr bo'yi o'rganadigan ma'naviy ehtiyojdir.

- Axborot olish madaniyatini tarbiyalaydigan asosiy joy - axborot-kutubxonalaridir. Axborot-kutubxona muassasalari o'z imkoniyatlari bilan nafaqat oliy ta'lim dasturlarining, Davlat ta'lim standartlarining bajarilishida, balki mustaqil ta'lim olish sari yo'llaydi.

- Axborot olish madaniyatini tarbiyalashda oliy ta'lim-oila-kutubxona hamkorligini yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.

- Kitobxonning oilaviy sharoiti, oilada axborot-kutubxona muassasasining bor-yo'qligi, bolaning yosh xususiyatlari va psixologik tayyorgarlik darajasini o'rganish;

Kitob o'qish bolaning ma'naviy boyishi uchun uni ma'naviy, aqliy, estetik o'sishga yo'llashi uchun eng muhim manbadir. Buning uchun dastlabki turtki oilada bolaga o'qib berilgan birinchi kitob bo'lsa, ikkinchisi, bola otasi va onasining o'qishini eshitib, badiiy obrazlar go'zalligini tasavvur qilishi, kitob bilan ana shu birinchi va ikkinchi uchrashuv bolaning keyingi o'smirlik davrida uning ma'naviy hayotining barcha sohalari: mehnat, o'yin, musiqa, bolalar ijodi bilan bog'liq bo'lib, uni hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi zarur. Oliy ta'limda talabalarni kitobga qiziqtirish maqsadida turli xil tanlov va tadbirlar, davra suhbatlari, zakovat intellectual o'yinlari tashkil qilish, "Farzandimga kitob sovg'a qilaman", "Bir farzandga uch kitob", oliy ta'lim bitiruvchilarining Oliy ta'lim kutubxonasiga sovg'asi kabi loyihalarning o'tkazilishi orqali Oliy ta'lim kutubxona fondi ko'payishi bilan birga, talabalarda kitobga bo'lgan qiziqishning oshishiga, ota-ona va farzand o'rtasida kitobga bo'lgan mehr paydo bo'lishiga erishiladi. Yuqoridagi fikrimiz orqali keltirib o'tganimizdek, farzand kitobga bo'lgan mehrni eng avvalo oilada oladi. Ota-onasining unga kichik paytida ertak aytib berishi yoki ertak kitoblarini o'qib berishi bolaning kitobga bo'lgan mehrining oshishiga sabab bo'lsa, "Farzandimga kitob sovg'a qilaman", "Do'stinga sovg'a" singari aksiyalarning o'tkazilishi kitobga bo'lgan mehrining yanada oshishiga sabab bo'ladi.

Oila kitobxonligi bu - oila a'zolarining aql-zakovati va yuksak ma'naviyatini shakllantiruvchi, inson ma'naviy dunyosini boyituvchi, kitobga mehr-muhabbat hamda uni

zaruriyatga aylantirishning ma'lum tizimidir. Bu tizim o'smirlarning aqliy, ma'naviy, axloqiy, estetik rivojlanishi tizimidan iborat bo'lib, o'zbek oilalarining kitobxonlikka doir boy an'anasi va hozirgi davrda to'plangan boy tajribasiga asoslanadi.

O'smirlar ma'naviyati rivojlanib boruvchi faol jarayon. Shu sababli ota-ona kitobdan foydalanishda quyidagi omillarga e'tibor berishlari lozim:

1. Bolalarda kitob o'qish ishtiyoqini shakllantirish. Bu jarayon murakkab bo'lib bugungi kunda axborot texnologiyalari, internet rivojlangan davrda yoshlarning kitobxonlik darajasi qoniqarli emas. Bu ijtimoliy muammodan chiqib ketishning yagona yo'li ota-onaning yordamga kelishidir. Oliy ta'limda o'qituvchi, uyda ota-ona bolada kitob o'qish ko'nikmasini hosil qilishi kerak.

2. Kitob tanlashda o'smirning ma'naviy darajasini hisobga olish lozim. Ota-onaning o'smirda kitob o'qish ko'nikmasini hosil qilishdagi ilk vazifasi kitob tanlashda yordam berishdir. Ularning saviyasiga mos bo'lgan adabiyotlarni keng targ'ib qilish o'smirlarni jamiyatning munosib fuqarosi, mustaqil davlatimizning yetuk, barkamol insonlari bo'lib etishishi uchun va ma'naviyatining yuksakligi bilan oilasiga va jamiyatga foyda keltirishga olib keladi. Buning uchun oilada kitobxonlik ruhi bo'lishi kerak.

3. Kitob o'qishni kuzatib, nazorat qilib borish. Bugun ota-onalar tarbiya jarayonining natijasi bo'lgan kitobxonlik bilan ko'proq qiziqishi kerak. Shu ma'noda o'smirlar kitobxonligini monitoring kilib borish maqsadga etishning samarali jihatlaridan biridir.

Monitoring, kitobxonlik yuzasidan test sinovlari, kitobxonlik kechalari, muloqot, davra suhbatlari, turli mavzularda munozaralar, ilmiy-amaliy anjumanlar, suhbatlar vositasida amalga oshirilishi mumkin.

Kitob tanlashda faqat o'zbek adabiyotigina emas, qardosh va chet el adabiyoti namunalaridan ham bolalarga tavsiya etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mark Tven, Xans Xristian Andersen, Janni Rodari, Jonatan Svift, Nodar Dumbadze, Chingiz Aytmatov, A.S.Pushkin asarlari, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy asarlari doimo bolalar uchun qiziqarli.

15. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISHNING AFZALLIGI. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (Vol. 1, pp. 474-478).
16. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA EKSPERT ISHLARIDAN FOYDALANISHNING MUHIM JIHATLARI. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (Vol. 1, pp. 483-487).
17. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK XULOSASIDA ASOS BOLUVCHI MALUMOTLAR-AUDITORLIK DALILLARI. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (Vol. 1, pp. 494-498).
18. Abdumannonovna, T. D. (2024). THE AUDITOR'S PROFESSIONAL ETHICS ARE THE BASIS OF THE AUDITOR'S ACTIVITY. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 225-229.
19. Abdumannonovna, T. D. (2024). AUDITOR ISHI SIFATINI NAZORAT QILISHDA AUDITORLIK STANDARTLARINING UYG'UNLIGI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 4(37), 265-270.
20. Abdumannonovna, T. D., & Habibullo G'anijon o'g, A. (2024). The Role of International Audit Organizations in the Transition to International Standards in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 2(2), 1-6.
21. Abdumannonovna, T. D. (2024). An Understanding of the Auditor's Professional Ethics and its Importance in the Auditor's Work. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 2(2), 7-11.
22. Abdumannonovna, T. D. (2024). LICENSING PROCEDURE OF AUDITING ACTIVITIES IN UZBEKISTAN AND CURRENT RESULTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 44, 35-40.

23. Abdumannonovna, T. D. (2024). STUDYING THE COMPANY'S ACTIVITIES AND ACCOUNTING DURING THE AUDITOR'S INSPECTION. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(2), 21-27.
24. Abdumannonovna, T. D. (2024). Purpose, Tasks, Necessity of Audit in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 2(2), 89-92.
25. Abdumannonovna, T. D. (2024). Methods of Obtaining Audit Evidence. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 221-226.
26. Abdumannonovna, T. D. (2024). EFFECTIVE RESULTS OF APPLYING ANALYTICAL PROCEDURES IN AUDITING.
27. Abdumannonovna, T. D. (2024). EXTERNAL AUDITORS AND THEIR LIABILITY TO THIRD PARTIES. *Gospodarka i Innowacje.*, 44, 71-75.
28. Abdumannonovna, T. D. (2024). Auditorlik Tekshiruvida Firibgarlikni Aniqlashda Professionallik Qobiliyatini Qo'llash. *Miasto Przyszłości*, 45, 138-144.
29. Abdumannonovna, T. D. (2024). NEW UZBEKISTAN AND THE MUTUAL INTERESTS OF THE "BIG FOUR" INTERNATIONAL AUDITING COMPANIES. *Miasto Przyszłości*, 45, 600-605.
30. Abdumannonovna, T. D. (2024). Audit Risk, its Elements and Their Assessment. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 847-854.
31. Abdumannonovna, T. D. (2024). AUDIT-AS A FACTOR OF INCREASING BUSINESS EFFICIENCY IN ENTERPRISES. *Miasto Przyszłości*, 45, 594-599.
32. Abdumannonovna, T. D. (2024). The Document Presented by the Auditor is "Audit Report and its Contents". *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 991-997.
33. Abdumannonovna, T. D. (2024). Relationship With Auditing Standards in Controlling the Quality of Auditor's Work. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 998-1003.
34. Feruza, O. (2023). How to Create Effective Marketing Strategies for Your Business. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 2(3), 12-17.
35. Yahyoyevna, O. F., & Alexandrovich, A. A. (2024). THE ROLE OF FINANCIAL MANAGEMENT IN IMPROVING THE FINANCIAL CONDITION OF ENTERPRISES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 44-47.
36. Odilovna, U. Z., & Alexandrovich, A. A. (2024). ECONOMIC AND LEGISLATIVE CORNERSTONES OF INVESTMENT POLICY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 87-90.
37. Yahyoyevna, O. F. (2024, February). RESPUBLIKAMIZDA AHOLI BANDLIGI MENEJMENTI MASALALARINI ISTIQBOLLARI. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 2, No. 2, pp. 25-31).
38. Yahyoyevna, O. F., & Tatulovna, Z. M. (2024). ISSUES OF PROVIDING ECONOMIC STABILITY UNDER THE INFLUENCE OF FACTORS OF SAVING. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 374-379.

**QAYTA QURISH YILLARIDA O‘ZBEKISTON SANOATI:
YO‘L QO‘YILGAN XATO VA KAMCHILIKLAR
(MATBUOT MATERIALLARI ASOSIDA)**

Tangrikulov Jamshid Erkinovich,

Termiz davlat universiteti Akademik litseyi ijrochi direktori

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

jamshidtangrikulov066@gmail.com

Sovet davrida O‘zbekistonda bir qator yengil, oziq-ovqat va og‘ir sanoat tarmoqlari ishga tushirildi. Bu boradagi ishlar, ayniqsa urushdan keyingi yillarda jadal sur‘atlarda kengaytirib borildi. Jumladan, XX asrning 80-yillari o‘rtalariga kelib O‘zbekistonda bir yarim mingdan ortiq yirik ishlab chiqarish, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari, kombinat va korxonalar bor edi. Respublika sanoati SSSR sanoatining tarkibiy qismi sifatida shakllantirilib ular asosan markaz manfaatlar uchun safarbar etilar hamda shu maqsadlarda tarmoqlar rivojlantirib borilar edi. O‘zbekistonning ishlab chiqarish usuli va uslubi mintaqaviy xususiyatga ega bo‘lish bilan bir qatorda xalq xo‘jaligi tarkibini markaziy boshqaruvga to‘la bo‘ysundirilganligi bilan ham xarakterlanar edi.

O‘zbekiston SSRning sanoati tuzilishiga ta’sir etgan paxtachilik respublikaning mineral o‘g‘it yetishtirish, paxta tozalash, to‘qimachilik sanoati va sanoat uchun mashina hamda uskunalar yetkazuvchi korxonalar, qishloq xo‘jaligi mashinasozligini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatdi. Markazning yildan-yilga xom ashyoga bo‘lgan ehtiyojining ortib borishi, respublika hududidagi yer-osti va yer-usti boyliklarini qazib olish va qayta ishlash uchun katta miqdorda elektr quvvati kerak bo‘lganligi natijasida energetika tarmog‘ining rivojlanishiga olib keldi. Mintaqaning ko‘plab turdagi foydali qazilma boyliklari: oltin, mis, qo‘rg‘oshin, rux, volfram, uran, tabiiy gaz, ko‘mir konlari ochilishi natijasida anu shu konlar negizida zavodlar, neft va gaz sanoati korxonlari qurildi.

Jumladan, 1960-1970 yillarda respublikada yirik oltin qazib chiqarish sanoati yaratildi, oltin chiqarish majmualari fabrikalari, oltin saralash, mis rudasini qayta ishlash kombinatlari foydalanishga topshirildi. 50-60 yillarda O‘zbekistonda kimyo sanoatining yangi tarmog‘i – gidroliz sanoati yaratildi hamda Andijon gidroliz zavodi, Farg‘onadagi furun birikmalari zavodi, Yangiyo‘l biokimyo zavodi barpo etildi. 1980-yil o‘rtalariga kelib esa respublikada plastmassa, sun‘iy tolalar, o‘simliklarni himoya qilish vositalarini ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari foliyat olib borgan. O‘zbekistonda kimyo sanoatining rivojlantirilishi ijobiy natijalar bilan bir qatorda mintaqa uchun salbiy oqibatlarini ham keltirib chiqargan. Chunki kimyo sanoatining ko‘pgina obyektlari aholi zich yashaydigan hududlarda qurilgan va bu ekologik vaziyatga ham, aholi salomatligiga ham jiddiy tarzda salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, O‘zbekistondagi mavjud 993 ta kimyoviy moddalar saqlanuvchi omborxonalaridan atiga 336 tasi⁸ (33,8 foiz) sanitariya talablariga javob bergan, xolos. Sovetlar davrining so‘ngi o‘n yillarida respublikada katta – katta kimyo sanoati korxonalari qurilishiga katta mablag‘lar sarflanib, afzalliklar berib kelindi, buning oqibatida respublikadagi ekologiya vaziyat juda yomonlashdi. “Bu korxonalar, - deb ta’kidladi, I.A.Karimov o‘z ma’ruzasida, - necha o‘nlab ajdodlarimizning mehnati bilan obod qilingan, gullab yashnab turgan vohalarda joylashtirilganligi kishini, ayniqsa g‘azablantiradi. Bu o‘rinda gap yangi Qo‘qon ximiya zavodi, Chirchiq, Farg‘ona, Samarqand va Navoiy ximiya

⁸ Раҳматов Н. Экология: далил ва рақамлар, // Фан ва турмуш. 1990. №7, - Б. 14.

korxonalari va boshqa ko'pgina korxonalar haqida borayapti. Buning ustiga mana shunday azim korxonalar ham aslida qayta ishlangan mahsulotlarini – nitron, atsetat, kaprolaktamni ishlab chiqarmoqdalarki, ular ham O'zbekistondan tashqariga yuborishga mo'ljallangandir"⁹.

Xalq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashda mashinazozlik va metalga ishlov berish sanoati yo'lga qo'yildi. Lekin, shuni ta'kidlash joizki, respublikadagi mashinazozlik tom ma'nodagi mashinasozlik emas edi. Chunki, mashinasozlik uchun zarur bo'lgan aksariyat ehtiyot qismlar boshqa hududlardan olib kelinar va respublikada yig'ilar edi. Masalan, ehtiyot qismlari olib kelinib yig'iladigan paxtachilikka mo'ljallangan traktorlar ishlab chiqaradigan Toshkent traktor zavodi, paxta terish mashinalari ishlab chiqariladigan "Toshqishloqmash" zavodi, qishloq xo'jalik qurollari va asboblari ishlab chiqaradigan "O'zbekqishloqmash", "Chirchiqqishloqmash" va Toshkent ekskavator zavodlari misolida ko'rish mumkin. Umuman 1980-yil o'rtalariga kelib O'zbekiston sanoati 100 dan ziyod tarmoqdan iborat bo'lib ularning orasida elektr energetika, ximiya va neft ximiyasi, metallurgiya, yoqilg'i sanoati va mashinasozlikning turli xillari bor edi¹⁰. Masalan, o'n birinchi besh yillikda 200 tadan ziyod yirik ishlab chiqarish obyekti ishga tushirilgan¹¹. Ammo bu borada ishlab chiqaruvchi kuchlar va, avvalo sanoat obyektlari asosan stixiyali ravishda, aniqrog'i esa har xil o'zboshimchalik, buyruqbozlik qarorlari asosida, ko'pincha ilm-fan, loyiha muassasalari obro'li mutaxassilarning tavsiyalari mutlaqo e'tiborga olinmay joylashtirildi¹². Masalan, Farg'ona vodiysi sanoat salohiyati jihatidan O'zbekiston SSRda yetakchi o'rinlarda turgan. XX asrning 80-yillarida ushbu mintaqada 300 dan ortiq¹³ korxonalar ishlab turgan. Ahamiyatli tomoni shunda ediki, O'zbekiston o'z hududidan olinadigan boyliklarning amalda egasi emas va uning iqtisodiy imkoniyatlaridan mustaqil foydalana olmasdi.

Muhim tarmoqlari va yirik korxonalarining aksariyat qismi bevosita ittifoq vazirliklariga bo'ysungan. Jumladan, O'zbekiston hududida qurilgan va ma'lum darajada ahamiyatliroq bo'lgan sanoat korxonalarining 30 foizi Ittifoq tasarrufida, 60 foizi Ittifoq – respublika tasarrufida bo'lib, ularning barchasi markazga bo'ysungan. Faqat iqtisodiyotda hal qiluvchi o'rin tutmagan 10 foizgina¹⁴ sanoat korxonasi bevosita O'zbekistonga bo'ysungan. Bundan ko'rish mumkinki, sovet davrida hukm surgan "rejali iqtisod" hamda "adolatli" mehnat taqsimoti ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish siyosatining boshidanoq mustamlakachilik munosabatlar shaklida olib borilganidan dalolat beradi. Bunday yondashuv oqibatida O'zbekiston iqtisodiyoti haddan tashqari bir tomonlama rivojlandi, o'lkaning tabiiy boyliklari talandi. O'zbekiston sanoatidagi bunday bir yoqlamalik uzoq yillar davomida saqlanib keldi, unda yetarli darajada jiddiy o'zgarishlar yasalmadi. Shuningdek, qaror topgan sovet iqtisodiy modeli tizimida innovatsion jarayonlarning sust kechishi mamlakatda mavjud sanoat korxonalarining aksariyatida ishlab chiqarish fondlarining salmoqli qismini eskirishi va ulardan

⁹ Совет Ўзбекистони, 1990 йил 5 июнь.

¹⁰ Шистер Г. Ўзбекистон кўп миллатли ишчилар синфнинг шаклланиши ва ривожланиши // Ўзбекистон коммунисти. 1985. №10, -Б.37.

¹¹ СССРни иқтисой ва социал ривожлатиришнинг 1986-1990 йилларга ҳамда 2000 йилгача бўлган даврга бўлган мўлжалланган асосий йўналишлари лойиҳаси тўғрисида. Ўзбекистон ССР Министрлар Советининг Раиси Ф.Х. Қодиров доклати // Ўзбекистон коммунисти. 1986. №2,- Б.49.

¹² Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитети биринчи секретари И.А. Каримовнинг 1989 йил 19 августда Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитети XVI пленумида сўзлаган нутқи // Ўзбекистон коммунисти. 1989. №10, - Б.6.

¹³ Коммунист. 1986 йил 17 декабрь.

¹⁴ Мирзо Кенжабек. Ҳақиқат тежалмаса эди // Ҳаёт ва иқтисод. 1990, №1. –Б.11-12

yillar mobaynida foydalanib kelinganligi oqibatida ishlab chiqarishning miqdor va sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Sanoat soahasida olib borilgan ishlarga qaramasdan XX asrning 80-yillariga kelib ishlab chiqarish tarmoqlarida o'z yechimini kutayotgan bir qator o'tkir muammolar yig'ilib qolgan edi. Chunki yillar mobaynida olib borilgan sovet iqtisodiy modeli amalda o'zini yetarli darajada oqlamadi. Sovet davrida sun'iy tarzda yaratilgan hamda majburan joriy etilgan markazlashgan "rejali iqtisodiyot" tartib-qoidalari va mexanizmlari rivojining aksariyat bosqichlarida samarali faoliyat olib borishga layoqati yo'qligini isbotladi.

Sovet hukumatida esa dastlabki birinchi o'n yillar davomida shakllangan boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik usuli ijtimoiy – iqtisodiy sohadagi ahvolni ma'lum doirada saqlab turib, "sotsialistik jamiyat" imkoniyatlariga haddan tashqari urg'u berildi, erkin bozor munosabatlaridan voz kechib sotsialistik iqtisodiyotning ekstensiv rivojlanish yo'li tanlandi. Bu esa ko'p hollarda ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar miqdorining olinadigan daromad miqdoridan ortib ketishiga olib kelgan. Sovet iqtisodiy modelida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish darajasini oshirishda aksariyat sanoat quvvatini oshirish intensiv usullar bilan emas, balki ekstensiv usullar (yangi sanoat obyektlarini qurish, ishlab turgan sanoat obyektlarini qayta qurish va kengaytirish) asosida amalga oshirib borildi. Ko'p holatlarda mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish asosan (97 foiz) ekstensiv omillar hisobiga, uning atigi 3 foizigina¹⁵ mehnat unumdorligini oshirish hisobiga amalga oshirilgan. Iqtisodiyotdagi bu kabi yondashuvlar ishlab chiqarishda sarf-xarajatlar miqdori keskin ortib borishiga olib keldi shuningdek, iqtisodiy samaradorlikni yetarli darajada ta'minlay olinmasligini ko'rsatdi. Oqilona ishlab chiqarishni tashkil etish borasida qancha harakat qilinmasin, tekischilik va teng taqsimlash prinsiplari iskanjasida qolgan iqtisodiyot o'zini o'zi rivojlantirish imkoniyatlaridan mahrum bo'ldi. Bunday omillar natijasida 1980 yillarning o'rtalaridan mamlakat iqtisodiyoti chuqur salbiy o'zgarishlarga yuz tutdi. Shuning uchun ham markaz tomonidan sarf – xarajati cheksiz, samarasiz sovet iqtisodini tanazzuldan saqlab qolish uchun jiddiy o'zgarishlar qilish zarurligi kun tartibiga qo'yila boshlandi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mamlakat hayotining barcha jabhalarini isloh qilishga, xususan, sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga harakat qilindi. Xususan, K.U.Chernenko vafoti (1985-yil 10-mart)dan so'ng KPSS MK Bosh sekretari lavozimiga saylangan M.S. Gorbachyov oradan 40 kun o'tgach, 1985-yil 23-aprelda Moskvada bo'lib o'tgan KPSS MK aprel plenumidagi ma'ruzasida o'zining g'oyaviy prinsiplari va yangi yo'lini ilk marta keng jamoatchilikka e'lon qildi¹⁶. M.S.Gorbachyov fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish masalalari yuzasidan 1985-yil 11-iyunda KPSS MKda o'tkazilgan kengashda qilgan "Partiya iqtisodiy siyosatining tub masalasi" nomli ma'ruzasida birinchi marta qayta qurish siyosatining ayrim jihatlarini to'g'ri ko'rsatishga harakat qilgan va unda ishlab chiqarishdagi mavjud holatga to'xtalib, ...Hozirda ishlab chiqarish fondlarining anchagina qismi eskirib qoldi, shuning oqibatida kapital remont haddan tashqari qappayib ketdi. Fondlarning samaradorligi kamaymoqda. Ishlab chiqarishda mexanizatsiyani joriy qilish sust bormoqda. Qo'l mehnatining ulushi sekinlik bilan kamaymoqda. Korxonalarini rekonstruksiya qilishga sarflanayotgan kapital mablag' yangi korxonalar qurishdan ko'ra, tahminan ikki hissa ko'p samara berishi xususida hozircha hech kim baxs yuritmaydi. Biroq, afsuski, eski ekstensiv

¹⁵ Областни социал-иқтисодий ривожлантирайлик // Коммунист. 1986 йил 18 декабрь.

¹⁶ "Совет Ўзбекистони", 1985 йил 24 апрель.

xo'jalik yuritish usullari yashab kelmoqda. Masalan, 15 yil mobaynida qora metallurgiyaga 50 mlrd. so'm kapital mablag' ajratildi. Bu mablag'larini ko'p qismi yangi, buning ustiga nokompleks qurilishga sarflandi, holbuki korxonani texnika bilan qayta qurollantirishga e'tibor berilmadi. Shuning uchun ushbu tarmoq na o'ninchi, na o'n birinchi besh yillikda begilangan rejalarni bajara olmadi..."¹⁷. Shundan kelib chiqqan holda partiya keyingi islohotlar mobaynida qator muhim vazifalar belgilandi.

Jumladan, SSSRni iqtisodiy va sotsial rivojlantirishning 1986-1990 yillarga hamda 2000-yilgacha mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari loyihasida ham barcha sohalar qatori sanoat tarmoqlarida jiddiy o'zgarishlar, xo'jalik yuritishning yangi metodlari mehnat jamoalarini va boshqaruv organlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishning intensiv usullaridan foydalanishga qat'iyat bilan o'tkazish, fan – texnika taraqqiyotini jadallashtirish, xarajatlarni kamaytirish¹⁸ kabi qator ustuvor vazifalar belgilandi. Jumladan, o'n ikkinchi besh yillikda sanoat mahsulotlarini 24-27 foizga¹⁹ oshirish belgilangan. Ammo keyingi islohotlar jarayonida esa bu borada belgilangan maqsad va vazifalar real hayotda o'zining iqtisodiy samaradorligini ko'rsata olmadi. Chunki, o'tkazilgan islohotlarning nihoyatda cheklanganligi, bu borada yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda uning qisqa muddatlarga mo'ljallanganligi va ikkinchi darajali masalalarni hal qilishga qaratilganligi ishlab chiqarishni tubdan yaxshilash, uning ko'rsatkichlarini tinimsiz o'stirish uchun barqaror asos yaratilmasligiga olib keldi. Qolaversa, bu yillarda sotsialistik iqtisodiy tizim, reja ortidan quvish erishilgan ko'rsatkichlarni bo'rttirib ko'rsatish "hastaligini" keltirib chiqardi. "Qayta qurish" siyosati ham amalda ko'zlangan natijalarni bermadi.

Qayta qurish siyosati go'yoki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish va ijobiy yutuqlarga olib boruvchi yo'l deb qaraladi. Biroq, mamlakatdagi real ahvolning murakkabligini chuqur anglab yetmaganliklari ularning keyingi (qayta qurish) siyosatlarida ham o'z aksini topgandi. Jumladan, iqtisodiyotni rivojlantirish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda va umuman ko'plab sohalarda Markazning rahbarlik roli va markazlashtirish siyosatidan amalda voz kechilmadi. Bu keyingi yillarda ham sotsializm "afzallik"laridan foydalangan holda jamiyatni rivojlantirishga umid bog'lash edi. Ammo bularning barchasi real hayotda o'z samarasini bermadi. Chunki, qaror topgan mavjud tizimdan voz kechmagan holda o'tkazilgan qayta qurish siyosati bilan ham ko'zlangan natijalarga erishib bo'lmasdi va amalda ham shunday bo'ldi. Aksincha, qayta qurish yillarida mablag'larni samarasiz yo'naltirilishi sarf-xarajatlar miqdorining keskin ko'payib ketishi davlat budjetiga katta zarar keltirdi. Bunday holatlar, albatta respublika iqtisodiyoti hamda sanoat tarmoqlari faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatib kelgan.

Bu yillarda respublikadagi ko'plab sanoat korxonalarini faoliyati tahlil qilinganda ko'plab hal etilishi lozim bo'lgan muhim masalalar mavjud edi. Sanoat korxonalarini faoliyatidagi asosiy muammolar sanoat korxonalarining moddiy-texnik bazasi, ishlab chiqarish texnika va texnologiyalari yetarli darajada rivojlantirib borilmaganligi ularning zamon talablari darajasidan ortda qolganligi, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish darajasining sust olib borilganligi; ko'plab sanoat korxonalarining xom ashyo bazasi respublikalararo bog'lab qo'yilishi oqibatida 1980-yilning ikkinchi yarmidan boshlab ko'plab ittifoqdosh respublikalar

¹⁷ "Совет Ўзбекистони", 1985 йил 12 июнь.

¹⁸ Партиянинг иқтисодий стратегияси // Совет Ўзбекистони. 1985 йил 12 ноябр.

¹⁹ XI беш йилликнинг асосий якунлари ва ҳамда республика социал иқтисодий тараққиётини жадаллаштириш вазифалари // Ўзбекистон коммунисти. 1986. №2,- Б. 14.

o'z majburiyatlarini (masalan, xom ashyo yetkazib berish bo'yicha) bajarmasliklari kabi omillar korxonalarining ishlab chiqarish sur'atlari va mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatganida edi.

O'zbekiston Kompartiyasi MK birinchi sekretari I.B.Usmonxo'jayev respublika partiya-xo'jalik faollarining 1985-yil 5-iyuldagi yig'ilishida respublikada qurilgan yengil sanoat korxonalarining filiallari lozimicha samara keltirmayotganligi, 1982-yilda ishga tushirilgan Beruniy, To'rtko'l, Xo'jayli yigiruv-to'quv fabrikalari 30-40 foiz quvvat bilan ishlayotganligini hamda Beshariq, Chinabod va Yakkabog'dagi kombinatlarning filiallari yana xam kam ish berayotganligini²⁰ takidlaydi.

Korxonalarini rekonstruksiya qilish ishlari qoniqarsiz ahvolda olib borilishi qolaversa ko'pgina tarmoqlarda shu maqsad uchun ajratilgan kapital mablag'larning atigi chorak qismidan foydalanish hollari oqibatida asosiy fondlarining qariyb yarmi ma'naviy va jismoniy jihatdan eskirib qolishiga olib kelgan. Respublikadagi mavjud sanoat korxonalarining ko'pchiligida texnologik abob uskunalar allaqachon eskirgan, ishdan chiqqan va yangilanishga muxtoj edi. Shu bilan birga, yangi texnologik asbob-uskunalar yetarli darajada tashkil etilmaganligidan ishalarning 50 foizi qo'lda bajarilar edi²¹. Toshkent to'qimachilik kombinatida, SSSR Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish ministriligining bir qancha korxonlarida 40-yillarda ishlab chiqarilgan, yana bir qator korxonlarda 50-yillarda ishlab chiqarilgan asbob-uskunalar ishlab turgan.

Umuman, ko'plab mahalliy sanoat korxonlarida chorak asrdan buyon ishlatib kelinayotgan mashina va stanoklar yillar mobaynida yangilanmasdan foydalanib kelinganligi ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Masalan, birgina Andijon poyabzal ishlab chiqarish birlashmasida yangi texnik vositalar, dastgohlar bilan ta'minlash ishlari qoniqarsiz ahvolda bo'lib, deyarli 30 yil davomida foydalanib kelinayotgan dastgohlarni borligi va ularni almashtirish bo'yicha yuborilgan murojaatlar yillar mobaynida qondirilmay kelingan²². Yoki ayrim korxonalarda yaqin yangi stanoklar va agregatlar o'rnatilgan bo'lsa ham ishlarni mexanizatsiyalash va avtomatlash darajasi past hamda fondlar samaradorligi deyarli ikki barobar kamayish hollari mavjud bo'lgan²³. Viloyatdagi mashinasozlik va qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida ham mavjud dastgox va uskunalarining 70 foizga yaqini zamon talablaridan orqada qolgan bo'lib²⁴, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon bozorida raqobatlasha olmaganligining asosiy sababi ham texnika taraqqiyotining zaifligida edi. Iqtisodiy jihatdan olib qaraganda ishlab chiqarishda ijobiy natijalarga erishish va sifatli, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun har 4 – 5 yilda dastgohlarning zamonaviy turidan foydalanish talab etiladi. Biroq, 1980-yillar o'rtalarida O'zbekistondagi bir yarim ming sanoat korxonasidan 900 dan ortig'i texnik jihatdan qayta qurish va rekonstruksiya qilishni talab qilardi²⁵.

Ahamiyatli tomoni ko'plab ishlab chiqarish korxonalarining moddiy-texnik bazasini yangilash borasidagi ishlar qoniqarsiz ahvolda olib borilgan bir sharoitda, ayrim ishlab chiqarish korxonalarida katta mablag'lar evaziga sotib olingan dastgoh va uskunalar o'rnatilmay, bazilarida esa yangi o'rnatilgan dastgohlardan foydalanmaslik holatlari mavjud bo'lgan. Bunga

²⁰ Шистер Г. Ўзбекистон кўп миллатли ишчилар синфининг шаклланиши ва ривожланиши // Ўзбекистон коммунисти. 1985. №10, -Б. 40.

²¹ Правда Востока. 1985 йил 6 июль.

²² Сифат ва имконият. Коммунист. 1987 йил 16 апрель.

²³ Замон талаблари даражасига. Совет Ўзбекистони. 1985 йил 1 декабр

²⁴ Техника тараққиётини жадаллаштирайлик. Коммунист. 1989 йил 6 апрел.

²⁵ Правда Востока. 1986 йил 4 июля.

birinchidan, kadrlarning malakasizligi, ikkinchidan, dastgohlarni ishlatish uchun maxsus moslamalar tayyorlanmasligi kabi omillar sabab bo'lgan.

Ko'pgina zavod fabrikalarda odamlar mavjud uskunalar eskirib qolganligidan haqqoniy ravishda shikoyat qilganliklariga qaramay, joylarda yangi stanoklar va mashinalarni o'rnatishga shoshilmaslik holatlari ham mavjud edi. Masalan, 1985-yil xolatiga Farg'ona viloyat omborxonalarida 70 mln. so'mlikdan ortiq har xil uskunalar zang bosib yotish holatlari mavjud edi²⁶.

Samarqand viloyatidagi zavod va fabrikalarda ham fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, korxonalarni texnika bilan qayta jihozlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish borasidagi mavjud imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanilmaslik hollari mavjud bo'lib, viloyatdagi mavjud ishlab chiqarish fondlari sekinlik bilan yangilangan. Jumladan, viloyatidagi zavod va fabrikalarda 20 mln. so'mlikdan ko'proq – 3 mingtadan ziyod o'rnatilmagan mashina uskuna to'planib qolgan. Samarqand trikotaj va mebel fabrikalarida, "Серп и молот" konserva zavodi, boshqa korxonalarda ko'pgina texnika uzoq vaqtdan buyon bekor turib qolgan²⁷. Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasining pastligi, yangi, yanada mukammalroq texnologiyalarning yo'qligi, tabiiyki iqtisodiy samaradorlikni ta'minlay olinmasligiga olib kelgan.

Korxonalarining uchdan bir qismi ishlab chiqarishni o'stirishning butun hajmiga sanoatda normativlardan tashqari odamlar ishlatish hisobiga erishish, belgilangan rejalarni bir amallab bajarish materialni ko'proq talab qiladigan, qimmat turadigan lekin xalq xo'jaligiga har doim ham zarur bo'lmagan mahsulotlarni ishlab chiqarishga harakat qilinishi xom-ashyo, materiallar va elektr energiyasining ko'plab ortiqcha sarflanishiga sabab bo'lgan. Bunday omillar natijasida sanoatda har bir ishlovchi hisobiga mahsulot tayyorlash 1980-1985 yillar ichida topshiriqda ko'zda tutilgan 29 foiz o'rniga atigi 8 foizga o'sgan, xolos. Qolaversa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga ko'p mehnat va material sarflash bartaraf etilmadi. 1985-yilda jarimalar to'lash, mahsulotning narxini pasaytirish, uning buzilib qolishiga yo'l qo'yish orqali 700 mln. zarar ko'rilgan²⁸. Sanoat sohasida yo'l qo'yilgan kachiliklar oqibatida iqtisodiyotga saflangan mablag' bilan ishlab chiqarish o'sishi sur'atlari o'rtasida jiddiy nomutanosiblik vujudga kelgan. Masalan, 70-yillardan boshlab ishlab chiqarishni o'stirish sur'atlari keskin pasaya boshlagan. Agar to'qqizinchi besh yillikda yalpi ijtimoiy mahsulotlarning o'rta yillik o'sishi 7,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, o'ninchi besh yillikda u 5,7 foizga, o'n birinchi besh yillikda esa 3,6 foizga tushib qolgan. Shu davr ichida hosil qilingan milliy daromad o'sishining sur'at ko'rsatkichlari tegishli ravishda 6,8 foiz, 5,7 foiz va 3,3 foiz bo'lgan²⁹.

Yengil sanoat sohasida o'n birinchi besh yillikda o'ninchi besh yillikka nisbatan 2,5 barovar kapital mablag' sarflangan bo'lib, 84 ta ishlab chiqarish ob'ekti, shu jumladan, 54 ta filial ishga tushirilgan edi. Biroq, Buxoro, Toshkent to'qimachilik, Xiva gilam kombinatlarida barpo etilgan quvvatlardan 60-70 foiz foydanilgan, xolos. Foydalanishga topshirilgan filiallarning qariyb yarmi rejani bajara olmagan. Mashinasozlik korxonalarida ham asbob-

²⁶ Ўзингдан сўраб кўр. Совет Ўзбекистони. 1985 йил 4 декабр.

²⁷ Юсак талабчанглик позицияларидан туриб. Совет Ўзбекистони 1986 йил 12 январ.

²⁸ Фан-техника тараққиёти – ижтимоий ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишнинг туб масаласи XI беш йилликнинг асосий якунлари ва ҳамда республика социал иқтисодий тараққиётини жадаллаштириш вазибалари // Ўзбекистон коммунисти. 1986. №2,- Б.15.

²⁹ Осминин В. Ўзбекистон ССР Экономикасини қайта қуриш асосида ривожлантиришнинг якун ҳамда проблемалари // Ўзбекистон коммунисти. 1988. №11, -Б.19.

uskunalar ish bilan to'la-to'kis ta'minlanmaganligi natijasida bu sohadagi smenalar koeffisenti ko'pdan buyon 1,36 dan oshmagan. Qolaversa, raqamli programma asosida boshqariladigan stanoklar va avtomat liniyalaridan foydalanish darajasi ham pastligicha qolgan³⁰.

Xulosa qilib aytganda qayta qurish yillarida sanoat sohasida amalga oshirilgan o'zgarishlar amalda o'zini oqlamadi, natijada bir qator masalalar yig'ilib qolgan edi. Bu faqatgina sanoat korxonolari qurish bilan bog'liq emas balki sanoat faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarda ham ko'zga tashlanayotgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Erkinovich, T. J. (2020). The role of the press in the process of historical development of Uzbekistan: Classification of popular magazines and newspapers. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1982-1989.

2. Jamshid Erkinovich Tangrikulov. (2022). PRESS IN UZBEKISTAN: CLASSIFICATION OF POPULAR MAGAZINES AND NEWSPAPERS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 1451-1455.

3. Tangrikulov, J. (2023). TEATR VA KINO SAN'ATIDA O'ZBEKISTONNING QAYTA QURISH YILLARIDAGI DAVR MUAMMOLARINING AKS ETISHI . *Interpretation and Researches*, 2(1).

4. Tangrikulov, J. (2023). TEATR VA KINO SAN'ATIDA O'ZBEKISTONNING QAYTA QURISH YILLARIDAGI DAVR MUAMMOLARINING AKS ETISHI . *Interpretation and Researches*, 2(1).

5. Xaydarova Mahliyo Khabibullaevna. (2024). DEVELOPMENT AND GROWTH OF EDUCATION. *International Conference on Multidisciplinary Science*, 2(3), 83-88.

6. Хайдарова, М. (2023). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ ВОСПИТАНИЕ. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(10).

7. Xaydarova, M. (2019). MODEL AND PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS CONDUCIVE TO THE FORMATION OF MANAGERIAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(11), 90-93.

8. XABIBULLAYEVNA, X. M. (2022, June). THE NEED TO TEACH THE SUBJECT OF EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL. In *Conference Zone* (pp. 97-98).

³⁰1981-1985 йилларда республикани иқтисодий ва социал ривожлантиришнинг асосий яқунлари // Ўзбекистон коммунисти. 1986. №2 - Б.51.

O‘ZBEKISTONDA 80-YILLARNING IKKINCHI YARMIDA SANOAT SOHASIDAGI ISLOHOTLAR

(matbuot materiallari tahlillari asosida)

Tangrikulov Jamshid Erkinovich,

Termiz davlat universiteti Akademik litseyi ijrochi direktori

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

jamshidtangrikulov066@gmail.com

80-yillarning ikkinchi yarmidan korxonalar faoliyatida ham islohotlar jarayoni ko‘zga tashlana boshladi. Masalan, 1987-yilning boshiga kelib O‘zbekistondagi 278 ta korxonalar ishni oshirilgan smenalarga o‘tkazilishi natijasida 12 mingga yaqin kishini qo‘shimcha band qilish imkonini berdi. Natijada 1986-1987 yillar mobaynida fondlardan olinadigan samara o‘rta hisobda 16 foizga o‘tdi, qo‘shimcha ravishda 30 mln. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi, ijtimoiy ishlab chiqarishga 20 mingdan ortiq kishi jalb qilindi³¹. Xom-ashyo manbalari, resurslar, energiyani tejash sohasidagi ishlar nisbatan faollashtirildi. Biroq bu boradagi ishlar yetarli darajada olib borilmadi. Bu boradagi asosiy muammolardan biri respublika korxonalar va tashkilotlarini 2-3 smenali rejimga o‘tkazish ko‘lamlari va sur‘atlari yetarli daraja emasdi. Chunki, 2-3 smenalardagi ishchilarning transport bilan ta‘minlanmaganligi, xizmat ko‘rsatuvchi muassasalarning qulay ish grafiklarining yo‘qligi bu o‘rinda to‘g‘anoq bo‘ladigan asosiy sabablardan biri edi³². 1986-1987 yillarda sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga ko‘paydi. Yog‘ilgi-energetika, metallurgiya, ximiya-o‘rmon komplekslarida tovar mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha o‘n ikkinchi besh yillikning 2-yili topshiriqlari bajarildi. Rekonstruksiya hamda texnika bilan qayta qurollantirishga yo‘naltirilgan mablag‘larining salmog‘i 34 foizdan 38 foizga o‘tdi. Bu esa asosiy ishlab chiqarish fondlarini almashtirish jarayonini tezlashtirish imkonini berdi. Ularni yangilanish koeffitsienti 7,1 dan 7,8 foizga chiqarib tashlash koeffitsienti esa 1,2 foizdan 1,6 foizga yetkazilgan³³. 1988 yil yanvar-avgustda O‘zbekistondagi 1267 ta sanoat korxonasidan 320 tasi (25,3 foiz) to‘la xo‘jalik hisobi va o‘zini o‘zi ta‘minlash sharoitida ishlagan.

Respublikada ishlab chiqarilgan mahsulotlarining 55,7 foiziga to‘g‘ri keluvchi ushbu korxonalarda ishlab chiqarish hajmi 1987-yilning tegishli davriga qiyoslaganda 4,7 foizga ko‘paygan. Xo‘jalik hisobiga o‘tkazilmagan korxonalarda tovar mahsulot hajmi 1987-yilning yanvar-avgustiga nisbatan olganda 0,6 foizga pasaygan³⁴. Albatta ishlab chiqarishga muhim ahamiyatga ega bo‘lgan moddiy-texnik bazani zamon talablariga hamohang tarzda rivojlantirib borish ijobiy natijalar qayd etilishini taminlaydi buni bir qator korxonalar misolida ham ko‘rish mumkin. Masalan, Qo‘qon yog‘-moy kombinatida o‘rnatilgan yangi mashina-uskunalar samarasi natijasida rejadan tashqari 15 tonna moy va 45 tonna kunjara tayyorlash imkonini bergan³⁵. Buxoro mebel fabrikasi texnologik yangilanishlardan so‘ng mehnat unumdorligi ortishi hamda yangi namunadagi zamonaviy mebel mahsulotlari ishlab chiqarishga o‘tish

³¹ Правда Востока. 1987 йил 24 апрел.

³²Убайдуллаева Р. Ўзбекистоннинг меҳнат потенциалидан яхшироқ фойдаланайлик // Ўзбекистон коммунисти. 1987. №10, -Б. 26.

³³ Осминин В. Ўзбекистон ССР Экономикасини қайта қуриш асосида ривожлантиришнинг яқун ҳамда проблемалари // Ўзбекистон коммунисти. 1988. №11, Б.21.

³⁴ Осминин В. Ўзбекистон ССР Экономикасини қайта қуриш асосида ривожлантиришнинг яқун ҳамда проблемалари // Ўзбекистон коммунисти. 1988. №11, -Б.23.

³⁵ Янги технология шарофати. Совет Ўзбекистони. 1987 йил 4 январ.

imkoniyatini bergan³⁶. Qo‘qon poyabzal fabrikasi besh yillik yakunlovchi yilni majburiyatlarini muddatidan oldin yakunlagan hamda rejadan tashqari 360 ming so‘mlik mahsulot ishlab chiqargan holda, mahsulot tannarxini arzonlashtirish topshiriqlari esa 3 barobar oshirib bajarilgan³⁷. Qoraqolpag‘istonda o‘n birinchi besh yillik mobaynida sanoatda asosiy ishlab chiqarish fondlari 1,5 barobar ko‘paydi. Sanoatning yangi to‘qimachilik tarmog‘i paydo bo‘ldi. Salkam 2 mlrd. so‘mlik kapital mablag‘ o‘zlashtirildi. 1980-yilga nisbatan sanoat ishlab chiqarish hajmi 17,5 foizga, shu jumladan 1985-yili 8,7 foizga o‘sgan³⁸. “Toshkentxleb” ishlab chiqarish birlashmasi o‘tgan 1985-yilning 9 oy mobaynida rejadan tashqari 108 mln. so‘mlik mahsulot yetkazib berilgan va 20,5 ming tonna un, 700 ming shartli tonna yoqilg‘i tejab qolingan holda qariyb 1 mln. 558 ming so‘m sof foyda olingan³⁹. Bu kabi ijobiy natijalar qayd etgan bir qator korxonalar misolida ko‘rish mumkin. O‘rganilayotgan davrdagi sanoat korxonalari faoliyati tahlili shuni ko‘rsatdiki, korxonalaridagi ijobiy natijalarga, birinchidan, yangi qurib ishga tushirilgan korxonalar, ikkinchidan, aynan moddiy-texnik bazasi yangilanishi yoki kiritilgan sarmoyalar evaziga erishilgan. Ammo bu jarayonlar uzviy ravishda olib borilmadi. Ko‘plab sanoat korxonalarining moddiy-texnik bazasi hamda malakali kadrlar bilan ta‘minlashga yetarli e‘tibor qaratilmaganligi nafaqat ishlab chiqarish hajmiga, balki sifat jihatdan ham orqada qolishiga olib keldi.

Koxonalarni “xo‘jalik hisobiga”, “o‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta‘minlash” va boshqarish kabi imtiyozlarni joriy etilishi sanoat sohasini qat‘iy rivojlantirishga kirishilganligini anglatar va respublikada xo‘jalik hisobida ishlashga o‘tish tashabbusini avj olishiga sabab bo‘ldi. Jumladan, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida xo‘jalik hisobida ishlaydigan 76 ta brigada tashkil etilgan. Natijada korxonada xom ashyoni, metallarni tejashga bo‘lgan e‘tibor kuchaydi. Farg‘onadagi “Azot” ishlab chiqarish birlashmasida 1988-yilda “o‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta‘minlash” usulida ishlashga o‘tilishi mo‘ljallangan foydadan deyarli 11 mln. so‘m ortiq foyda olinishi olib keldi⁴⁰. Biroq, shuni ta‘kidlash joizki, bu borada zo‘r berib qilingan davatlarga qaramasdan “xo‘jalik hisobida ishlash” amaliyoti amalda unchalik avj olib ketmadi. U faqat ayrim ishlab chiqarish jamoalarini mehnatni tashkil etish va rag‘batlantirishning brigada shakliga o‘tkazishdagi o‘z ifodasini topdi, holos.

XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmidan boshlangan yangilangan islohotlar konsepsiyasida boshqaruvning ma‘muriy me‘todlaridan ko‘proq kapitalizm taraqqiyot yo‘lida keng tarqalagan va ijobiy natijalarni amalda ko‘rsatib kelgan iqtisodiy usullariga o‘tishga yo‘naltirildi, lekin real amaliy hayotda esa qaror topgan markazlashgan boshqaruv tizimi dorasida amalga oshirilganligi sababli ko‘plab tashabbuslar kutilgan natijalarni bermadi. Garchi korxonalarni to‘liq xo‘jalik hisobiga yoki o‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta‘minlash usuli joriy etilgan bo‘lsada, “sosialistik xo‘jalik yuritish” tartib-tamoillari bu boradagi islohotlarga to‘sqinlik qildi. Ko‘plab qorxonalarda ichki imkoniyatlarin safarbar qilishni, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni rag‘batlantiruvchi shart-sharoitlar yaratilmagan edi. Ya‘ni korxonalarda moddiy va energetika resurslarini hisobga olish va saqlash uchun zarur sharoitlarga shuningdek, ish haqini uzoq muddatga mo‘ljallangan normativ fondlariga ega emasdi. Qolaversa, davlat buyurtmalari to‘g‘risidagi masala ham ancha murakkab edi, u rasmiy rejalashtirish o‘rnini egallashi lozim

³⁶ Мебелсозларнинг аъло маҳсулоти. Совет Ўзбекистони. 1985 йил 31 декабр.

³⁷ Уч баробар кўп. Совет Ўзбекистони. 1985 йил 31 декабр.

³⁸ Камчиликларни қатъиятан бартараф этиб, сабот билан олға ҳаракат қилайлик. Совет Ўзбекистони 1986 йил 12 январ.

³⁹ Харидор талаби – ҳақли талаб // совет ўзбекистони 1985 йил 12 декабрь

⁴⁰ Правда Востока. 1989 йил 18 ноябр.

edi. 1988-yilda O'zbekistonda ishlab chiqariladigan butun tovar mahsulotlarining 39,2 foizi davlat buyurtmasi hisoblanardi⁴¹. Ushbu yillarda ko'pgina tarmoqlarda xo'jalik hisobini shunchaki yuzaki yondashish holatlari ham mavjud edi. Hatto mehnat jamoalari hisobotlarida yangi iqtisodiy sharoitda ishlayotgandek qilib ko'rsatilar edi, xaqiqatda esa u yerda xo'jalik hisobi asoslari butunlay joriy etilmagan.

Markaz tomonidan 1989-yil "Ittifoqdosh respublikalarning suveren huquqlarini kengaytirish, o'z-o'zini boshqarish va o'zini pul bilan ta'minlash asosida iqtisod va ijtimoiy sohaga rahbarlikni qayta qurishning umumiy prinsiplari" to'g'risidagi qonun e'lon qilindi⁴². Ushbu qonunda yagona xalq xo'jaligini mustahkamlash maqsadida yoqilg'i-energetika, metallurgiya va mashinasozlik komplekslari, kimyo, medisina va mikrobiologiya, o'rmon va selluloza – qog'oz sanoati tarmoqlari, shuningdek, yer osti geologiyasi va uning boyliklarini qidirib topish, mudofaa tarmoqlari, temir yo'l, dengiz, havo transporti, quvur transporti, informatika va aloqaning umumittifoq tizimlari yuqorida qayd etilgan tarmoqlarda ittifoq darajasidagi rahbarlik saqlanib qolinishi ko'rsatib o'tildi. Shu bilan birga, ittifoqdosh respublikalar byudjetiga ittifoq tarmog'idagi korxonalar va tashkilotlar foydasidan tushadigan to'lovlar, oborot solig'i, ittifoq qaramog'idagi tashkilotlarning tashqi faoliyatidan tushadigan daromadlar, yer osti boyliklarining ayrim turlariga qo'yiladigan renta to'lovlari ham kiritildi. Shu yo'l bilan markaz mas'uliyatni respublikalar zimmasiga yuklab qo'ydi. Bunday tadbir mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat nihoyatda og'irlashgan sharoitda amalga oshirildi. Bu kabi qarorlar bilan KPSS o'zining rahbarlik rolini mustahkam ushlab turishga intilar edi. Vaholanki 1987-yilda korxonalar haqida qaror qabul qilindi, lekin vazirliklar yoqotilmadi ular o'z xuquqlarini saqlab qoldi⁴³.

1989-yilda kooperativlarni rivojlantirish, ular uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratib berish iqtisodiy tanazzuldan chiqishning asosiy yo'llarida biri sifati qaralib, agar, kooperativlar davlat korxonalari uchun yaratilgan sharoit va imkoniyatlarga ega bo'lsa, ularning faoliyati mamlakat iqtisodiy hayoti va taraqqiyotida bundan ham samaraliroq o'rin egallashi mumkinligi ko'rsatildi. Lekin chora-tadbirlarda amalga oshirishda ham ham o'sha davrda qaror topgan iqtisodiy, siyosiy mezonlaridan chiqib ketib bo'lmadi, kooperativlarga xo'jalikni socialistik asosda yuritishning tarkibiy qismi deb qaraldi. 1989-yilda "SSSRda kooperatsiya to'g'risi"gi yangi qonun qabul qilingan bo'lsada, qonunda ko'rsatilgan narh - navoni belgilashga davlat idoralarining hamon aralashuvi sog'lom tovar - pul munosabatlari yo'lini, xo'jalik hisobida ishlovchi korxonalarni rivojlantirish imkoniyatlarini cheklab qo'ydi. Qolaversa, shoshma-shosharlik bilan qilingan bu ishda kooperativlar ishlab chiqarishni rivojlantirish bahonasi bilan ko'p mablag'larni o'zida saqlab qoldi. Natijada kooperativlarda maosh ikki baro bar oshib borgan holda, davlat qaramog'idagi korxonalarda ishchilar ish haqi kamayib ketdi. Ko'pgina kooperativlar xo'jalik hisobiga o'tgach, o'zlariga berilgan sharoitdan foydalanib, narx-navoni sun'iy tarzda oshirib yubordilar⁴⁴. Buning natijasida sanoat korxonalarining har ikkinchisida davlat narx tizimida intizom buzilgan. Mahsulotni sotishdan qoladigan foyda ulushi ko'tarilavergan.

Ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan mehnat unumdorligi darajasi bo'yicha ham O'zbekiston iqtifoqdosh respublikalar orasida eng past o'rinlarda bo'lgan. 60-yillar o'rtalaridan boshlab mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari mauttasil pasayib bordi. O'rtacha o'sish darajasi 1956-1970 yillarda 4,2 foiz, 1971-1975 yillarda - 3,8 foiz, 1976-1980

⁴¹ Осминин В. Ўзбекистон ССР Экономикасини қайта қуриш асосида ривожлантиришнинг якун ҳамда проблемалари // Ўзбекистон коммунисти. 1988. №11, Б.24.

⁴² СССР Олий Совети Президиумининг қарори. Иттифоқдош республикаларда улар нинг суверен ҳуқуқларини кенгайтириш, ўз – ўзини бoshқариш ва ўзини ўзи пул билан таъминлаш асосида экономикага ва социал соҳага раҳбарликни қайта қуришнинг умумий принциплари лойиҳаси тўғрисида // Совет Ўзбекистони. 1989, 15 март.

⁴³ Қовулов В. Қайта қуриш даври фожеалари // Фан ва турмуш. 1991. №9, -Б. 11.

⁴⁴ Совет Ўзбекистони. 1989, 31 октябрь.

yillarda - 2,7 foiz, 1981-1985 yillarda - 0,7 foizni, 1986-1988 yillarda o'sish o'rniga 0,6 foiz pasayish bo'ldi. 1986-1988 yillardagi mehnat unumdorligining pasayishi hisobiga respublikada 1,5 mlrd so'mdan ko'proq milliy daromad olinmadi, xosil qilingan milliy daromadning mehnat sarfi 1,5 barovar yuqori bo'lgan. O'zbekiston SSR sanoatida mehnat unumdorligini atigi 35-40 foizni ta'minlaydi. Holbuki bir qator ittifoqdosh respublikalarda u kamida 70 foizni tashkil etgan⁴⁵.

Xulosa qiladigan bo'lsak xom-ashyo manbalari, resurslar, energiyani tejash sohasidagi ishlar yetarli darajada olib borilmaganligi, ishchilarning transport bilan ta'minlanmaganligi, xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning qulay ish grafiklarining yo'qligi respublika korxonalar va tashkilotlarining 2-3 smenali rejimga o'tkazilmaganligiga sabab bo'lgan. Bu esa sohaning rivojiga asosiy to'siqlardan biri edi. Shuningdek, yangi qurib ishga tushirilgan korxonalar moddiy-texnik bazasi yangilanishi tizimli amalga oshirilmaligi, malakali kadrlar bilan ta'minlashga yetarli e'tibor qaratilmaganligi nafaqat ishlab chiqarish hajmiga, balki sifat jihatdan ham orqada qolishiga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Erkinovich, T. J. (2020). The role of the press in the process of historical development of Uzbekistan: Classification of popular magazines and newspapers. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1982-1989.

2. Jamshid Erkinovich Tangrikulov. (2022). PRESS IN UZBEKISTAN: CLASSIFICATION OF POPULAR MAGAZINES AND NEWSPAPERS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 1451-1455.

3. Tangrikulov, J. (2023). TEATR VA KINO SAN'ATIDA O'ZBEKISTONNING QAYTA QURISH YILLARIDAGI DAVR MUAMMOLARINING AKS ETISHI. *Interpretation and Researches*, 2(1).

4. Tangrikulov, J. (2023). TEATR VA KINO SAN'ATIDA O'ZBEKISTONNING QAYTA QURISH YILLARIDAGI DAVR MUAMMOLARINING AKS ETISHI. *Interpretation and Researches*, 2(1).

5. Xaydarova Mahliyo Khabibullaevna. (2024). DEVELOPMENT AND GROWTH OF EDUCATION. *International Conference on Multidisciplinary Science*, 2(3), 83-88.

6. Хайдарова, М. (2023). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ ВОСПИТАНИЕ. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(10).

7. Haydarova, M. (2019). MODEL AND PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS CONDUCIVE TO THE FORMATION OF MANAGERIAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(11), 90-93.

8. XABIBULLAYEVNA, X. M. (2022, June). THE NEED TO TEACH THE SUBJECT OF EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL. In *Conference Zone* (pp. 97-98).

⁴⁵ Тўхлиев Н. Иқтисодий интенси́в ривожлантириш йўлига ўтказишни жадаллаштирайлик // Ўзбекистон коммунисти. 1990. №6, -Б. 11

**O‘ZBEKISTONDA SANOAT SOHASINI KADRLAR BILAN TA‘MINLASH
MASALALARI**

(qayta qurish yillari matbuot materiallari asosida)

Tangrikulov Jamshid Erkinovich,

Termiz davlat universiteti Akademik litseyi ijrochi direktori

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) jamshidtangrikulov066@gmail.com

O‘zbekistonda sanoat sohasini mutaxassis kadrlar bilan ta‘minlash masalalari o‘ziga hos xususiyatlarga ega bo‘lib, yillar davomida ishchi kadrlarni tayyorlashda respublika imkoniyatlariga yetarli darajada e‘tibor qaratilmay, aksincha ko‘plab sanoat sahasi ishchi kadrlar chetdan keltirish hisobiga ta‘minlab kelindi. Xalq xo‘jaligini ishchi va ilmiy-texnik kadrlarga bo‘lgan talabi ilmiy asoslangan izchil tarzda o‘rganilmaganligi natijasida kadrlar tayyorlashni rejalashtirishda, bazi sohalarda keragidan ortiq, ayrim sohalarda ayniqsa, ishlab chiqarish tarmoqlarda mahalliy millat vakillaridan ishchi kadrlar tayyorlashga yetarlicha ahamiyat qaratilmadi. 1970-yillar va 1980-yillar o‘rtalarigacha bo‘lgan davrda yangi shaharlar bunyod etilishi, zavod va fabrikalar qurilishi hamda ularni malakali ishchilar bilan ta‘minlashda o‘zgacha yo‘l olib borildi. Yangi qurilgan va umuman ishlab chiqarish bilan faoliyat olib borayotgan ko‘plab sanoat korxonalarini yetarli darajada ishchi kuchi bilan ta‘minlashda asosan mahalliy kadrlar bilan emas aksincha, SSSRning markaziy rayonlaridan keltirish hisobiga amalga oshirildi. Shuning uchun ham respublikadagi mavjud korxonalar ko‘p millatli mehnat jamoalaridan tarkib topgandi. Masalan, V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviyasiya ishlab chiqarish birlashmasida 50 dan ziyod millat va elatlar vakillari ishlagan⁴⁶.

Sanoat sohaslarini mutaxassis kadrlar bilan ta‘minlash borasidagi bunday yondashuvlar natijasida respublikamiz ittifoqdosh respublikalar orasida milliy ishchi kadrlar salmog‘i bo‘yicha quyi o‘rindan birida bo‘lishiga olib keldi. Masalan, 1979-yilgi aholi ro‘yxatga olinganda, Ittifoq bo‘yicha o‘zbek ishchilarining salmog‘i – 50 foizdan oshmagan bo‘lsa, tojiklarda ishchilar salmog‘i – 55 foiz, ruslarda – 63 foiz, qozoqlarda – 64 foiz, qirg‘izlarda – 56 foizni⁴⁷ tashkil etgan.

Asosiy ishlab chiqaruvchi 40 foizdan ko‘prog‘i tayyorlanayotgan yalpi maxsulotning teng yarmi va xalq xo‘jaligida band bo‘lgan ishlovchilarning 45 foizi respublika agrosanoat kompleksi xissasiga, mehnat resurslarining 52 foizi qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi ulushiga to‘g‘ri kelgan⁴⁸. O‘zbekistonda asosiy ishchi kuchi qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan. O‘zR FA Iqtisodiyot instituti olimlari o‘tkazgan (aholi zich yashaydigan Namangan va mehnat qiluvchilar yetishmaydigan Jizzax viloyatlarida) sotsiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tub yerli millatga mansub kishilardan 8 va 10-sinf o‘quvchilarining atiga 3 foizi maktabni tugatganidan keyin sanoatda ishlashni, salkam 5 foizi qurilishda, 10,4 foizi transport va aloqada mehnat qilishni xohlagan⁴⁹. Shundan ko‘rinib turibdiki mahalliy yoshlar orasida sanoat sohasiga

⁴⁶ Шистер Г. Ўзбекистон кўп миллатли ишчилар синфининг шаклланиши ва ривожланиши // Ўзбекистон коммунисти. 1985. № 10, -Б.37.

⁴⁷ Таксанов А. Қишлоқда саноат ишчилар синфининг ривожланиши // Ўзбекистон коммунисти. 1987. №7, - Б.29.

⁴⁸ Таксанов А. Қишлоқда саноат ишчилар синфининг ривожланиши. // Ўзбекистон коммунисти, 1987. №7, - Б. 28

⁴⁹ Убайдуллаева Р Ўзбекистон меҳнат потенциалидан яхшироқ фойдаланайлик // Ўзбекистон коммунисти. 1987. №10, -Б. 27.

qiziqishlari past darajada bo'lgan. Ikkinchidan olib qaraganda ushbu yoshlar orasida sanoat sohasiga qiziqtirish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

Respublikadagi kadrlar malakasi yetarli e'tibor qaratilmasligi natijasida sanoatning ishlab chiqarish sur'atlariga o'zining salbiy ta'siri ko'rsatdi. Tegishli soha mutasaddilari tomonidan ilgari surilgan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan to'la foydalanish uchun bugungi kunda shunchaki qo'shimcha ishchi kuchlari emas, balki malakali kadrlar kerak. Fan texnika revolyusiyasi ishchilar sinfining tarmoq va professional strukturasi jiddiy o'zgarishlar kiritilmoqda, uning madaniy-texnik darajasini muttasil o'stirishni talab qilmoqda⁵⁰ kabi haqli qarashlariga yetarli ahamiyat qaratilmadi. Natijada mahsulotlar ishlab chiqarishga son jihatdan rejaga erishilgani bilan ularni sifatli zamonga hamohang tarzda o'zgarishlardan ortda qolgan holda ishlab chiqarish davom etib bordi. Masalan, Namangan poyabzal fabrikasi direktori respublika rahbariyatiga qilgan murojaatida "...mahsulotlarimizning deyarli barcha turlari ustidan shikoyatlar kelib tushmoqda. Mahsulotning nomi faqat mavsumga qarab o'zgaradi. Ishchilar makasining pastligi sababli yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqara olmayapmiz. Ishchilarni o'qitish uchun murabbiylar, tajribali injenerlar va masterlar kerak ular juda-juda yetishmayapti. Malakali kadrlar yetishmayapti"⁵¹. Xatto ayrim fabrikalar tekshirilganda dastgoxlarda 4 kishi o'rniga 2 kishi ishlayotganligi mehnat kuchi jamlanmaganligi buning natijasida mahsulotlar standartdan chetlashilgan holda ishlab chiqarilishiga sabab bo'lganligi aniqlangan.

Sovet ma'murlari sanoatdagi koloqlikni ishchi va muhandis texnik xodimlarning tashabbuskorligini oshirish, "sostialistik musobaka" ni keng joriy kilish, "alohida tanlab olingan" ilg'or va jonkuyar ishchilarni "bayroq" sifatida ularni mehnat qahramonlari darajasiga ko'tarib boshqalarga "o'rnak" qilib ko'rsatish yo'li bilan bartaraf qilishga va sanoatni turg'unlik holatidan olib chiqishga harakat qildilar. Lekin ularning tashabbusini "bayroq" qilish, ishchilar o'rtasida "ommalashtirish" O'zbekiston sanoatini turg'inlik holatidan olib chiqa olmadi.

Agar ittifoq sanoatida hamma ishchilarning 38,1 foizi band bo'lgan bo'lsa, O'zbekistonda 25,3 foizi, qishloq xo'jaligida tegishli ravishda 13,1 va 25,9 foizni⁵² tashkil etgan. Ko'plab ma'lumotlarda yillar davomida ishchilar salmog'ini keskin tarzda oshganiligi ko'rish mumkin. Masalan, 1978-1988 yillarda sanoat ishlab chiqarish ishchi xodimlari soni yengil va oziq-ovqat sanoatida 40 foizga o'sgan⁵³. Bunda bir tomondan aholi soni keskin o'sishi deb qaralsa, ikkinchi asosiy sabablaridan biri fan-texnika yutuqlaridan orqada qolishdir. Chunki, fan-texnika inqilobidan orqada qolinishi oqibatida etibor qo'l mehnatiga qaratiladi. Bu o'z navbatida sanoatda ishchi kuchini soni ko'payishiga olib keladi.

Qolaversa, mahalliy aholi industrial sohaga to'liq jalb etilmagan, ular asosan ikkinchi darajali uchastka yoki sexlarda ishlaganlar. Masalan, faqat Toshkent shahrining o'zidagi sanoat korxonalarida, xususan tub joy millat vakillari O'zbekiston qishloq xo'jaligi mashinasozligi ishlab chiqarish birlashmasida 14,0, Toshkent qishloq xo'jaligi mashinasozligi zavodida – 19,0, Chkalov nomidagi Toshkent aviasiya ishlab chiqarish birlashmasida – 21,0, "Etalon" ish lab chiqarish birlashmasida – 22,0, Toshkent lak - bo'yoq zavodida esa – 33,0, Toshkent traktor

⁵⁰ Шистер Г. Ўзбекистон: кўпмиллатли ишчилар синфининг шаклланиши ва ривожланиши // Ўзбекистон коммунисти. 1985. №10, - Б. 40.

⁵¹ Совет Ўзбекистони. 1989 йил 13 ноябр.

⁵² Хожимирзаев М. Ўзбекистоннинг ишчилар синфи: ривожланиши ва муаммолари // Инсон ва сиёсат. 1991. № 9, – Б.19.

⁵³ Қашшоқлик иқтисодиёти // Фан ва турмуш. 1991. №6, -Б. 2.

zavodida – 89,0 foizni tashkil etgan⁵⁴. Sanoatning muhim tarmoqlarida mahalliy aholini ishga qabul darajasi juda ham sekin o‘tib borgan. Masalan, mashinasozlik va metalga ishlov berishda, ximiya va neft ximiyasi sanoati sohasida o‘zbek ishchilarining salmog‘i ana shu tarmoqlarda band bo‘lgan jami xodimlar soniga nisbatan 25 foizdan oshmagan, rangli metallurgiya, ko‘mir, neftni qayta ishlash sanoatida 29-32 foiz, qora metallurgiya, elektr energiyasi va binokorlik materiallari sanoatida 38-42, yengil va oziq-ovqat sanoatida 59-68 foizga to‘g‘ri kelgan⁵⁵.

O‘zbekiston qulay imkoniyatlariga qaramay, 1988-yilda sanoat mahsulotlari aholi jon boshiga hisoblaganda Estoniyada – 4,1, Latviyada – 4, RSFSRda – 3,3, Gruzziya va Moldoviyada – 2,3 Qozog‘istonda – 2,1, Qirg‘izistonda – 1,5, O‘zbekistonda – 1,2 so‘mlik ishlab chiqarilgan⁵⁶. SSSRda xalq iste‘moli tovarlari ishlab chiqarish aholi jon boshiga – 1168 so‘mni, Ukrainada – 1200 so‘m, Belorussiyada – 1654 so‘m, Litvada – 2442 so‘m, Estoniyada – 2510 so‘m O‘zbekistonda – 470 so‘mni tashkil etgan⁵⁷. Garchi ittifoqda xorijiy firmalar bilan birgalikda uch migdan ziyod tashkilot va korxonalar bo‘lgan bo‘lsada, O‘zbekistonda ularning soni 1991-yil iyunida hammasi bo‘lib 50 ga yaqin bo‘lib, shundan atiga 8 tasi xalq iste‘mol buyumlari ishlab chiqargan⁵⁸. Umumun moddiy ta‘minotda bo‘lgani kabi sanoatda ham ishlab chiqaruvchi kuchlar bir tekisda rivojlantirilmaganini ko‘rishimiz mumkin.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmidan boshlagan islohotlar jarayonida mamlakat hayotidagi inqiroz holatidan bartaraf etish borasida belgilangan qator vazifalar o‘z yechimini topmadi. 1970-yillar boshlarida respublikamizning o‘zida tayyorlangan mahsulot bilan aholining eng zarur mollar (kiyim-kechak, trikotaj, poyafzal)ga bo‘lan e‘tiyojining yarmisigana qondirilgan bo‘lsa⁵⁹, 80-yillarning oxirlariga kelib ham bu sohadagi siljish unchalik sezilarli bo‘lmadi. Bu davrga kelib, kiyim-kechaklarning chorak qismi, trikotaj byumlar va ip gazlamalarning uchdan bir qismi, poyabzalning deyarli yarmisi chetdan keltirish hisobigina aholi ehtiyoji qondiriladi⁶⁰.

Ko‘plab korxonalarda aholi talabini o‘rganmay turib reja ortidan quvish oqibatida sifatsiz, eskirib qolgan urflar va turlar bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishni davom ettirilganligi ma‘lum miqdordagi xarajatlar evaziga ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar ko‘p hollarda sotilmasdan omborlarda to‘planib qolishiga va bundan iqtisodiy zarar ko‘rilishiga olib kelgan. Bu yillarda ishlab chiqarishdagi reja topshiriqlarining bajarilishini qat‘iyat bilan talab qilinishi davlat qabulini yuzakilashuviga olib keldi. mamuriyat tomonidan belgilangan rejalarni talab qilinishi oqibatida ishlab chiqarishda sifat masalasi sekin-asta ikkinchi darajali masala bo‘lib qoldi. Masalan, 1985-yilda respublikada sifatsiz ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun jarimalar to‘lash, ularni naxlarni pasaytirish hisobidan 700 mln. so‘m zarar ko‘rilgan⁶¹. Andijon poyabzal

⁵⁴ Ишсизлик муаммоси ва унинг ечимлари хусусида // Ҳаёт ва иқтисод. 1991. – № 4, – Б. 23.

⁵⁵ Таксанов А. Қишлоқда саноат ишчилар синфининг ривожланиши // Ўзбекистон коммунисти. 1987. №7, Б.31.

⁵⁶ Хожимирзаев М. Ўзбекистоннинг ишчилар синфи: ривожланиши ва муаммолари // Инсон ва сиёсат. 1991. № 9. –Б. 19

⁵⁷ Тўраев Р. Маошингиз етарлими // Фан ва турмуш. 1990. № 4, - Б.7.

⁵⁸ Зиёдуллаев С. Моддий неъматлар ишлаб чиқаришнинг аҳволи ва резервлари. // Инсон ва сиёсат, 1991, № 9, 38-бет

⁵⁹ Юн., Мельникова Д. Некоторые вопросы развития производства предметов и потребления Узбекистане // Коммунист Узбекистана, 1971. №1, -Б,25,

⁶⁰ Совет Ўзбекистони. 1990 йил 5 июнь.; Зиёдуллаев С. Моддий неъматлар ишлаб чиқаришнинг аҳволи ва резервлари // Инсон ва сиёсат. 1991. № 9, - Б. 36.

⁶¹ Совет Ўзбекистони. 1986 йил 31 январ.

fabrikasi faoliyati o'rganilganda ishlab chiqarilgan mahsulotlarining kattagina miqdori savdo tashkilotlarining omborxonalarida sotilmasdan to'planib qolganligi aniqlangan.

Bunga korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan har ikki juft poyabzaldan bir jufti belgilangan me'yor talablariga javob bermasligi sabab bo'lgan. Andijon viloyati bo'yicha 1986-yilda jami 2 mln. so'mlikdan ziyod 115 ta iqtisodiy jarima solingan, 96 ta holatda mahsulotni realizatsiya qilish taqiqlangan, 16 korxonada esa mahsulot tannarxi yaqin 10 mln. so'mga ortib ketgan⁶². Shuningdek, Andijon viloyatidagi ip-gazlama kombinati tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga 121 ta e'tiroz xati kelib tushgan va 2 mln. so'mdan ortiq jarimaga, tikuvchilik ishlab chiqarish birlashmasiga 76 ta e'tiroz xati so'm 388 ming so'm, poyabzal fabrikasi 75 e'tiroz xati va 221 ming so'm jarimaga tortilgan⁶³. Yoki, Farg'ona viloyatining Kirov va O'zbekiston tumanlarida joylashgan tikuv-momiq fabrikalarining 60 ming so'mlikka yaqin mahsulotini realizatsiya qilish vaqtincha to'xtatilgan bo'lsa, Sho'rsuv sopol quvurlari zavodining 85, Kirov rayonidagi Oktabr 40 yilligi sovhozi g'isht zavodining 66, Qo'qondagi 2-paxta tozalash zavodining 94,7, O'zbekiston paxta tozalash zavodining 72,6 ming so'mlik mahsulotida jiddiy nuqsonlar borligi aniqlan hamda bu mahsulotlar sotuvga chiqarilmagan⁶⁴. 1989-yilning 9 oyi mobaynida yengil sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish faoliyati o'rganilganda korxonalar tomonidan sifatsiz mahsulotlar ishlab chiqarilganligi oqibatida tikuv buyumlarining – 14 foizi, charm poyabzallarining – 10 foizi, trikotaj buyumlarining – 18 foizi, paypoqlarning – 15 foizi, shoyi va ip gazlamalarining 7 – 8 foizi navi pasaytirilib, tuzatish (qayta ishlash) uchun qaytarib yuborilgan⁶⁵. Bunday holatlar sarf-xarajatlar hamda iqtisodiy zarar ortib borishiga olib kelgan.

Garchi, 1980-yil oxirlariga kelib, O'zbekiston yengil sanoatida 71 ta korxonalar, shu jumladan, 10 ta ip-gazlama va jun tarmog'iga karashli korxonalar, 11 ta tirikotaj, 12 ta tikuvchilik fabrikasi, 11 ta shoyi hamda noto'qima materiallari ishlab chiqaradigan, 22 ta charm poyabzal, 3 ta chinni korxonalarini faoliyat yuritgan bo'lsada, aholi ehtiyojlarini ta'minlash uchun yetarli bo'lmadi. Shuning uchun ham yengil sanoat mahsulotlarining ma'lum qismini chetdan keltirishga majbur bo'lingan. Qolaversa, ko'plab sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish sur'atlari yil oxiriga kelib miqdor jihatdan ortib borish o'rniga ba'zilarida qisman o'sish kuzatilgan bo'lsa, ayrim tarmoqlarida avvalgi yilga nisbatan pasayish kuzatilgan.

Sovet hokimiyati tomonidan yillar davomida iqtisodiy taraqqiyotning ob'ektiv qonuniyatlariga zid ravishda respublikalarning real imkoniyatlarini hisobga olmasdan olib borgan siyosati keyingi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va boshqa sohalarida tanglik holatini keltirib chiqardi. Mamlakat hayotining barcha sohalarida keskin ijobiy o'zgarishlar yasay olishi kutilgan "Qayta qurish" siyosati demokratlashtirish va oshkoralikka ma'lum darajada yo'l ochib bergan bo'lsada, mamlakat hayotida tub burilish yasay olmadi. Qayta qurish yillarida barcha sohalar qatori sanoat tarmoqlarini rivojlantirish borasida bir qator chora-tadbirlar, xususan sanoat korxonalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash, malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish va undan samarali foydalanish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, sifatini yaxshilash bo'yicha qator vazifalar belgilangan edi. Ammo, ushbu dasturda belgilangan rejalarni bajarish bir tomondan, sekinlik bilan amalga oshirib borilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga asoslangan,

⁶² Интизои ва уюшқоқликни мустақамлайлик // Коммунист. 1987 йил 8 апрель.

⁶³ Халқ истеъмол товарларини ишлаб чиқаришни ривожлантириш комплекс программасини амалга ошириш – умумхалқ иши // Коммунист. 1986 йил 13 июнь.

⁶⁴ Сифат – бош масала // Коммуна. 1988 йил 5 январ

⁶⁵ Янада самаралироқ ишлайлик // Совет Ўзбекистони. 1989 йил 10 ноябрь.

mavjud imkoniyatlarni hisobga olmaydigan siyosat belgilangan vazifalarni to'la bajarish uchun imkon bermadi.

Sanoat sohasidagi asosiy muammolar amalda o'z yechimini topmadi. Bular birinchidan, tayyor mahsulot ishlab chiqarishning past darajada tashkil etilganligi, asosiy e'tibor xom ashyoni dastlabki qayta ishlash hamda yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi; ikkinchidan, sanoat korxonalarining moddiy-texnik bazasi, ishlab chiqarish texnika va texnologiyalari yetarli darajada rivojlantirib borilmaganligi; uchinchidan, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish sust olib borilganligi; to'rtinchidan, ko'plab sanoat korxonalarining xom ashyo bazasi respublikalararo bog'lab qo'yilishi oqibatida 1980-yilning ikkinchi yarmidan boshlab ko'plab ittifoqdosh respublikalar o'z majburiyatlarini (masalan, xom ashyo yetkazib berish bo'yicha) bajarmasliklari kabi omillar korxonalarining ishlab chiqarish sur'atlari va mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatganida edi.

Sobiq Ittifoq davrida sanoat rivojida, asosan, davlat uchun foyda keltiruvchi sohalarga, ya'ni ko'p tarmoqli mashinasozlik, kimyo, neft, ko'mir, gaz, kon-ruda, oltin qazib olish, energetika kabi sanoat tarmoqlariga e'tibor qaratildi. Davlat tomonidan ajratilgan kapital mablag'larning katta qismi ham aynan og'ir sanoat tarmoklarini rivojlantirish uchun sarflandi. Og'ir sanoat katta kuch-qudratga, moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lsada, iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlay olmadi, yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari "qoldiq prinsip" asosida ta'minlanganligi oqibatida ushbu soha mahsulotlarini ishlab chiqarish miqdor va sifat jihatidan orqada qolishiga hamda aholi ehtiyojlarini chetdan import qilish evaziga ta'minlashga majbur bo'lingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Erkinovich, T. J. (2020). The role of the press in the process of historical development of Uzbekistan: Classification of popular magazines and newspapers. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1982-1989.

2. Jamshid Erkinovich Tangrikulov. (2022). PRESS IN UZBEKISTAN: CLASSIFICATION OF POPULAR MAGAZINES AND NEWSPAPERS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 1451-1455.

3. Tangrikulov, J. (2023). TEATR VA KINO SAN'ATIDA O'ZBEKISTONNING QAYTA QURISH YILLARIDAGI DAVR MUAMMOLARINING AKS ETISHI . *Interpretation and Researches*, 2(1).

4. Tangrikulov, J. (2023). TEATR VA KINO SAN'ATIDA O'ZBEKISTONNING QAYTA QURISH YILLARIDAGI DAVR MUAMMOLARINING AKS ETISHI . *Interpretation and Researches*, 2(1).

5. Xaydarova Mahliyo Xhabibullaevna. (2024). DEVELOPMENT AND GROWTH OF EDUCATION. *International Conference on Multidisciplinary Science*, 2(3), 83-88.

6. Хайдарова, М. (2023). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ ВОСПИТАНИЕ. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(10).

7. Haydarova, M. (2019). MODEL AND PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS CONDUCIVE TO THE FORMATION OF MANAGERIAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(11), 90-93.

8. XABIBULLAYEVNA, X. M. (2022, June). THE NEED TO TEACH THE SUBJECT OF EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL. In *Conference Zone* (pp. 97-98).

INVESTIGATION OF THE QUALITY OF ENGRAFTMENT OF A NEW MESH PROSTHESIS WITH A COMPOSITE COATING IN ALLOGERNIOPLASTY**Sapaev Duschan Shukhratovich, Khayitboeva Komila Khujayazovna,****Yuldasheva Laylo Odilbek qizi****Urgench branch of Tashkent Medical Academy, Republic of Uzbekistan, Urgench****E.mail: duschanboy.sapaev@mail.ru**

Introduction. Over the past few decades, the concepts of the biological basis for the development of ventral hernias, surgical techniques and the use of biomaterials for abdominal wall plasty have significantly expanded. Biomaterials significantly improved the postoperative course with a significant reduction in the recurrence rate from 50% to less than 20%. However, there are different opinions in this regard. Despite the fact that it has been proven that prosthetic allogernioplasty led to a decrease in the frequency of relapses, the negative aspect of this type of surgery was a higher risk of developing wound complications compared with restoration with local tissues only.

The aim of the study is to improve the results of allogernioplasty in postoperative ventral hernias by developing a new domestic mesh implant.

Materials and methods of research. The clinical trials included 239 patients with postoperative ventral hernias. All patients were divided into two groups: the main group consisted of 97 patients who received a new domestic mesh implant during allogernioplasty. The comparison group included 142 patients in whom allogernioplasty was performed using traditional prostheses (Esfil, Prolen). In the comparison group, reconstructive plastic surgery with Onlay mesh fixation was performed in 85 patients, in the main group 48, reconstructive plastic surgery with Onlay mesh fixation was performed in 14 and 12 patients, respectively; corrective plastic surgery was performed in 43 and 37 patients.

The majority of patients (over 75%) were aged 31 to 60 years, while 66.9% of women were in the comparison group, 66% in the main group, 33.1% and 34% of men, respectively. According to the distribution of patients according to the Toskin and Zhebrovsky classification, 22.5% of patients in the comparison group and 18.6% in the main group were classified as average hernias, 50.7% and 51.5%, respectively, to extensive hernias, 26.8% and 29.9% of patients were giant.

Results. The first clinical trials of the new domestic mesh implant with a composite coating "Niprocel" showed full compliance with the results of the experimental study. According to the declared properties of the mesh prosthesis, an increase in the quality of its engraftment was noted with a decrease in the frequency of specific prosthetic complications. The hemostatic properties of the composite coating have been proven, which were manifested by leveling the risk of wound hematoma formation (2.1% in the comparison group). Another important property of the implant was a decrease in the reaction of surrounding tissues to a foreign body (mesh prosthesis) due to the composite coating, which, together with the hemostatic and, accordingly, lymphostatic effect, reduced the risk of exudative manifestations from the wound (2.8% in the comparison group) and the formation of seromas from 30.3% to 11.3%, as well as the development of inflammatory infiltration in the subcutaneous fat layer from 10.6% to 4.1%. These properties made it possible to reduce the overall incidence of local wound

complications in the early period after allogernoplasty from 34.5% to 13.4% ($\chi^2=13.362$; Df=1; $p<0.001$). In turn, with regard to the clinical significance of serous accumulations in the wound, the developed domestic mesh implant allowed not only to reduce the risk of their formation, but also provided a reduction in the need for additional manipulations (in most cases repeated) for their evacuation from 16.2% to 3.1%, respectively, the frequency of seromas resolved independently was 14.1% in the group comparison and 8.2% in the main group, which together with the proportion of patients without seroma (69.7% and 88.7%) significantly improved the immediate results of allogernioplasty due to the use of the proposed mesh prosthesis ($\chi^2=13.445$; Df=2; $p=0.002$).


In reconstructive or reconstructive plastic surgery with fixation of the mesh prosthesis in the Onlay position, the use of the developed implant with a composite coating allowed to reduce the overall frequency of wound complications from 40.4% to 18.3% ($\chi^2=8,353$; Df=1; $p=0.004$), including leveling such manifestations as exudation from the wound (3.0% in the comparison group), hematomas, divergence of the wound edges and suppuration (2.0% each in the comparison group), as well as a decrease in the frequency of formation of wound infiltration from 13.1% to 5.0% and serous clusters from 36.4% to 16.7%, among which seromas requiring evacuation in the comparison group amounted to 20.2% and only 5.0% of cases in the main in the group, and in 16.2% and 11.7% of cases, this complication was resolved independently ($\chi^2=8,530$; Df=2; $p=0.015$).

Conclusion. An improved method of corrective allogernioplasty due to the use of a new domestic implant "Niprocel" and additional technical aspects to reduce the risk of developing a reaction to a foreign body, made it possible to reduce the incidence of prosthetic complications in the near future from 20.9% to 5.4% ($\chi^2= 4.042$; Df=1; $p=0.045$), in the structure of which a decrease was achieved the proportion of seroma formation increased from 16.3% to 2.7% ($\chi^2=4.073$; Df=1; $p=0.044$), while in the comparison group in 7.0% of cases it was necessary to evacuate these clusters, in the main group the volumes of seroma did not require additional manipulations.

REFERENCES

1. Yakubov F.R., Sapaev D.S., & Kuryazov B.N. (2023). Modern Aspects of Prevention of Hernias of the Linea Alba of the Abdomen After Laparotomy. Research Journal of Trauma and Disability Studies, 2(4), 139–142. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/rjtlds/article/view/702>
2. Yakubov, F. R., Sapaev, D. S., Allaberganov, K. B., & Matkurbonov, N. O. (2023). Results of effective postoperative wound drainage in large and complex ventral hernia. European journal of modern medicine and practice, 3(4), 30-32. <https://www.inovatus.es/index.php/ejmmp/article/view/1632>
3. Yakubov, F. R., Sapaev, D. S., Allaberganov, K. B., & Matkurbonov, N. O. (2023). Modern Approach to Effective Drainage of Postoperative Injury in Large and Complex Ventral Hernias. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2(5), 32-34. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/jiphhr/article/view/797>
4. Yakubov F.R., Sadykov R.A., Mardonov J.N., Erniyazov E.A., Sapaev D.S. Evaluation of Hemostatic Efficacy of Hemoben Gel in Ruptures Of The Gastric Mucosa in An Experiment. Bull. Env. Pharmacol. Life Sci., Vol 12 [8] July 2023: 56-66.

5. Якубов Ф.Р., Эрниязов Э.А., Сапаев Д.Ш., Маткурбанов Н.О. (2023). Улучшения лечебнодиагностического процесса при синдроме Меллори – Вейсса. *Academic research in modern science*, 2(2), 154–156. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7559998>
6. Якубов, Ф. Р., Сапаев, Д. Ш., Эрниязов, Э. А., Маткурбанов, Н. О., & Якубов, Р. Ф. (2023). Меллори-Вейсс синдромини кам инвазив усулларини қўллаган ҳолда ташхислаш ва даволаш. *Биология ва тиббиёт муаммолари*, 1(142), 143-145.
7. Рузибаев Р.Ю., Умаров Д.А., Сапаев Д.Ш., Рузметов Б.А. Результаты хирургического лечения хронического геморроя у больных с медикаментозной гипокоагуляцией. *Проблемы биологии и медицины*. 2022, №5 (139). – С. 185-191.
8. Якубов Ф.Р., Сапаев Д.Ш., Эрниязов Э.А., Маткурбанов Н.О. (2023). Современный подход в лечение при синдроме Меллори - Вейсса. *Международная конференция академических наук*, 2(1), 103–105. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7563829>
9. Рузибаев Р.Ю., Курьязов Б.Н., Сапаев Д.Ш., Якубов Ф.Р., Рузमतов П.Ю., & Бабаджанов А.Р. (2019). Современная оценка проблем диагностики и хирургического лечения эхинококкоза. *Вестник Национального медико-хирургического Центра им. Н. И. Пирогова*, 14 (1), 134-139.
10. M.M.Akbarov, R.Yu.Ruzibaev, D.Sh.Sapaev, P.Yu. Ruzmatov, F.R.Yakubov. (2020). Modern Trends in the Prevention of Liver Echinococcosis. *Indian Journal of Forensic Medicine & Toxicology*, 14(4), 7433–7437. <https://doi.org/10.37506/ijfmt.v14i4.12823>



BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FAN DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH USULLARI.

Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-kurs talabasi

Sultanova Tursunoy Ho'sinboy qizi

E-mail:sultanovaturunoy@gmail.com

tel: 998 99 268 28 14

Qulmo'minov O'rolboy Safar o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi

kafedrasi o'qituvchisi,

Termiz (O'zbekiston)

E-mail: qulmuminovorolboy@gmail.com

Тел.: +998995265624

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarini yanada samarali tashkil etishda innovatsion metodlar bilan tanishish hamda ularni dars jarayonida qo'llash, o'quvchilariga metodlar orqali yangi bilim, ko'nikmalarni shakllantirish haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, ta'lim, texnologiya, metod, metodika, tafakkur, tabiiy fanlar

Annotation: In this article, it is described about the introduction of innovative methods for more effective organization of elementary science lessons and their application in the course of the lesson, the formation of new knowledge and skills for students through the methods.

Keywords: Innovation, education, technology, method, methodology, thinking, natural sciences

Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari. Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivlarini o'stiradi, dunyoqarshini kengaytiradi.

Innovatsiya- yangilik kiritish,yaratish. Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (**innovatsion**) "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. "Innovatsiya" tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. Innovatsiya- muayyan tizimning ichki tuzilishi. Ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalari, me'yor qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi. Ta'lim innovatsiyalari - ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondoshuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.Ta'lim innovatsiyalari "innovatsion ta'lim" deb ham nomlanadi."Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979-yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan.

Tabiiy (SCIENCE) fanlarning afzalliklari va ahamiyati shundan iboratki, fan orqali o'quvchi olamning yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglaydi, ilmiy dunyoqarashi shakllanadi, tadqiqotchilik ko'nikmalari rivojlanadi. Natijada PISA, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etish imkoniyati kengayadi.

Tabiiy fanlar - insonni, uning sog'lig'ini, shuningdek butun atrof-muhitni: tuproqni, atmosferani, umuman yerni, kosmosni, tabiatni, barcha tirik va jonsiz jismlarni tashkil etuvchi moddalar va ularning o'zgarishini o'rganadigan fanlardir. Tabiatda ro'y berayotgan hodisa va jarayonlar, tirik organizmlarning rivojlanish bosqichlari, tabiat va jamiyat qonunlariga insoniyatning ko'rsatadigan ta'sirlari haqida ilmiy va amaliy bilimlar majmuasini yoritish tabiiy va iqtisodiy fanlar blok-modulining asosiy vazifasini belgilab beradi.

Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning ilmiy-tabiiy dunyoqarashlarini shakllantirish va kengaytirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatishda har bir dars mavzuyini bayon qilishga e'tibor beriladi. O'quvchilar topshiriqlarni individual bajarish jarayonida ularning aqliy faoliyati jalb etiladi, o'z bilimi, kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonch ortadi. Buning natijasida har bir shaxs o'z imkoniyati darajasida rivojlanadi. Shu tarzda tashkil etilgan bilish faoliyatida vaqtdan unumli foydalaniladi. Pirovard natijada ta'lim samaradorligi ortadi. Ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanib o'tiladigan darslarda o'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etiladi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida kompetensiyadan foydalanish darslarning xilma-xil shakllarida o'qitishni takomillashuviga ta'sir ko'rsatadi. Darslarda "Kuzatish metodi", "SWOT-tahlil" metodi, " Venn diagrammasi", "Sinkveyn" metodi, "Bumerang" texnologiyasi, "Arra", "O'z o'rningni top", "FSMU", "Nima uchun?", "Ikki qismli kundalik" metodlari, "Pinbord" usuli, "She'rni tikla" kabi mashqlaridan foydalanib o'tish dars samaradorligini yanada oshiradi.

Kuzatish metodi – bu tirik organizmlarda boradigan jarayonlar va tabiat jismlarida sodir bo'ladigan hodisalarni o'quvchilarning maqsadga muvofiq holda idrok etishi hisoblanadi. Bu metodda o'quvchilarning kuzatishi bo'yicha to'plangan ma'lumotlari bilim manbai sanaladi. Kuzatish metodidan biologiyani o'qitishning barcha shakllarida foydalaniladi. Kuzatish metodidan dars jarayonida foydalanilganda o'quvchilar dars mazmuniga oid ko'rgazma vositalarini mustaqil kuzatadilar, natijada kuzatish ob'ektlaridagi o'ziga xos xususiyatlarni isbotlovchi dalillarga ega bo'ladilar. Bunday kuzatish qisqa muddatli bo'lib, ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi.

O'simliklar hayotidagi bahorgi, kuzgi mavsumiy o'zgarishlar, kelib ketuvchi qushlarning hayotini kuzatish, hashoratlarning rivojlanishini o'rganish kabi kuzatishlar uzoq muddatli davomli kuzatishlar sanaladi.

“O'z o'rningni top” metodi. Mavzu bo'yicha bahs-munozarali vaziyatlarda muammoning yechimini topishga yo'naltirilgan. Bunda o'quvchilar o'z fikrini bayon qilishi, muloqot ko'nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo'ladi va dars so'ngida o'qituvchi tomonidan mavzuni o'zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi. **Maqsadi:** o'quvchilarda o'z fikrini bayon qilish, erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir. **Vazifasi:** o'quvchilarni muammoli vaziyatlar orqali mustaqil tarzda o'z fikrlarini isbotlashga o'rgatiladi.

«Klaster» metodi. Ushbu metod o'quvchilarga muammolar (mavzular) xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. «Klaster» metodi turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi

tuzilmani aniqlashni talab etadi. Bu metod aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli hisoblanadi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. «Klaster» metodidan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda ushbu metod guruh a'zolari tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmuyi tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa guruhning har bir a'zosi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirish hamda ular o'rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi.

«Aqliy hujum» metodi muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod hisoblanadi. Bu metod o'quvchilarni muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan dars jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. Mazkur metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag'batlantirishdan iborat.

“Arra” metodi. Mazkur metodga ko'ra kichik guruh 4-5 o'quvchidan tashkil topadi. Barcha guruh a'zolari yangi mavzu yuzasidan tuzilgan yagona topshiriq ustida ishlaydilar. Guruh ichida o'quvchilar rivoyat matnini qismlarga ajratib, bo'lib oladilar. Har bir o'quvchi o'ziga tegishli qismini puxta o'zlashtirib “mutaxassis”ga aylanadi. Ma'lum vaqtdan so'ng har bir kichik guruhdagi “mutaxassis”lar uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o'tkaziladi. Shu tarzda rivoyat mazmunini barcha o'quvchilar o'zlashtirib oladilar. **Maqsadi:** o'quvchilarda muloqotlashuv, erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlashga o'rgatish. **Vazifasi:** o'quvchilarni guruh bilan ishlash, guruh a'zolariga o'z fikrini tushuntirib, isbotlashga o'rgatish.

“Sinkveyn” metodi

Sinkveyn – fransuzcha -“cinquains”, inglizcha - “cinquain” so'zlaridan olingan bo'lib “5 qator” ma'nosini bildiradi. Sinkveyn - ma'lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha(hodisa, voqea, mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi so'zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi.

“Venn diagrammasi” metodi

Venn diagrammasi ikki va uch jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. O'quvchilarda tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

- Undan foydalanish bosqichlari:
- o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi;
- plakatga chizilgan diagramma doskaga osib qo'yiladi;
- har bir to'g'ri fikrga qo'yiladigan ball oldindan kelishib olinadi;
- qo'yilgan topshiriq bo'yicha guruhlarining har qanday to'g'ri yoki noto'g'ri fikrlari bir o'quvchi tomonidan ikki xil rangdagi flomasterda diagrammaning tegishli joylariga yozib boriladi;
- kichik guruh ichidan biror o'quvchi sheriklarining ismi-shariflari to'g'risiga ular aytgan fikrlarni qayd qilib boradi;
- fikr bildirishlar nihoyasiga yetgach, o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligida to'g'ri va noto'g'ri javoblar aniqlanadi;

- to'g'ri javobga uch ball qo'yiladigan bo'lsa, har bir noto'g'ri fikr uchun guruhning umumiy balidan uch ball olib tashlanadi;

- eng ko'p ball to'plagan guruh g'olib hisoblanib ular rag'batlantiriladi;

- bu jarayonda kichik guruhda qayd etilgan javoblarning noto'g'rilari o'chirib chiqiladi va natijalar e'tiborga olingan holda o'quvchilarga tabaqalashtirilgan ball qo'yiladi.

Venn diagrammasi metodini barcha sinflarda bir-biriga bog'liq mavzularni tahlil qilish, solishtirish, taqqoslash va mustahkamlashda foydalanish yaxshi samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. D. Sharipova, D.P. Xodiyeva, M. K. Shirinov Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi Toshkent, "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil.
2. M.Nuriddinova. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi" Toshkent, O'qituvchi 2005-yil.
3. G Sayfullaev, L Alimova, U Ollokova. Formation of environmental knowledge in pupils of second class in the lessons the world around us. Bridge to science: research works, 206-208.
4. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). POSSIBILITIES OF CREATIVE THINKING AND ITS MANIFESTATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Open Access Repository, 4(02), 81-84.
5. Kulmuminov, U. (2023). CREATIVE TEACHING IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE EDUCATION. *Open Access Repository*, 4(2), 434-437.
6. KULMOMINOV, O. (2023). ISSUES OF DEVELOPMENT OF STUDENT'S CREATIVE SKILLS IN WORLD SCIENCE. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 54-56.
7. Kulmominov, O. (2023). TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN NATURAL SCIENCE TEACHING. Open Access Repository, 9(10), 112-116.
8. Mukhtarova, L. A. (2021). THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 792-797.
9. Muxtarova, L. A. (2021). Use of multimedia technologies in the educational process. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1781-1785.
10. Мухтарова, Л. А. (2018). Пути Использования Возможностей Мультимедиа В Повышении Качества И Эффективности Уроков Чтения В Начальных Классах. *Научные горизонты*, (11-1), 247-252.
11. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие И Формирования Критического Мышления У Школьников Начальных Классах. *Гуманитарный трактат*, (24), 13-14.

TA'LIM, TARBIYA FAOLIYATI MAZMUNI*Termiz davlat pedagogika instituti**Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası v.b dotsenti**(PhD) Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna**mahliyoxabibullayevna@mail.ru**telefon: +998974559225*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarbiyaning obyektiv qonunlari, o'quv tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va ijtimoiy hayotda insonlarning o'ziga xosligi va sifatlarini rivojlantirish, o'quvchilarda mavjud bo'lgan ilk tarbiya ko'rinishlarini yanada takomillashtirish o'qituvchilar, tarbiyachilar, murabbiylarning oldida turgan muhim vazifa ekanligi asoslangan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv faoliyatiga tayyorlash zaruriyati haqida so'z yuritilgan.

Tanch so'zlar: ta'lim, tarbiya, o'quv jarayoni, vazifa, o'quvchilar, pedagog, o'qitish.

Аннотация. В данной статье обоснованы объективные закономерности воспитания, Воспитание организация воспитательного процесса и развитие индивидуальности и качеств людей в общественной жизни, дальнейшее совершенствование имеющих у воспитанников проявлений раннего воспитания- важная задача, стоящая перед педагогами, воспитателями, наставниками. Говорилось о необходимости подготовки будущих учителей начальных классов к учебной деятельности.

Ключевые слова: воспитание, учебный процесс, задача, ученики, педагог, обучение.

Abstract. This article is based on the objective laws of upbringing, the organization of the educational educational process and the development of personality and qualities of people in social life, and the fact that further improvement of the first forms of upbringing available to students is an important task facing teachers, educators, coaches. It was mentioned about the need to prepare for the educational activities of future primary school teachers.

Key words: upbringing, educational process, task, students, educator, teaching, attention.

Kirish: O'zbekiston ta'lim tizimining barcha bosqichlarida xususan, maktabgacha ta'lim, umumta'lim maktablarida, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida tarbiya fani turli ko'rinishda o'qituvchi va murabbiylar tomonidan o'qitilib, ta'lim berib kelinmoqda. Prezidentimiz o'z nutqlarining birida ta'lim bo'g'inlarida tarbiya fanining ahamiyati o'rni va vazifalariga alohida to'xtalib o'tar ekan, jumladan, shunday ta'kidlagan edilar: "Bizni o'ylantiradigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgarayapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularni qalbida doimo aks sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya, va faqat tarbiya hisobidan. Zero, allomalardan qolgan gap bor, "ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib tasavvur etib bo'lmaydi. Mazkur gap naqadar haq ekanligini farzandlarimiz bilimli, tarbiyali, odobli bo'lib yetishganlarida, yurtga, elga nafi tegadigan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayganlarida anglab yetamiz.

Asosiy qism: Jahonda zamon talablariga mos metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan pedagog kadrlarni tayyorlash, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiya fanini o'qitishga tayyorgarligini takomillashtirish mexanizmlari ta'lim jarayoniga tatbiq etib borilmoqda. Jumladan, Janubiy Koreyada o'tkazilgan Xalqaro ta'lim forumida 2030-yilgacha qabul qilingan "Incheon declaration"da "davlat tomonidan moliyalashtiriladigan, teng sifatli boshlang'ich va o'rta ta'limni ta'minlash"⁶⁶, fan va ta'lim yutuqlarini o'quv materiallari mazmuniga singdirib borish, ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, oliy ta'lim va umumta'lim muassasalarining didaktik imkoniyatlarini integratsiyalash bo'yicha yirik loyihalarni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan tizimli ishlar bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilmoqda. Jahon ta'lim muassasalari va tadqiqot markazlarida yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularning munosib kasb-hunar egallashlari, ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish va kadrlar tayyorlashni zamon talabi darajasiga ko'tarish, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida ta'limni zamonaviy talablar asosida tashkil etish hamda mazmunan yangilash bo'yicha ham bir qancha ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga uzluksiz ta'lim tizimini fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish, raqobatbardosh o'qituvchining pedagogik faoliyatida metodik tayyorgarlikni kuchaytirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning normativ-huquqiy asoslari yaratilmoqda. "Davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, yurtparvar, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan, insoniy fazilatlariga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash, bu borada yangicha yondashuvlarni talab etadigan ta'lim-tarbiya usullaridan foydalanishda tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirishga bog'liq"⁶⁷. Umumta'lim muassasalarida o'quvchilarining yoshiga xos psixo-fiziologik jihatlarini hisobga olgan holda ularda umuminsoniy qadriyatlar va barkamol ma'naviyatni, sog'lom tarbiyaviy muhitni chuqur singdirish, o'quvchilarni vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'naviy va tarbiyaviy ishlarni yangicha ko'rinishda tashkil etish ustuvor vazifalar etib belgilandi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish va rivojlantirib borish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil yoshlar kuni munosabati bilan so'zlagan nutqida yoshlarni qo'llab-quvvatlash dolzarb ekanligiga alohida to'xtalib: "Umuman olganda, har qanday jamiyat taraqqiyotida ushbu jamiyatning kelajagi bog'liq bo'lgan yosh avlodning sog'lom va barkamol rivojlanishi hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Shuning uchun islohotlarimizni kengaytirish va samaradorligini yanada oshirish masalalarida biz zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan g'ayratli, tashabbuskor, har tomonlama rivojlangan

⁶⁶ ⁶⁶ Incheon declaration // Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19 – 22 may 2015, Incheon, Republic of Korea)

⁶⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/4545884>

yoshlarimizni o‘zimizga tayanch deb bilamiz” degan edi. Shuningdek, mamlakatimizda yangi Uyg‘onish davrining poydevorini shakllantirish uchun yangi Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Navoiy va Boburlarni tarbiyalash uchun muhit va sharoit yaratish zarurligini ta’kidlagan edi.

“Bugungi davrdagi eng ustuvor vazifalardan biri bu katta maqsadlarni belgilash va ularga yetishish yo‘lida bilimli, salohiyatli yoshlarni tarbiyalashdir. Agar ushbu vazifalarni amalga oshira olsak, yoshlar xalqimizning azaliy orzularini ro‘yobga chiqaradigan haqiqiy kuchga aylanadi”.⁶⁸ Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ulardagi tashabbuskorlik, kreativ fikrlashni rivojlantirish maqsadga eltuvchi asosiy vositadir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Yoshlar forumida yigit-qizlarning dadilligi, bilimga bo‘lgan ishtiyoqlari, jasur va qat’iyatligini ko‘rib, bunday bilimli yoshlar bilan birgalikda yangi O‘zbekistonni barpo etishga yana bir bor ishonch hosil qilganligini ta’kidlagan edi.

Respublikamizda ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xuddi mana shu maqsadga yo‘naltirilgan. Zero, ushbu masala g‘oyaviy nuqtai nazardan O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun prinsiplariga to‘la muvofiq keladi.

Ta’lim-tarbiyaga oid milliy merosimizni o‘rganishning dolzarbligi nazariy jihatdan asoslidir. Xususan, uzluksiz ta’limning milliy modeli tamoyillari mohiyatan ta’limning milliy-ma’rifiy, milliy tarix, xalq an’analari, milliy merosimiz bilan uyg‘unlikda olib borilishini anglatadi. Umuman ta’lim-tarbiyaning milliy modeliga ko‘ra, ta’lim tizimini yangilash – tabiiy ravishda milliy merosimizni o‘rganish va uni pedagogik tafakkur iste’moliga olib kirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

